

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

*INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT*

*Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy
JURNAL*

2025-yil, 1-son

Urganch-2025

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati:

Z.Do’simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O’razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

D.I.Yo’ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Sh.X.Norbayeva – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.B.Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

Ch.A.Sabirova – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

S.I.Kalandarov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

D.F.Yusupov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

D.A.O’razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

O’I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.

G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, professor.

Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

B.P.Sadullayev – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

N.R.Matyakubov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

B.M.Satimov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

D.K.Bobojonov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.

M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.

B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

R.Y.Ro’ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori).

A.R.Matnazarov – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

F.Yusupov – Texnika fanlari nomzodi, dotsent

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

Azizullah Aral - Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).

H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O.Radjapov – Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

ISSN 3030-3206

MUNDARIJA:
TARIX

M.XASANOV Xorazmda zardushtiylik dini	4
G'.BOBOYOROV, SH.ISMOILOV. “Osor ul-boqiya” asaridagi o‘g‘uz turklari boshqaruvchilarining unvoni to‘g‘risida mulohazalar	8
M.JUMANIYOZOVA, F.JUMANYOZOV. “Maxfiy bilim” tushunchasi: turlicha qarash va mulohazalar	14
A.DJABBOROVA. Xorazm vohasi ziyyaratgohlarida o‘tkaziladigan marosimlar..	23
U.BEKMUHAMMAD. Umar Xayyom hayoti, faoliyati va ijodiga yangicha nazar	28
F.ABDUXOLIQOV. Kamoliddin Behzod miniatyurlarida temuriylar davri vakillari tasviri	44
U.IBRAGIMOV, N.KUZIEVA. Alixon G‘ofurning Xivaga safari	50
D.ATAYEVA. Tarix fani o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi va uni rivojlantiruvchi omillar	53

FILOLOGIYA

R.JABBOROV. Rumiy qalbidagi oftob	56
S.SAMANDAROVA, U.BEKMUHAMMAD. Turdi Farog‘iy va u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.....	60
O‘.PANAYEVA. Milliy va umumbashariy xarakter tarixiyligi.	65
G.MATYOQUBOVA . Rauf Parfi she’riyatiga bir nazar.	70

IQTISODIYOT

I.ABDULLAEV, D. MATYOQUBOVA . Tizimli ko‘p vektorli diversifikatsiya strategiyasi konsepsiysi	76
S.KADIROV. Sanoat korxonalarini klasterlashtirish usullari	81

FALSAFA

O.RADJAPOV. Yoshlarni intellektual shakllantrishda kitobxonlik madaniyatining o‘rni	86
--	----

TARIX
XORAZMDA ZARDUSHTIYLIK DINI
(arxeologik va yozma manbalar tahlili)


**Mardonbek
XASANOV,**
Urganch davlat
universiteti o‘qituvchisi

UO‘K 910.4

Annotation: Mazkur maqolada Xorazm vohasi hududida arablar istilosigacha bo‘lgan davrda (VIII asrgacha) zardushtiylik dinining mavjud bo‘lgani va boshqa dinlardan ustunlik qilib kelgani arxeologik material va yozma manbalardagi ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье на основе археологического материала и письменных источников анализируется существование зороастрийской религии и ее господство над другими религиями в Хорезмском оазисе до арабского завоевания (до VIII в.).

Annotation: In this article, on the basis of archaeological material and written sources, the existence of the Zoroastrian religion and its dominance over other religions in the Khorezm oasis before the Arab conquest (until the 8th century) is analyzed.

Kalit so‘zlar: Xorazm, Mizdaxqon, zardushtiylik, ossuary, dakhma, nekropol, afrig‘iyalar, Xorazmshoh, Savshafan, Kanik

Ключевые слова: Хорезм, Миздахкан, зороастризм, оссуарий, дахма, некрополь, афригиды, Хорезмшиах, Савшафан, Каник

Key words: Khorezm, Mizdahkan, Zoroastrianism, ossuary, dakhma, necropolis, Afrigidids, Khorezmshah, Savshafan, Kanik

Zardushtiylik – dunyo dinlarinig eng qadimgilaridan biri bo‘lib, u kishilik tarixidagi ko‘pgina xalqlarning ijtimoiy va madaniy hayotiga o‘zining bevosita yoki bir qadar ta’sirini ko‘rsatgan. Zardushtiylik miloddan avvalgi VI asrdan milodiy VII asrgacha mavjud bo‘lgan uchta buyuk eroniy imperiyalarning davlat dini bo‘lgan hamda O‘rta Sharq va Yaqin Sharqning katta qismida ustunlik qilib kelgan.

Xorazmda zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi va rivojlanishi muammosini o‘rganishda sovet arxeolog va etnograflarining o‘rni kattadir. Bu sohada mazkur muammo bo‘yicha jiddiy ish olib borgan S.P.Tolstov, Y.A.Rapoport, V.N. Yagodin, A.V.Gudkova, G.P.Snesaryev va boshqalarning tadqiqotlarini yuksak baholash mumkin.

Xorazm tarixiy yodgorliklarining ko‘p yillar mobaynida o‘rganilishi natijasida aniqlangan terrakotadan yasalgan sopol haykalchalar, sopol bo‘rtma naqshlar, tangalarda aks etgan muhrlar, shuningdek turli xil ossuariylardan iborat juda katta va boy materiallar hamda qator yozma manbalar qadimgi xorazmiylar e’tiqodining xarakteri to‘g‘risida ishonch bilan gapirishga yordam beradi.



Xorazmda marhumning suyaklarini zardushtiylik e'tiqodi qoidalari bo'yicha maxsus sopol idishlar – ostadon (ossuariy)larda saqlash odati tarqalganligi arxeologik qazilma ishlar davomida aniqlangan. Xorazmda paydo bo'lgan dastlabki ostadonlar odam shakli ko'rinishida, ya'ni antropomorfli bo'lib (bu turdag'i ostadonlarning ko'pchiligi Qo'yqirilgan qal'adan topilgan), ularning tarqalishi miloddan avvalgi IV asrdan milodiy II asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi [1. B-58]. III asrdan boshlab bunday turdag'i ostadonlar voha hududida umuman uchramaydi. Qat'iy o'rnatilgan diniy tizimi zardushtiylik bo'lgan Sosoniylar davlatining Xorazmga harbiy yurishlari to'g'risidagi ma'lumotlarning borligi [2. B-170] uchun taxmin qilish mumkinki, haykalli ostadonlardan birdan va butunlay voz kechish butparastlik keskin qoralanadigan eron zardushtiyligining to'g'ridan-to'g'ri ta'siri ostida ro'y bergan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, eron zardushtiyligi bilan mahalliylashgan xorazmiylar zardushtiyligi o'rtasida biroz tafovut bo'lgan – ossuariylarning odam haykali ko'rinishida bo'lishi na Markaziy Osiyoda va na Eronda uchraydi.

Ikkinci fors imperiyasining Xorazmga ta'sirini o'rta asrlarda Xorazmning savdo va madaniy hayotida katta rol o'ynagan Mizdarkhon shahri misolida ham ko'rish mumkin. Mizdarkhon nekropolidan III asrdan VIII asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrga mansub ko'plab ostadonlar topilgan bo'lib, ossuariylarning xarakterli jihatni ularda ko'plab mayda teshiklarning mavjudligidir [3. B-129]. O'xshash teshiklarga ega ossuariylar O'zbekistonning boshqa hududlaridan ham topib o'rganilgan [4. B-37]. Ostadonlar nima maqsadda yoriqlar bilan jihozlanganini bilish uchun ba'zi tadqiqotchilar ostadon xarakteristikasi berilgan o'rtafors zardushtiylik matni Dadistani-Dinikka murojaat qilishadi. Zardushtiylarning mazkur diniy kitobida (VIII-IX asrlarda yozilgan) ostadon – yorug'lik tushishi uchun teshik bilan jihozlangan, qopqog'i bo'lgan ichi bo'sh narsa sifatida ta'riflanadi [5. B-168]. Abadiyotlarda bu matn ossuariyning

tavsifidan boshqa narsa emasligi allaqachon qayd etilgan. Shunday qilib, ossuariylarda yorug‘lik o‘tishi uchun teshiklarning mavjudligi Sosoniyalar davrida davlat dini darajasiga ko‘tarilgan zardushtiylik qoidalaridan biriga mos keladi. Bu belgi, boshqa nishonalar bilan birgalikda mazkur ossuariylarga dafn etilganlar zardushtiylargaga mansubligini bildiradi.



Umuman olganda, voha hududida olib borilgan arxeologik tadqiqot izlanishlari davomida juda ko‘p sonli ossuariylarning Qalaliqir I (mil.avv. V-IV asrlar), Qo‘yqirilgan qal‘a (mil.avv. IV-III a.), Gaur qal‘a (milodiy IV-VIII a.), To‘q qal‘a (VII-VIII a.), Burgut qal‘a (VII asr), Quyuq qal‘a (VII-VIII a.), Tuproq qal‘a (VII a.), Qo‘rg‘oncha (VII a.) va yana boshqa joylardan topib o‘rganilgani hamda yuqorida keltirilgan

dalillarni hisobga olsak, islomdan oldingi Xorazmda zardushtiylik dini hukm surganiga ishonch hosil qilamiz. Shuningdek, o‘z davrida Qo‘yqirilgan qal‘a va Chilpiq qal‘a zardushtiylar dahmasi vazifasini o‘tagani dalilini inobatga olsak, Xorazm aholisining islomgacha bo‘lgan diniy qarashlari to‘g‘risidagi fikrlar yana ham teranlashadi.

Mizdaxxon nekropolidagi B-r-I-14 tipdagi ossuariy ichidan ko‘plab mis tangalar qatori 751-yilda Xitoya elchi yuborgan afrig‘iy Savshafan, shuningdek Qanig‘ ismli xorazmshohga tegishli tangalarning topilishi hamda qator tarixiy, arxeologik va numizmatik ma’lumotlarga tayanib, A.V.Gudkova va V.L.Livshitsning To‘q qal‘a ossuariylaridagi yozuvlarning 750 va 775-yillar orasidagi davrga mansubligi [6. B-8] Xorazmda zardushtiylik dini Qutayba ibn Muslim fathidan keyin – VIII asr ikkinchi yarmida ham amalda bo‘lganini tasdiqlaydi.

Endi islomdan oldingi davrdagi zardushtiylik odatlarini yozma manbalar bo‘yicha ko‘rib chiqamiz. Shulardan eng qadimgisi “Avesto” bo‘lib, zardushtiylarning ushbu kitobi (aniqrog‘i, uning keyingi qismlaridan biri – Videvdat) o‘lganlarning jasadlarini itlar va qushlarga berishni va ularning suyaklarini saqlab qo‘yishni buyuradi [1. B-5].

Qadimda zardushtiylik gullab-yashnagan Eronga sayohat qilgan bir sayyoh shunday yozadi: “Shahardan tashqarida boshqalardan alohida yashovchi odamlarning shunday bir toifasi bor. Ular marhumlarni dafn qilish bilan shug‘ullanadi va noplak hisoblanadilar. Agar ular shahar bozoriga kelishsa, qo‘ng‘iroq chalgan holda o‘zlar haqida belgi berishadi” [8. B-262].

Xitoylik sayyoh Vey-Sze tomonidan qoldirilgan VII asr boshlariga tegishli ma’lumotga ko‘ra, Samarqand shahri tashqarisida dafn marosimlarini o‘tkazishga ixtisoslashgan ikki yuzdan ortiq oila alohida yashagan [9. B-133].

739-yilda Samarqandda buxorxudot Tug‘shodaning halokati haqida hikoya qila turib, Tabariy va Narshahiy shuni qayd qiladiki, marhumning xizmatkorlari murdaning go‘shtini ajratib tashlab, suyagini Buxoroga olib ketadilar. Va nihoyat, Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida hindlarning eng qadimiy dafn marosimlarini bayon qilib, ilgari jasadlar majusiy kohinlarning dahmalariga o‘xshash shamol urib turadigan baland joylarga qo‘yib qo‘ylganini yozadi [10. B-478].

Shunday qilib, o‘liklarning suyaklari turli usullar bilan tozalangan: hayvonlar yordamida, yumshoq to‘qimalarni suyakdan ajratish yo‘li bilan yoki marhumning murdasini shunchaki chirib bitadigan maxsus imoratlarda qoldirish orqali va h.k. An’anaviy zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, o‘likka aylangan hamma narsa, eng avvalo, inson jasadi tevarak-atrofni ifloslash manbai sanaladi, shuning uchun bunday ifloslanishdan tuproq zararlanishi mumkin. Vendidad o‘liklarni yerga ko‘mish eng og‘ir jinoyatlardan biri ekanligiga alohida e’tibor qaratgan.

Shu tufayli Xorazmda qadimgi davrda turli ko‘rinishdagi ostadonlarning juda keng ommalashgani voha hududida islomdan oldingi vaqtida – VIII asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrda zardushtiylik dini mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рапорт Ю.А. Из истории религии древнего Хорезма. М., 1971.
2. Henning W.B. The Choresmian Documents, “Asia Major”, New Series vol. XI, part. 2, London, 1965.
3. Ягодин В.Н., Ходжайов Т.К. Некрополь древнего Миздакхана. Т., 1970.
4. Ставиский Б.Я. К вопросу об идеологии домусульманского Согда, СРИКМ ТаджССР, вып. 1, Сталинабад, 1959.
5. Иностраницев К.А. Туркестанские оссуарии и астоданы. ЗВО, т. XVII, вып. 4, СПб., 1907.
6. Гудкова А.В., Липшиц В.А. Новые хорезмийские надписи из некрополя Ток-кала и проблема «хорезмийской эры» // Вестник Каракалпакского филиала Академии наук Узбекской ССР. 1967. Вып. 1. С. 8
7. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена, т. II. М.-Л., 1950.
8. “Сборник трудов Орхонской экспедиции”, т. VI. “Documents sur les Toukiue (Turcs) occidentaux. Recueillis et commentés par. Ed. Chavannes. St.-Petersbourg, 1903.
9. Бируни, Избранные произведения, т. II. М., 1995.

TARIX

**“Osor ul-boqiya” asaridagi o‘g‘uz turklari boshqaruvchilarining
unvoni to‘g‘risida mulohazalar**



**G‘aybulla
BOBOYOROV,
O‘zR FA Milliy
arxeologiya markazi
katta ilmiy xodimi,
professor**



**Shoxruhmirzo
ISMOILOV,
Tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori**

UO‘K 540.20

Annotatsiya: Bizgacha Xorazmning X asrga oid bo‘lgan tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar nihoyatda kam yetib kelgan. Shu boisdan bu davr tarixining ko‘plab lavhalari bizga qorong‘i bo‘lib qolmoqda. Jumladan, Xorazmning shimoliy chegaralari bo‘ylab istiqomat qilgan turkiy o‘g‘uz qabilalarining siyosiy tarixi, davlat boshqaruvi an’analari borasida yakdil xulosalar chiqarilmagan. Ushbu maqolada yuqorida tilga olingan mavzular numizmatik va qo‘lyozma asarlar orqali tahlil qilinadi. Shu jumladan, ushbu mavzuga oid Abu Rayhon Beruniyning “Osor ul-boqiya” asarida keltirilgan ma’lumotlar tahlili asosida yuqoridagi mavzuga aniqlik kiritishga harakat qilinadi.

Аннотация: До наших дней дошли исторические источники и археологические находки Хорезма, относящиеся к X веку. Поэтому многие записи истории этого периода остаются для нас темными. В частности, не сделано единых выводов относительно политической истории тюрко-огузских племен, проживающих вдоль северных границ Хорезма, и традиций государственного управления. В данной статье вышеуказанные темы анализируются на примере нумизматических и рукописных произведений. В том числе, на основе анализа информации, изложенной в работе Абу Райхана Беруни «Осор уль-Бакия» по данной теме, делается попытка прояснить вышеуказанную тему.

Annotation: Historical sources and archaeological finds of Khorezm dating back to the 10th century have survived to this day. Therefore, many records of the history of this period remain dark for us. In particular, no uniform conclusions have been made regarding the political history of the Turkic-Oguz tribes living along the northern borders of Khorezm and the traditions of government. In this article, the above topics are analyzed using the example of numismatic and manuscript works. In particular, based on the analysis of the information presented in the work of Abu Rayhan Beruni “Osor ul-Bakiya” on this topic, an attempt is made to clarify the above topic.


Kalit so‘zlar: turkiylar, o‘g‘uz, yabg‘u, xoqon, xonuvta, unvon, tanga.

Ключевые слова: тюрки, огузы, ябгу, каган, ханувта, титул, монета.

Key words: Turks, Oghuzs, Yabgu, Kagan, Khanuvta, title, coin.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) yozib qoldirgan turli ma’lumot – bilgilar O‘rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, turkiy el-uluslar o‘tmishi bilan bog‘liq ko‘plab chigal masalalarga aniqlik kiritadi. Ayniqsa, uning o‘g‘uz turklariga

tegishli bilgilari o‘zining birlamchiligi va aniqligi bilan ajralib turadi. Buning negizida esa Beruniy yashab ijod qilgan o‘lkalarda o‘g‘uzlarning o‘rni bo‘lakcha bo‘lgani yotadi. Shu o‘rinda Beruniyning “Osor ul-boqiya” (“O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asaridan o‘rin olgan o‘g‘uzlar boshqaruvida qo‘llanilgan unvon masalasini ko‘rib chiqar ekanmiz, bunga guvoh bo‘lamiz.



Beruniy tug‘ilib o‘sgan Xorazm yurti o‘sha kezlarda o‘g‘uz turklari ko‘pchilikni tashkil qilgan Sirdaryoning quyi havzalari, Qizilqum va Qoraqum cho‘llari, Kaspiy dengizi qirg‘oqlari aholisi bilan yaqin bordi-keldilarga ega edi. Bundan tashqari, Beruniyning o‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qatnashgan G‘aznaviyalar sulolasiga o‘z kelib chiqishiga ko‘ra o‘g‘uz turklariga borib taqalardi. Bu esa uning o‘g‘uz turklarini, ayniqsa, o‘g‘uzlarning tur mush yo‘sini va til xususiyatlarini yaqindan bilgan, deyishimizga turtki bo‘ladi. Shu bilan birga, Beruniy tomonidan

keltirilgan ayrim o‘g‘uzcha so‘zlar bo‘yicha anglashilmovchiliklarga duch kelamiz. Chamasi, uning asarlaridan nusxa ko‘chirilayotgan chog‘larda xattotlar o‘zlariga yaxshi tanish bo‘lmagan so‘z va atamalarni yozayotganlarida ayrim yanglishuvlarga yo‘l qo‘yanlar. Ayniqsa, Beruniy “Osor ul-boqiya” asarida o‘sha kezlarda musulmon Sharqi va unga qo‘shni o‘lkalarda qo‘llanilgan yuqori unvonlar to‘g‘risida to‘xtalar ekan, o‘g‘uz turklariga tegishli deb ko‘rsatgan atama bilan bog‘liq chigalliklar borligi ko‘zga tashlanadi.

X asr Xorazm tarixi hali ko‘p jihatdan o‘zining sirlarini saqlab qolmoqda. Shu jumladan, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha ham nafaqat O‘zbekiston, balki jahon tarixshunosligida ham deyarli tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Buni manbalar soni juda kamligi, sulolalar davr jihatidan juda kam vaqt hukm surganligi, arxeologik manbalar sonining ham sezilarli darajada kamligi, borlari esa kunimizgacha juda qattiq shikastlangan holda yetib kelganligi bilan izohlashimiz mumkin. Shu sababdan bizgacha O‘g‘uzlar va ularning davlat tuzilmasi mavzusiga oid bo‘lgan tarixiy ma’lumotlar ayrim manbalardagina qisqa shaklda yetib kelgan. Ular ham shu davrning iqtisodiy va siyosiy hayoti, davlat boshqaruvi organlari va ma’muriy unvonlar haqidagi to‘liq ma’lumot bera olmaydi. Shuning uchun, bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalar jumladan, Abu Rayhon Beruniyning asarlari orqali ayrim atamalar bo‘yicha mujmalliklar mavjud.

Ushbu mavzuni o‘rganishdagi asosiy manbalar vazifasini shu davrda zarb qilingan tangalar va mazkur davr tarixini yoritib berishga oid turli qadimiy qo‘lyozma asarlar o‘tab beradi. Tadqiqotda yozma manbalarda keltirilgan ma’lumotlar numizmatik manbalarga qiyosan o‘rganildi. Shu sababdan, mazkur tadqiqotda qiyosiy metoddan keng foydalanildi. Shuningdek, tarixiy manbalar va numizmatik to‘plangan materiyallar asosida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish uchun analiz-sintez metodlaridan foydalanildi.



Abu Rayhon Beruniyning “Osor ul-boqiya” asarining I. Abdullaev va O. Fayzullaev mas’ul muharrirligida A. Rasulov tomonidan o‘girilgan o‘zbekcha 1968-yilgi nashrida “Xazar va to‘qqiz o‘g‘uz boshqaruvchilarining eng yuqori unvoni “xoqon”dir, o‘g‘uz turklarining boshqaruvchilari esa “xonuvta”dir”, degan ma’lumotga duch kelamiz [Beruniy 1968: 129]. Shu bilan birga, Beruniy o‘zi yashagan X–XI yuzyilliklar va undan ancha oldin – islomdan oldingi chog‘larda O‘rtta Osiyoning kichik hukmdorliklari bo‘lmish o‘lkalar boshqaruvi bilan bog‘liq unvon va atamalarni keltirgan bo‘lib, Keshda – “nidun”, Shoshda – “tudun”, Farg‘onada – “ixshid”, Ustrushonada – “afshin”, Samarqandda – “tarxun”, Termizda – “termizshoh”, Xorazmda – “xorazmshoh”, Buxoroda – “buxorxudot” kabi atamalar yuqori unvon vazifasini bajargani anglashiladi [Beruniy 1968: 129]. Qizig‘i shundaki, ushbu atamalarning ayrimlari turkiy – “xoqon”, “tudun”, “tarxun/tarxon”, ayrimlari esa sharqiy-eroniy tillar negizidadir – “ixshid”, “afshin”, “xudot” va boshqalar.

Beruniy asarining o‘zbekcha nashriga tayaniladigan bo‘lsa, o‘g‘uz turklarining yuqori unvoni “xonuvta” bo‘lgan. Asarning ruscha o‘girmalarida ham ushbu unvon shu ko‘rinishda berilgan bo‘lib [Biruni 1957: 111], ko‘pchilik

izlanuvchilar bu atamaning to‘g‘ri yozilib-yozilmagani borasida to‘xtalib o‘tishmagan. Turkiy unvonlar tizimida shunga yaqin yoki o‘xshash biror atamaning uchramasligi, eski turkiy unvonlar bo‘yicha ma’lumot – belgi beruvchi O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari, xitoy yilnomalari, sug‘diy, arab, fors va boshqa tillardagi yozma manbalarda ham bunday atamaning uchramasligi [qar. Markwart 1938; Bartold 1963; Sümer 1999; Rybatzki 2000: 205-292; Golden 2002; Liu Mau-Tsai 2006; Tekin 2003; Lurje 2010; Kubatin 2016] ham Beruniy keltirib o‘tgan ushbu atamaning yozuv bichimi (orfografiyasi) qanchalik to‘g‘ri, degan savolni ko‘ndalang qo‘yadi.

Shu o‘rinda Beruniydan birmuncha oldin va keyin yashab, o‘z asarlarini arab, fors tillarida yozgan Tabariy, Narshaxiy, Istanxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy va boshqalar asarlarida shunga yaqinroq keladigan biror so‘z va atamaning uchramasligini aytib o‘tish kerak [qar. Ibn Haukal 1938; al-Istakhri 1967; al-Masudi 1967; Narshaxiy 1966; Tabari 1987]. Turkiy tillar bilimdoni Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug ‘ati-t-turk” (XI yuzyilliklar) asarida ham shunga yaqin biror so‘z o‘rin olmagan [Koshg‘ariy 1960–1963]. Shuningdek, eski turkiy tilga tegishli ko‘plab so‘zliklarda ham “xonuvta” yoki shunga yaqinroq so‘z uchramaydi [qar. DTS 1969; Clauson 1972; Doerfer 1965; Doerfer 1967]. Bundan tashqari, bu so‘zni eski turkcha va bugungi turkiy tillardagi so‘zlar yordamida ochiqlab bo‘lmaydi.

Bizningcha, Beruniy ushbu atamani “jabg‘uya” ko‘rinishida yozgan-u, keyinchalik nusxa ko‘chiruvchilarning nuqtalarni noto‘g‘ri qo‘yishlari uni “xonuvta”ga aylantirib qo‘ygan. Beruniydan biroz oldin yo biroz keyin yashagan musulmon tarixchi va geograflari asarlarida o‘g‘uz turklari boshqaruvchilarining unvoni – “jabg‘uya”, – “jābg‘uya”, - “jābuya” ko‘rinishlarida berilgan bo‘lib [Xordadbex 1986: 60, 69, 158; Ibn Havqal 2011: 12, 73, 90, 135, 173, 249; Istanxriy 2019: 237], Beruniy asaridagi – “xonuvta” so‘zining yozuv bichimi ham ular bilan deyarli birday. Ayniqsa, - “jabuya” va – “xonuvta” so‘zlarida harf belgilari bir xil ekan, faqatgina nuqtalar o‘zaro almashgani ko‘zga tashlanadi. Buni VIII–XI yuzyilliklarda Sirdaryoning o‘rta oqimlarida o‘z davlat uyushmasini tuzib, quyi Sirdaryo, Orolbo‘yi, O‘tror, Isjifob (Sayram) va Shosh (Toshkent) tegralarida o‘z ustunligini o‘rnatgan O‘g‘uz yabg‘ulari tangalarida “Jabuya” – جبوية ملک الغزية | مولى امير المؤمنين, “Jabuya – g‘uzlar (o‘g‘uzlar) boshqaruvchisi” degan so‘zlar o‘rin olgani ham ko‘rsatib turibdi [Goncharov, Nastich 2013: 80-91].

O‘rta asrlarda yozilgan arab, fors va turkiy tilli qo‘lyozmalarda turkiy atamalar, ayniqsa, ism va unvonlar arab yozuvida berilar ekan, mualliflarning o‘z til xususiyatlaridan kelib chiqib yondashgani yoki keyinchalik xattotlar nusxa ko‘chirayotgan chog‘larda nuqta almashinuvi yuz bergani, bu esa ko‘plab yanglishlarni keltirib chiqargani kuzatiladi.

Qisqasi, Abu Rayhon Beruniyning “Osor ul-boqiya” asarida o‘g‘uz turklari boshqaruvchilarining eng yuksak unvoni o‘laroq keltirilgan atamaga “xonuvta” emas, “jabg‘uya” deb qarash kerak bo‘ladi. Bu qarashni Beruniydan birmuncha oldin va keyin yashagan ko‘plab tarixchi, tilchi va geograflar asarlarida o‘rin

olgan bilgilar va Sirdaryoning o‘rtaligida quyilganda o‘z davlat uyushmasini tuzgan O‘g‘uz yabg‘ulari (VIII – XI yuzyilliklar)ga tegishli tanga-pullardagi yozuvlar ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Таржимон А. Расулов / Танланган асарлар. I жилд. Т.: Фан, 1968.
- 2.Абу Рейхан Бируни. Памятники минувших поколений / Перевод с арабского и примечания М.А. Салье // Бируни. Избранные произведения. Т. 1. Т., 1957.
- 3.Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Соч. Т. 1. М., 1963.
- 4.Гончаров Ю.Е., Настич В.Н. Монеты сырдаринских огузов X в. // Тюркологический сборник, 2013. С. 80-91.
- 5.Древнетюркский словарь / Под ред. В. М. Наделяева, Д. М. Насилова, Э. Р. Тенишева, А. М. Щербака. – Л.: Наука, 1969.
- 6.История ат-Табари. Избранные отрывки (Перевод с арабского В. И. Беляева. Дополнения к переводу О. Г. Большакова и А. Б. Халидова). Ташкент: Фан, 1987.
- 7.Ибн Хордадбех. Книга путей и стран / Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Наили Велихановой. Баку: Элм, 1986.
- 8.Ибн Ҳавқал. Мовароуннаҳр / Ибн Ҳавқал; араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин, масъул муҳаррир Ф.С.Хусанов. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2011.
- 9.Истаҳрий. «Китаб ал-масалик вал-мамалик». Йўллар ва ўлкалар китоби. Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва қўрсаткичлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. Т.: Фан, 2019.
- 10.Кошғарий Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луготит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. З томлик. Т.: Фан, 1960–1963.
- 11.Кубатин А. Система титулов Тюркского каганата: генезис и преемственность. Ташкент: Yangi nashr, 2016.
- 12.Наршахий, Абу Бакр Мұхаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи / Форс тилидан А. Расулов таржимаси. Т.: Фан, 1966.
- 13.Abu'l-Kasim Ibn Haukal. Kitab surat al-Ard. Viae et regna, Descriptio ditionis Moslemicae / Ed. M.J. de Goeje. Tomus I. Leiden, 1938.
- 14.Al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi. Kitab Mamalik wa Masalik. Viae regnorum. Ed. M. J. de Goeje. BGA. Pars 1. – Lugduni-Batavorum: E. J. Brill, 1967 (1870).

- 15.Al-Masudi, Kitab at-tanbih wa-l-ishraf / Ed. M.J. de Gouje. Bibliotheca Geographorum Arabicorum, pars 8. – Lugduni-Batavorum:E.J. Brill, 1967.
- 16.Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903.
- 17.Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford, 1972.
- 18.Golden P. B. Türk Halkları tarihine Giriş. Çev. O. Karatay. – Ankara: KaraM, 2002.
- 19.Bosworth C.E. The Turks in the early Islam Lands up to the Mid.-11th Century / The Turks in the early Islam world / edited by C.E. Bosworth. Ashgate Variorum, 2006.
- 20.Bosworth C.E., Gerard C. Al-Xwārazmī on the Peoples of Central Asia // Journal of the Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland, No. 1/2, 1965. – P. 2-12.
- 21.Doerfer G. Türkische und mongolische Elementen in Neopersische. Bd. II. – Wiesbaden, 1965.
- 22.Doerfer G. Türkische und mongolische Elementen in Neopersische. Bd. III. – Wiesbaden, 1967.
- 23.Liu Mau-Tsai. Çin kaynaklarına göre Doğu Türkleri. Çeviri E. Kayaoglu, D. Banoğlu. İstanbul, 2006.
- 24.Lurje P. Personal names in Sogdian texts in Iranisches Personennamenbuch 2. Mitteliranische Personennamen 8. – Wien: Verlag der Österreichischen Akademie der Wissenschaften, 2010.
25. Markwart J. Wehrot und Arang. Untersuchungen zur mythischen und geschichtlichen Landeskunde von Ostiran. Leiden, 1938.
26. Rybatzki V. Titles of Turk and Uigur Rulers in Old Turkic Inscriptions // CAJ. Wiesbaden, 2000. No 44. P. 205-292.
27. Sümer F. Türk Devletleri Tarihinde Şahis Adları. I. İstanbul, 1999.
28. Tekin T. Orhon Yazıtları. Kül Tigin, Bilge Kağan, Tunyukuk. İstanbul: Yıldız Yayınları, 2003.

TARIX

“MAXFIY BILIM” TUSHUNCHASI: TURLICHA QARASH VA MULOHAZALAR



Mamlakat
JUMANIYOZOVA,
Urganch Davlat
universiteti
“Tarix” kafedrasi
professori



Furqat
JUMANIYOZOV,
Urganch Davlat
universiteti
o‘qituvchisi

UO‘K 39:902(100)(083.13)

Annotatsiya: Ushbu maqolada “maxfiy bilim” tushunchasi, uning tarkibiy qismlari to‘g‘risida antik davr mualliflari, o‘rta asr musulmon olamining mutafakkirlari, rus va yevropa etnolog, filosof, mifolog va tilshunoslarining nazariy qarashlari tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические взгляды авторов античности, мыслителей средневекового мусульманского мира, русских и европейских этнологов, философов, мифологов и лингвистов о понятии «тайное знание», его составляющих.

Annotation: This article analyzes the theoretical views of the authors of antiquity, thinkers of the medieval Muslim world, Russian and European ethnologists, philosophers, mythologists and linguists about the concept of "secret knowledge" and its components

Kalit so‘zlar: “maxfiy bilim”, sehr-jodu, tabib, bashoratchi, Platon, Aristotel, Afansaev, Ushakov, Mazalova, Faxriddin Roziy, Abdurahmon Boliy, G.P.Snesaryov.

Ключевые слова: «тайное знание», магия, целитель, прорицатель, Платон, Аристотель, Афансаев, Ушаков, Мазалова, Фахридин Рязи, Абдурахман Боли. Снесарев Г.П..

The keywords: “secret knowledge”, magic, healer, diviner, Plato, Aristotle, Afansaev, Ushakov, Mazalova, Fakhriddin Razi, Abdurahman Boli. G.P. Snesaryov.

Hozirgi davrda ilm bu ma’lum sohaga oid bilim, ta’limot, malaka, o‘qish, o‘rganish, ko‘nikma, tahlil etish bilan erishiladigan tabiat va jamiyat haqidagi universal bilimdir, deb qabul qilingan. Ammo, bilimning boshqa bir turi borki, u marginal bilimdir. Bu tushuncha ortida amal qilayotgan ijtimoiy fenomen har qanday jamiyat hayotida o‘zining salbiy jihatlarini namoyon etadi. Biz tadqiq etadigan “maxfiy bilim”ning marginalligi uning pragmatik (salbiy va ijobiy) xususiyatlarining borligidadir. Sharq faylasuflari ilmning uch turi borligini e’tirof

etadilar: ilmi vorisiy, ilmi kasbiy va ilmi laduniy [1], ya’ni gen (qon) orqali o’tadigan, tanlanadigan va ilohiy bilim.

Bilimning marginal shakli bo’lgan “maxfiy bilim” (ilohiy bilim) insoniyat paydo bo’lganidan beri mavjud ekanligi faylasuflar, dinshunoslar, tarixchilar, sotsiologlar va etnograflar, tibbiyat olimlari tomonidan e’tirof qilib kelinmoqda. Shu bilan birgalikda u ilmning dastlabki shakli, katta tarixiy jarayonlarni bosib o’tib, voqeа va hodisalarga moslashgan holda taraqqiy etib kelayotgan ilmdir. Aytish joizki, uning eng muhim qo’llab-quvvatlovchisi din va uning shakllari bo’lib, asosiy g’oyasi va mazmunini tashuvchisi xalq qadriyatları va marosimlaridir. Insonlar ongiga hukmronlik qiladigan marosimlar umumxalq darajasiga ko’tarilsa, e’tiqod masalasi davlat darajasiga ko’tariladi. X.Karomatov “shohlar bu e’tiqod kuchidan hukmronlikni saqlab qolish yo‘lida mohirona foydalanadi, zodagonlar qatordan qolmaslikka intiladi, kambag‘allar esa kundalik hayot qiyinchiliklarini unutib, kelgusi hayot lazzati bilan ovunib yuradi. Sidqidildan ishongan alloma va fidoyilar unga hayotini baxshida etib, uning yo‘lida jonini ayamaydi” deya fikr bildiradi [2]. IX-XIII asrlarning mutaffakirlari ana shunday sidqidildan ishongan alloma va fidoyilar bo’lib, ularning ishlarida ro‘y bergen olamshumul madaniy yuksalish zamirida dunyoviy va diniy ilmlarning parallel holda taraqqiy etishi, ma’naviy bir-birini to‘ldirishi va boyitishi mujassamdir. Bu davr musulmon sharqi manbalarida [3] “maxfiy bilimlar”ga nisbatan “ilmi g’ayb”, “ilmi irfon”, “ilmi ladun”, “ilmi botin”, “ilmi asror”, “ilmi hol”, “ilmi maqom”, “ilmi-havas”, “kanzul-havas” yoki “gizli ilm” kabi atamalar qo’llanilgan [4].

“Maxfiy bilim”lar masalasi antik davrlardan beri o’rganuvchilar, o’rgatuvchilar, faylasuflar, dinshunoslar va etnolog hamda mifologlarning diqqatini tortib kelmoqda. Bu mavzu kimyogarlar, fiziklar, faylasuflar, matematiklar, astrolog, astronomlarning ham e’tiboridan chetda qolmagan. Meditsina sohasi vakillari va tarixchilar, dinshunoslar bu mavzuda o’zaro bahslashadilar. Demak, bu sohada qalam tebratmagan soha vakili yo‘q. Ushbu mavzuning eng ko‘p taftishchilarining qarashlarini va ularning asarlarini tadqiqot davomida keltirib boramiz. Fanlararo yondoshuvni talab etadigan bu soha o‘zining “maxfiy bilim”lari bilan yashirindir.

Mazkur tadqiqot mavzusini ochiqlashda fanlararo yondoshuv, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, statistik, etnografik dala amaliyoti usullari qo’llanildi.

“Maxfiy bilimlar” tushunchasini o’rganar ekanmiz, eng qadimgi davr falsafasida unga bo’lgan munosabatga to’xtalish zarur. Qadimgi dunyo faylasuflaridan biri Aflatunning [5] bilish haqidagi ta’limoti borliq bilan, inson haqida ta’limoti kosmologiya bilan bevosita bog‘liqdir. Uning ta’limotida

bilimni “g‘oyalar” nazariyasidan ajratib bo‘lmasligi, u g‘oyalarni tushunish qobiliyati va bilim orqaligina eng oliv haqiqatni tushunish mumkinligi, “yaxshilik” - g‘oyalarning eng buyugi ekanligi, qalb va ruh “g‘oyalar olami” va hissiy narsalar o‘rtasidagi vositachi bo‘lib, aynan, qalb g‘oyalarni tushunishga qodir ekanligi to‘g‘risidagi fiklar ilgari surilgan. Aflatunning fikricha bilish - bu ruhning o‘zining tug‘ilishidan oldin “g‘oyalar” olamida bilgan narsalarini esga olinishidir. Shuningdek, faylasuf bilim hissiy idrok emas, u hissiyat va ongning kombinatsiyasi va hissiy tajribani anglaydigan ong ekanligini e’tirof etadi. Ammo, Aflatunning shogirdi Aristotel “g‘oyalar” hissiy idrok etish uchun mos emas”, degan fikrga qo‘shilmaydi. Aristotel bilishning asosini har bir inson uchun hissiy idrok, turli g‘oyalar va xotiralardan iborat bo‘lgan “tajriba” deb hisoblaydi: “Sezgilar orqali biz idrok sohasidan xotiralar keltiramiz va tez-tez takrorlanadigan xotiralardan tajriba tug‘iladi, deydi. U tajribadan misollar keltirar ekan, hunarmandning qobiliyati va olimning bilimi bir xil darajada bo‘lib, koinotdan berilgan ruhga mos kelishini [6] aytadi. Aristotel bunday bilimlar uchun ular histuyg‘ularga qarzdor ekanligini ta’kidlaydi. Aytish joizki, Aristotel haqiqatni kuzatuv va his qilish organlari orqali idrok etishga alohida e’tibor qaratgan.

Mifologlar esa “maxfiy bilim”ning zamirida insonning tabiat bilan aloqa o‘rnatish qobiliyati yotishini uqtiradilar. N.A. Afanasev[7] “Qadimgi davrda bilim insonga yuborilgan mo‘jizaviy sovg‘a sifatida tushunilgan, u birinchi navbatda, ilohiy tabiatning sirli tilini tushunish, uning hodisalari va belgilarini kuzatish va izohlash, ibodat qilish va sehrlashdan iborat bo‘lgan. Qadimgi davrda barcha bilimlar, tibbiyot va she’riyat ham yagona bir butunlikni tashkil etib, diniy muqaddaslik kasb etgan”, degan fikrni bildiradi. U o‘z tadqiqotlarida nafaqat “maxfiy bilimlar”da, balki hayotning turli soha va faoliyatlarida dirlarning sinkretizatsiyasi bilan bog‘liq holatlarga e’tibor qaratadi va marosim mutaxassislarining jamiyatdagi roli va o‘rnini ochib berishga intiladi, ularning harakatlarini qadimgi afsonalarning qoldiqlar va parchalari ekanligini aytadi.

O‘zbek mifologlari ham “maxfiy bilimlar” masalasiga o‘z nuqtai-nazaridan yondashib, g‘ayritabiiy hodisalar bayonini kishilarning xayoliy motivlariga asoslangan mif-afsona deb qaraydilar. Insondon tashqaridagi olam bilan insonning muloqotini (parilar, devlar) tabularga asoslanganini ko‘rsatishadi, ammo, tabuning buzilishi transformatsiyada sotsial ma’no kasb etishi, estetik funksiyani ado etuvchi poetik vosita, holatiy turtkilarni xayoliy uydirmaga asoslanishi, deb qaraladi [8].

Etnograf E.Taylor etnografiya faniga “ibridoiy animizm” tushunchasini olib kirar ekan, qadimgi odam inson tushiga kirgan voqelik jonning tanadan tashqarida bo‘lgan paytida ko‘rgan-kechirganlarining ifodasi, deb tushunganligini aytadi. Teylor, qadimgi odamlar tush ko‘rish yoki o‘limning mohiyati haqida

o‘ylaganda, har bir kishida alohida substansiya, ya‘ni jon mavjud bo‘ladi va u o‘zining tana qobig‘idan vaqtinchalik yoki butunlay chiqib ketishi mumkin, deb tasavvur qilganligini [9] aytish bilan, tushda olinadigan bilim mavjudligiga ishora qilganligini o‘zi sezmagan holda yozadi. Vilgelm Maks Vundt (1832-1920) o‘zining “Xalq psixologiyasi” (1912) asarida turli xalqlarning miflari va poetik motivlarini o‘rganish asnosida ayrim diniy e‘tiqodlar va badiiy-estetik qarashlar inson ruhiy kechinmasining muayyan holatida yuzaga kelganligi haqidagi farazni ilgari suradi. Bu – folklorshunoslik fanidagi «qadimgi miflar ibridoiy odamning ongsiz ijodiy faoliyati mahsuli» degan ilmiy qarashning ilk kurtagi bo‘lgan. V.M.Vundtning ”Mif va din” (1905-1909) nomli uch jildlik asarida mifologiyaning kelib chiqishi bilan bog‘liq animistik, naturalistik, “tadrijiy” va pereanimistik nazariyalar tahlil qilingan. Asarning “ibridoiy animizm”ning o‘ziga xos xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan faslida esa jon va ruh, tush va uning animistik talqini, jon kulti, animizm va fetishizm, animizm va totemizm, animizm va magiya, ajdodlar kultiga ishonish va qurbanlik marosimi haqida keng ko‘lamli tahliliy mulohazalar bayon qilingan. Mifologiya va qadimgi marosimlar “psixologik jarayon” mahsuli sifatida tadqiq etilgan bo‘lsa-da, V.M.Vundtning “ruhiy-tahlil metodi” o‘sha paytda folklorshunoslar orasida unchalik shuhrat topmagan [10].

Mifologiyaning g‘arb maktabi vakillari “maxfiy bilimlar”ni va ularning tashuvchilarini 3 turga ajratadilar: jodu ilmi (jodugarlar), sehr ilmi (sehrgarlar) va tabib ilmi. Aynan, ana shu uchta ilmda maxfiylik mavjud.

Rus xalqlarining e‘tiqodiy marosimlarini to‘plagan D.N.Ushakov va boshqa mutaxassislar sehrgarning ilohiy qobiliyatlarini nasldan-naslga uzatilishini tasvirlash uchun “Iqtidor” va “kuch” tushunchasidan foydalanadi. Ular tabiblar va sehrgarlar o‘rtasidagi asosiy farqlar haqida umumiy fikrlarni ifodalaydilar va “tabiblar” Allohdan berilgan ilohiy bilimga ega bo‘lishlari va bu bilim zamirida “so‘z” (afsun va ibodat) bo‘lib, u odamlarning manfaati uchun xizmat qilishi, sehrgarlar esa yovuz ruhlardan kuch olib, odamlarga zarar yetkazish kabi xususiyati borligini e‘tirof etadilar [11]. Masalaga evolyutsionizm nuqtai-nazaridan yondashgan yana bir guruh olimlar sehrgarlarni butparast shamanlar bilan tenglaydilar va ularni ham yovuz ruhlar bilan kelishgan holda “jodugarlik kuchi”ga tayanadilar, bu sehrgarlar yovuz ruhlardan kuch oladilar va uni o‘limi oldidan boshqa birovga o‘tkazishlari shart, deb hisoblaydilar. Tabibning esa yovuz kuchlar bilan aloqasi yo‘q, u faqat davolovchi ekanligini ta’kidlaydilar [12]. L.Vinogradova [13] bir vaqtning o‘zida ham odamlar, ham jinlar olamida bo‘la olish kabi iblislik xususiyatiga ega bo‘lgan jodugarlarni tahlil qiladi. Uning fikricha oddiy ayol, agar u yovuz ruhlar bilan aloqa qilsa (nopok ruh

bilan yashash, jin bilan jinsiy aloqa qilish, yovuz ruhlar bilan shartnoma tuzish) sehr qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Ayollarning jinlar bilan (jinsiy) aloqalari to‘g‘risidagi tasavvurlar esa barcha xalqlarda mavjud.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, g‘arb olimlarining fikricha “maxfiy bilim” egalari – bular boshqalar bila olmaydigan narsalarni bilish (sehrlash, kelajakni bilish, tanaga daxl etmaslan davolash), odamlarni sehrlash, kasalliklar va joduni tarqatish va uni davolash xussusiyatiga ega bo‘lgan kishilardir. Ular o‘zga olam bilan aloqa qilish orqali ijtimoiy hayot bilan tabiat oralig‘idagi chegaralarni buzish qobiliyatiga ega. G‘ayritabiiy xislatlarga ega bo‘lgan bu odamlarning ba’zilari ham inson dunyosida, ham ruhlar dunyosida bo‘la olish xususiyatiga ko‘ra “ikki tabiatli” odamlar deb nomlanadi.

“Maxfiy bilim”larga ega bo‘lish hunarmandchilik, temirchilik, qo‘sishchilik, tabiblik kabi kasblarni egallahsha marosim mutaxassislari rolini oshiradi.


Keyingi davrlarda maxfiy bilimlarga baho berish ijobiyroq tus olganini ko‘ramiz. Bilim va so‘zning tabiatini va tashuvchanligi muammolari haqida tadqiqot olib borgan A.K.Bayburin bilim tashqi bo‘lishi bilan birgalikda aniq, moddiy va hatto “tanaviy” narsadir, shuning uchun uni nafaqat egallah, balki uni tashuvchidan olmaslik ham mumkin [14], degan fikrni bildiradi. Bu fikrni ilgariroq ramziy antropologiya vakillari ham ilgari surgan. M.Duglas “fizik tana va ijtimoiy tana” modelini taklif etar ekan, mana shu ikki model elementlari orasida doimiy o‘zaro ta’sir va fikr almashuvi borligi, an’anaviy ongdagi inson tanasi - bu jamiyatning qiyofasi bo‘lib, inson tanasini ijtimoiy kontekstdan tashqarida o‘rganish mumkin emasligini ta’kidlaydi [15].

Strukturaviy funksionalizm nazariyasi tarafidori E.Evans-Prichard insonning ilohiy qobiliyatni uning qanday olingani, ya’ni genetikmi yoki o‘rganish orqali olinganiga bog‘liq , deydi[16]. U otadan o‘g‘ilga, onadan qizga o‘tishi va sehrgarning harakatlari ruhiy holat ekanligi, fizik substansiysi “ruh bo‘lib”, u tanani tark etishi, odamlarning hayotiy kuchini o‘g‘irlash orqali ularga zarar yetkazishi mumkinligi haqida to‘xtaladi.

Bugungi kunda maxfiy bilim egalarini V.I.Xaritonov 3 guruhgaga ajratadi. 1. “Bag‘ishlangan” - Ilohiy qobiliyatga ega va har xil usullar bilan holatga kira oladigan. 2. “Jalb qilingan” - qobiliyatga ega bo‘lmagan, ammo o‘ta sezgir va ekstrasensor qobiliyatlarini rivojlantiradigan odamlar 3) “Bbilimsiz” - bilimlar haqida noaniq tasavvurga ega bo‘lgan, ammo “bilimdonlar” an’anasi va amaliyoti haqida ba’zi ma’lumotlarga ega bo‘lgan odamlar[17] .

N.Mazalova o‘zining dissertatsion ishida M.Polaning fikrlarini keltirar ekan, uning bilimni rasmiy va norasmiy turga ajratgani, norasmiy turi bu “maxfiy bilimlar” ekanligini ta’qidlaydi. Mazalova o‘z fikrini davom ettirgani holda,

M.Polaning norasmiy, ya’ni “maxfiy bilim”ni rasmiylashtirish va uzatish qiyin masala degan fikriga qo’shiladi [18].



Aslida “maxfiy bilimlar” barcha dirlarning asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lib, muqaddaslik tushunchasi bilan bevosita aloqadordir. Xorazm tarixiga nazar solar ekanmiz, “maxfiy bilimlar”ning inson hayotidagi o‘rni darajasining eng yuqori nuqtada ekanligini ko‘ramiz. Zotan, vatani Xorazm deb tan olingen “Avesto”ni faylasuflar odam va olam, inson va jamiyat, aqliy va hissiy olam munosabati mezonlarining cheksiz tafakkur orqali barkamollahashgan formasi ekanligini ta’kidlashadi [19] . Avesto kohinlari esa “maxfiy bilim “ egalaridir. Asarda ularning turli xil ma’bud va ma’budalar, devlar, parilar, suv va tog‘lar, yer va osmon, hayvon va o‘simgiliklar bilan tillasha olishi boshqa oddiy odamlardan ko‘proq bilimli va noodatiy qobiliyatga egaligini ko‘rsatadi. Demak, bilim–boshqaruvchi kuch. Shu o‘rinda g‘arb tadqiqotchilarining fikrlari e’tiborimizni tortadi. D.Bell postindustrial jamiyat atamasini taklif qilar ekan, unda yetakchi rol mulk egasida emas, balki bilim egasiga tegishlidir, deydi [20]. Druker esa taraqqiyotni bilimning jamiyatda rolini o‘zgartirishning uchta bosqichi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, yangi iqtisodiy sharoitlarda bilim boshqa muhim ishlab chiqarish vositalari (mehnat, yer, kapital) bilan bir qatorda yetakchi rol o‘ynay boshlagani va asta-sekin eng muhim va yagona resursga aylanishi haqida ma’lumotlar taqdim etadi [21]. Uning asosiy xulosalari quyidagicha: “bilimga asoslanib qurilgan jamiyatga o‘tish sotsium tuzilishini o‘zgatiradi, hokimiyat va nazorat kapital egalaridan axborot va samarali texnologiya, ulardan foydalanish bilimiga ega bo‘lganlar qo‘liga o‘tadi. E.Toffler ham o‘zining “Hokimiyat

metamorforzlari” asarida zo‘ravonlik, boylik va bilimni hokimiyat triadasi sifatida tadqiq qiladi va ana shu uchta asosiy omildan faqat bilimgina jamiyatni boshqarish uchun eng qulayidir [22] deb e’tirof etadi.

Yapon tadqiqotchilari esa [23] mamlakatlari taraqqiyotini tabiat va inson uyg‘unligi, tana va aql birligi, inson va uning atrof-muhit bilan birligi kabi uchta yapon madaniyati an’analari asoslangan bilimda, deb biladilar.

Sharqda esa “maxfiy bilimlar”ga reallik sifatida qaralgan. Ibn Xaldun “Bilingki, shaharlarda o‘rgatiladigan va o‘rganiladigan bilimlar ikki turga bo‘linadi: aql bilan olinadigan bilimlar va an’anaviy bilimlar, qaysiki uning asosida Alloh va Rasulning Qur’on va Sunnatdagi rejalari yotadi” [24], deydi va ilmning ikkinchi turidagi maxfiylikka ishora qiladi.

Al-Kindiy, Ar-Roziy, Al-Beruniy, Al-Farobiylarning fikricha, har qanday bilimning asosini matematika, fizika va kimyo tashkil etadi. Ularning ta’limoti: moddani bilish - vositani bilish va tajribani bilishdan iborat yoki jami narsalarni bilish - “minerallar, o‘simliklar va hayvonlarni bilishdan” iborat.



Najmiddin Kubro ta’limotiga ko‘ra, inson kichik bir dunyo bo‘lib, o‘zida kichik dunyoga sig‘uvchi barcha narsani jam etgan. Kubro rang-yorug‘lik ramziyligiga aniq ta’rif bergan, buni tasavvuf mashqlari jarayonida kuzatish mumkin - bular dog‘ nuqtalari va aylanalar:

qalb qora nurda namoyon bo‘luvchi jarayonlardan o‘tadi va ora-sira qora-qizil tusga kiradi, toki yashil rang paydo bo‘lmaguniga qadar, ya’ni ilohiy marhamat darajasigacha ko‘tarilmaguncha davom etadi, deydi u. Sharqning o‘rta asr olimlari fanlarni o‘rganish va ilmiy tadqiqotlarni Xudoni ulug‘lash vositasi sifatida emas, balki Yaratuvchining sirli yo’llarini odamlarning tushunishini chuqurlashtirishga urinish sifatida qabul qilganlar.

Xorazmda teologianing taraqqiyotini ta’milagan zardushtiylar, zohidlar, oriflar, mutaazzaliylar, so‘fiylarning koinot tuzilishi, odamlarning xususiyatlari, olam va odam munosabatlari, komil inson tushunchalari haqida bosh qotirib, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o‘zaro bog‘lashga harakat qilganliklarini ko‘ramiz. So‘fiylarning dastlabki vakillari “ilohiy ilmlarni siru-asror, tushuntirib bo‘lmaydigan holatlar (“iboraga kelmaydigan ishoratlar”)” deb hisoblaganlar.

Tadqiqotchilar [25] ilohiy ilm va holatlarni birinchi marta Zunun Misriy so‘zda ifoda qilgan, ya’ni ishoratni iboratga keltirganligi haqida yozganlar. U uch marta ilohiyot (ma’naviyat)ga safar qilgani va uch ilm keltirgani, birinchi ilm (tavba)ni xos ham, avom ham qabul qilgani, ikkinchisi (ma’rifat)ni faqat xos qabul qilganini, uchinchisi (haqiqat)ni na xos va na avom qabul qilmagani, uni hech kim anglamagani va uni inkor qilganliklari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ishlarida keltirib o’tganlar. Bu ilohiy bilimlar bo‘lib, ularni faqat ilohiydan berilgan kishilarga anglay olganligini tushunish mumkin. So‘fiylarning barcha asarlarida ilohiy bilimlar haqida so‘z yuritiladi.

G‘arb va rus tadqiqotchilari “maxfiy bilim” tushunchasini uning uchta tashuvchisi - jodugar, sehrgar va tabib misolida ko‘rib chiqishgan. Ularning ishlarida “maxfiy bilim”ga madaniy tushuncha sifatida qaraladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кушкаров А. Сўфий табобати.-Т.: 2004. 5-б.
2. Кароматов Ҳ. Ўзбекистонда мозий эътиқодлари тарихи. –Т.: 2008. 10-б.
3. X-XIII асрлар Шарқ фалсафий тафаккури ривожида “басират”, “илҳом”, “кашф”, “фаросат”, “қалб” истилоҳлари ирфон илмининг моҳиятини акс эттиришда бирламчи омил бўлиб хизмат қилгани Абу Али ибн Синонинг “Ал-ишорот ват-танбеҳот” (Ишоралар ва танбеҳлар), Абу Ҳомид Газзолийнинг “Ар-рисола ал-ладуния” (Ладун ҳақида рисола), Ҳаким Термизийнинг “Илм ул-авлиё” (Авлиёлик илми), “Маърифат ул-асрор” (Сирлар маърифати) каби асарлари мисолида исботланган.
4. Исақова З. Ирфон фалсафаси. – Тошкент: Фан, 2022..13-б.
5. Платон. Диалоги. М.: Рипол Классик, 2017., стр. 576 .
6. Нонака, Такеучи. Компания — создатель знания. Зарождение и развитие инноваций в японских фирмах. М.: Олимп-Бизнес,2001. стр. 34
7. Афанасьев А..Н. Ведун и ведьма. М.: Типография Александра Семена, 1851. стр.86.
8. Ўзбек фольклори очерклари.т.2.-Т. Ўзбекистон, “Фан” нашриёти. 1989. 19-б.
9. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. – М., 1989. – стр.218-219.
10. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент, “Фан”, 2008.
11. Ушаков Д.Н. Материалы по народным верованиям великороссов // ЭО. 1896. № 2–3. С. 146–204; Попов Г. Русская народно-бытовая медицина. По материалам этнографического бюро князя В. Н. Тенишева. СПб.: тип. А. С. Суворина, 1903 стр 35 ; Максимов С.В. Нечистая, неведомая и крестная сила. СПб.: Полисет, 1994. стр.448.
12. Зеленин Д. К. Восточнославянская этнография. М.: Наука, 1991.1991: 420–423; Никитина Н.А. К вопросу о русских колдунах // Русское колдовство, ведовство, зонарство. СПб.: Литера, 1994. С. 172–215.; Токарев С.А. Эротические обычай // Календарные обычай и обряды в странах

- Зарубежной Европы: Исторические корни и развитие обычаев. М.: Наука, 1983. 22–23
13. Виноградова Л. Н. Народная демонология и мифоритуальная традиция славян. М.: Индрик, 2000: стр.230
14. Байбурин А.К. Чудесное знание и чудесное рождение // ПОЛУТРОПОН. К 70-летию Владимира Николаевича Топорова. М.: Индрик, 1998: 494
15. Duglas M. Natural Symbols: Explorations in Cosmology. Lon-don: Barrie & Rockliff; The Cresset Press, 1970.стр. 65; Scheper-Hughes N., Lock M. The Mindful Body: A Prolegomenon to Future Work in Medical Anthropology // Medical Anthropology Quarterly. 1987. New Series. Vol. 1, No.1, Mar. P. 6–41
16. Эванс-Причард 1994
17. Харитонова В.И. «Шаманская болезнь» российских колдунов // Материалы международного конгресса «Шаманизм и иные традиционные верования и практики. М.: ИЭА РАН, 1999.стр. 17. (Этнологические обозрение). Харитонова В.И. Наследование «дара» (знания) в колдовской традиции восточных славян // Материалы международного конгресса «Шаманизм и иные традиционные верования и практики». М.: ИЭА РАН, 1999. С. 288–298 (Этнологические исследования по шаманству и иным традиционным верованиям и практикам. Т. 5, ч. 2);. Ўша муаллиф. Шаманство или шаманизм? // «Из-бранные духов» — «Избравшие духов»: Традиционное шаманство и неошаманизм. Памяти В.Н. Басилова (1937–1998). М.: ИЭА РАН, 1999. (Этнологические исследования по шаманству и иным традиционным верованиям и практикам. Т. 4) (в соавт. с Д.А. Функом). С. 41–71.
18. Мазалова Н.А. Народномедицинское “тайное знание” русских ритуальных специалистов: семантика, статус, функции (конец XIX – начало XXI в.). –М.: 2019. стр.51
19. Авесто. А.Маҳкам таржимаси.-Т.; “Шарқ”.2001.. 5-б
20. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. М.: Academia, 1999. 944 с.
21. Drucker P. Beyond the Information revolution// The Atlantic Monthly, October 4, 1999.P.47-57.
22. Тоффлер Э. Метаморфозы власти. М.: ACT, 2003. 669 с.
23. Нонака И., Такеучи Х. Компания — создатель знания. Зарождение и развитие инноваций в японских фирмах. М.: Олимп-Бизнес, 2011. 384 с.
24. Ибн Халдун. Введение (фрагменты). Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока.-М.:, 1961, -с.622
25. Маликов А. Некоторые особенности исламской культуры Хорезма в эпоху Золотой орды //Золотоордынское обозрение / Golden horde review. 2023, 11(4): 817–833

TARIX**XORAZM VOHASI ZIYORATGOHLARIDA
O'TKAZILADIGAN MAROSIMLAR**

**Adolatxon
DJABBOROVA,**

**UrDPi tarix va
geografiya kafedrasi
o'qituvchisi**

UO'K 94(575.1)

Annotatsiya: Maqolada Xorazm vohasi ziyyaratgohlarida o'tkaziladigan marosimlar, ziyyarat qoidalari, ularning milliy mentalitetimizga ta'siri o'r ganiladi va tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье анализируется Хорезмский оазис относительно обрядов, проводимых в святынях, правил паломничества, его влияния на наш национальный менталитет.

Annotation: The article studies and analyzes the Khorezm oasis regarding the rituals performed in the shrines, the rules of pilgrimage, its place in traditional spiritual culture and their influence on our national mentality.

Kalit so'zlar: Xorazm ziyyaratgohlari, an'anaviy marosimlar, ziyyarat odobi, madaniy urf-odatlari, ziyyarat.

Ключевые слова: святыни Хорезма, традиционные обряды, паломнический этикет, культурные традиции, паломничество.

Key words: Shrines of Khorezm, traditional rituals, pilgrimage etiquette, cultural traditions, pilgrimage

Insoniyat hayotida ziyyaratgohlarning o'rni va ahamiyati qadriyat sifatida ko'rildi. Ma'naviy merosimizda o'zbek xalqining an'analari, urf-odatlari, ziyyaratgohlar bilan bog'liq madaniyatimiz, ulardagi belgi, ramzlarning ma'nolari ifodalanishi ayni vaqtida insoniyat madaniyatining muhum komponentlaridan biri hisoblanadi. Ziyyaratgohlardagi turli belgilar, ramzlar har bir xalqning milliy ruhiyatini o'zida aks ettirgan bo'lib, ular tarixda sodir bo'lgan voqealar, to'qnashuvlar, tabiiy ofatlar, iqtisodiy, ijtimoiy muammolarni hal qilish, ularga yechim topishda e'tiborni tortgan.

Har bir xalqning o'ziga xos an'analri va madaniyati bo'lib, Xorazm vohasida ham o'tkaziladigan ziyyaratgoh marosimlari xalqning madaniy hayotida o'ziga xos o'rin tutadi. Aslida ziyyaratgohlar insoniyat hayotida din, e'tiqod, urf-odatlari, an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lib, xalqning ijtimoiy va ruhiy hayotida alohida o'ringa ega. Bu an'anaviy marosim va urf-odatlari davomida milliy mentalitetning muhim jihatlari, misol uchun milliy birlik, o'zaro hurmat va xayrsahovat qadryatlari namoyon bo'ladi. Bu ziyyaratgohlar o'z o'rnida odamlarni o'zaro birlikda yashashga undaydi, tarixiy xotiralarni o'zida saqlaydi va kelajakda yoshlarga milliy urf-odatlarimizni yetkazishda alohida o'rin tutadi.

O'zbekistonning barcha viloyatlari o'zining alohida tarixiy ko'rinishi va qadimiylarini, ziyyaratgohlari, ulardagi belgi, ramzlarning ifodalanishi bilan

ajralib turadi. Shu o'rinda Xorazm ham sharq bilan g'arjni, shimol bilan janubni bir-biriga bog'lab turuvchi zanjir vazifasini bajarib, o'troq dehqonchilik, davlatchilikning ilk taraqqiy topgan hududlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Hukmdorlar tomonidan ziyyaratgohlarga borish, Qur'on tilovat qilish, obodonlashtirish ishlari olib borilgan, nafaqat hukmdorlar, balki mahalliy aholi ham ziyyaratgoh va muqaddas qadamjolarni hurmat qilishgan, turli xil marosimlar o'tkazishgan va ularning ba'zilari hozirgi kunga qadar yetib kelgan. Bundan tashqari, Najmiddin Kubro, Sulton Uvays, Pahlavon Mahmud, Ismamat ota, Shayx Jalil ziyyaratgohlari maydoni ham saylgoh marozimlar o'tkazishda va shu bilan birga xalqning hukmdor bilan muloqot qilishdagi qororgohi bo'lib ham xizmat qilgan.



Shu o'rinda aytish joizki, Xiva xonlaridan bo'lmish Ollqulixon Buxoro va Eron sarhadlariga yurish qilganida, janubiy hududlarni aylanish bilan birga shu hududdagi, yani Hazorasping Pitnak qal'asida to'xtab, bu yerdagи muqaddas qadamjolarni ham ziyyarat qilgan[1].

XX asr boshlarida Xiva xoni Muhammad Rahimxon II buyrug'i bilan Alloyor ibn Xudoyerberdi tomonidan yozilgan "Riyoz al-zokirin" tazkirasiда Xiva xonligida joylashgan ziyyaratgohlar va mashhur bo'lgan avliyolar to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tigan.

Ko'hna va qadimiylar Xorazm vohasi O'zbekistonning qadimiylari, boy madaniyatga ega bo'lgan hududlardan biri deya e'tirof etiladi. Xorazm yuksak darajadagi madaniyati rivojlangan, me'moriy obidalari va ziyyaratgohlari ko'pligi, urf-odatlari, dehqonchilik, shaharsozlik, san'at, hunarmandchilik mahorati bilan ajralib turadi.

Ziyorat qilish turli davrlarda ham urf bo'lgan ana'nalardan biridir. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ham turli xalqlarning an'ana, urf-odatlari, ularning kelib chiqishi, hayit bayramlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan [2].

Yurtimizda o'rta asrlarda ham ziyyaratgohlar va avliyolarni o'rganishga qiziqish katta bo'lgan. Shu jumladan, Xorazm elida mashhur bo'lgan Sulton Uvays Qaraniy (626-657-yillar) va Yusuf Hamadoniy (1048-1138 yillar) singari bir qancha avliyo va ularning xislatlarini tazkiraganavis, shoir va mutafakkir olim Farididdin Attor o'zining "Tazkirat ul-avliyo" asarida keltirib o'tgan[3]. Sulton Uvays va Yusuf Hamadoniy haqida Alisher Navoiyning "Nasoyim-ul muhabbat" asarida ham juda qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Xorijiy sayyoohlardan bo‘lgan arab sayyohi Abu Abdullo Yoqut Ibn Hamaviyning “Mo’jam ul-buldon” asarida ham Xorazm haqida juda qiziqarli ma’lumotlat keltirilgan bo‘lib, bu mintaqadan juda ko‘plab diniy ulamolar yetishib chiqqanligi, shuningdek, bu maskanda Sulton Sanjar Malikshoh maqbarasi borligi haqida ma’lumotlar berilgan. Shu bilan birga, Marvda Muhammad(s.a.v) sahobalari Burayd ibn al-Husib, Hakim ibn Umar, Sulaymon ibn Burayd dafn etilgani va ularning qabrlari ziyoratgohga aylanganligi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirgan[4].

Shayx Abu Tahir Tartusiy tomonidan bitilgan “Abu Muslim Jangnomasi” asarida VIII asr ikkinchi yarmida Ummaviylarga qarshi xalq qo‘zg‘olonlarida xorazmlik Muzrobshoh Xorazmiy, Pahlavon Ahmad Zamchiy, Mehtarbodi Yaldo va boshqalarning Abu Muslimga yordam bergenligi juda mahorat bilan tasvirlanib, sarkardaning hayoti va faoliyati yoritilgan. Abbosiylar hokimiyat tepasiga kelgach, Muzrobshoh Xorazmiyning obro‘sni oshadi va Xorazmda hukmdor darajasiga, keyin esa avliyo darajasiga ko‘tarilishiga sabab bo‘lganligi haqida ma’lumotlar uchraydi[5].

Shuningdek, Xiva xonligida ham hukmdorlarning hayotida ziyoratgohlar katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bundan tashqari, Najmiddin Kubro, Sulton Uvays, Pahlavon Mahmud, Ismamat ota, Shayx Jalil ziyoratgohlari maydoni ham saylgoh marosimlar o‘tkazishda va shu bilan birga xalqning hukmdor bilan muloqot qilishdagi qororgohi bo‘lib ham xizmat qilgan.

XIII asrda muqaddas joylarga qiziqish ortib bordi. Islom olamida bu haqida ma’lumotlar yig‘ish an’ana tusiga kirdi, keltirilgan ma’lumotlarning ayrimlarida qabristondagi yozuvlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ziyoratgohlar qabristonlardan tashkil topgan bo‘lib, bu manbalar tadqiqotimiz uchun juda muhum sanaladi.

Sayyoh va tarixchi Hamdulloh Qazviniy “Tarixi guzida”[6] asarida Xorazmshohlar davlati va mo‘g‘ullar bosqini haqida qayd qilish bilan birga Najmiddin Kubro (1145-1221) to‘g‘risida ham ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. XIV asrda turkiy tilda yozilgan Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asarida ham Najmiddin Kubroning mo‘g‘ullarga qarshi mardlarcha kurashi, vatan uchun jonini fido qilganligi, “Shohi shuhado (shahidlar shohi)” nomiga sazovor bo‘lgani va piri komillardan Sayyid ota to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar ko‘rsatilib o‘tilgan[7].

Shu jumladan, Ali ibn Husayn Koshifiy “Rashahot ayn ul-hayot” (“Hayot chashmasidan tomchilar) manoqibida Sulaymon Boqirg‘oni xorazmlik bo‘lib, shu joyda foniy dunyodan boqiy dunyoga ketgan va Apaq qo‘rg‘on degan joyga dafn etilganligini, avliyoning qabri juda mashhur bo‘lib, muqaddas ziyoratgoh sifatida ezozlanishi haqida ma’lumotlar bor[8].

Ziyoratgohga insonlar sadaqa sifatida qatlama patir, bo‘g‘irsoq yoki biron bir taom tayyorlab borishadi. Jumladan Beruniy: Xorazm xalqi o‘ninch oyning o‘n beshinchi kunida jinlar va yomon arvoqlar keltiruvchi zararlarni daf etish uchun is chiqarib, ovqat pishirgan” - deb yozgan[9].

Globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish, ularni rivojlantirish masalasi dolzarb masaladir. Ayni kunda dunyo xalqlari etnologiyasida ziyoratgohlar va qadamjolarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortayotganligini davrlar mobaynida insonlarning kundalik turmush hayotida muhim ahamiyat kasb etganligini anglamog‘imiz darkor.

Bu jarayon esa jahon etnologlari oldidagi turli tarixiy etnografik hududlarda ziyoratgohlar bilan bog‘liq bo‘lgan an’ana, urf-odatlarni tahlil qilish, ularning o‘ziga xos mahalliy xususiyatlarini ilmiy asoslash, hamda dunyoda ziyorat turizmi sohasini rivojlantirishni ilmiy asoslashga qaratilgan maxsus izlanishlar olib borishni toqozo qilmoqda.

Bugungi kunda ziyoratgohlarni ziyorat qilish faqat mahalliy aholi tomonidan emas, balki sayyoohlar tomonidan ham amalga oshirilmoqda. Shu sababli ziyorat qilish odobini barcha bilishi zarur. Ziyorat qoidalari har bir ziyoratgoh kiraverishida peshlavhada ko‘rsatib o‘tilgan. Ziyoratgohga insonlar ziyorat qoidalariга rioya qilgan holda borishadi. Ziyorat qoidalari quyidagilar:

- avvalo niyat yaxshi bo‘lishi kerak. Ixlos bilan xolis Alloh uchun ziyorat qilish lozim. Yordamni, najotni faqat Allohdan so‘rash kerak. Qabrdagi insonlardan tilak va niyatlarimizni so‘rash aslo mumkin emas[10];

- ziyoratga ozoda va tahorat bilan bormoq kerak;

- ziyoratga kirilgan joyda qabr ahliga salom beriladi, yani “Assalomu alaykum” deb hurmat bilan bu amal bajariladi;

- marhumlar haqqiga bag‘ishlab Qur’oni Karim oyatlaridan tilovat qilinadi va duolar qilinadi;

- ziyoratgohda odob saqlagan holda shovqin solmasdan jiddiylik bilan yuriladi;

- qadamjolarni ziyorat qilishda ayollar ham, erkaklar ham maxsus libosda bo‘lishi kerak. Odob-ahloq qoidalariга rioya qilgan holda o‘tganlar ruhiga hurmatda bo‘lishadi. Bu esa milliy urf-odatlarimizga bo‘lgan hurmat va e’tibor belgisidir;

- ziyoratgohlarda maxsus joylarda so‘yiladigan jonliq yolg‘iz Allohgaga atab qilinadi. So‘yilgan jonliqlar savobi esa qabr ahliga bag‘ishlanadi. Ziyoratgohdagi maxsus joy bilan boshqa joyda so‘yilgan jonliq orasida hech qanday farq yo‘q;

- ziyoratgohda so‘yilgan jonliqning katta yoki kichikligining ahamiyati yo‘q, har bir ziyoratchi o‘z imkoniyatidan kelib chiqqan holda jonliq so‘yiladi(masalan qo‘y, xo‘roz, tovuq, hokiz va h.k...);

- ziyoratgohlardagi qabrlarni silash, ushslash, qabr atrofini aylanib tavof qilish, bu joylarda sham yoqish yoki ziyoratgohlardagi daraxt, buta, toshlarga mato parchalarini bog‘lash kabi amallarni bajarish juda qattiq qoralanadi;

- ziyoratgohlarni ozoda saqlash, har xil o‘simgiliklar o‘sib, tartibsiz bo‘lishidan saqlash lozim;

- ziyoratgohlarda baland ovozda gapirish, har hil musiqalar tinglash mumkin emas, odob-ahloq qoidalariга rioya qilish lozim;

- ziyoratgohlarda maxsus belgilangan joylardan tashqari har xil taomlar tayyorlash, ovqatlanish ta’qiqlanadi;

-ziyoratgohlarda ziyofat qilish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish ta'qiqlanadi;

-qabrlardagi insonlardan farzand yoki boshqa hojatni so'rash, ularga atab jonliq so'yish mumkin emas. Bu juda katta gunoh sanaladi;

-ziyorat amallari bajarib bo'linganidan keyin vazmin va sokin holatda odob-ahloq qoidalariga rioya qilgan holda ziyoratgohdan chiqib ketiladi;

-ziyoratgohdan chiqishda ta'zim qilinmaydi;

-qabrlarga pul tashlash mumkin emas. Pulni "Hayr-ehson" qutilariga solish joizdir.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Xorazm tarixini o'rgangan olimlar, o'lkashunoslар asarlarida hududdagi qabristonlar tarixi avliyolar bilan bog'liq afsona va riivoyatlarda aks etganligini alohida ta'kidlash joiz. Shuningdek, tarixchi olimlarning asarlarida islom dunyosida mashhur ziyoratgohlarning paydo bo'lishi va ularga dafn qilingan avliyolar to'g'risidagi afsonalar xalq orasida tarqalgan rivoyat va afsonalarga asoslanganligi bilan xarakterlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қурбонбоев С. Питнак тарихи. – Урганч: Хоразм, 2001 – Б.14.
2. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. – 1–жилд, – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 280.
3. Фарииддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Тошкент: Faafur Fулом, 2013. – 464 б.
4. Элмуродов И., Эшмуродов М. X–XII асрлар Хоразм маданияти Ёқут Ҳамавий талқинида. – Урганч: 2005. – Б. 14.
5. Абу Муслим жангномаси: (Достони Абу Муслим соҳибқирон) [Сўз боши Б. Саримсоқов; Маъсул муҳарир М. Ҳасаний]. – Тошкент: Ёзувчи, 1992. – 224 б. – (Халқ китоблари)., Абу Муслим жангномаси: (Достони Абу Муслим соҳибқирон) / Маъсул муҳарир М.Ҳасаний/. 2-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – 144 б
6. Ҳамидуллоҳ Қазвиний. Тарихи Гузида. ("Сайланган тарих") // Қўллўзма, ЎзФАШИ. –№ 7, 8, 2786, 3624.
7. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Б.Аҳмедов таҳрири остида. – Тошкент: Чўлпон, 1994. – Б.164–166.
8. Бартольд В. Работа по отдельным проблемам истории Средней Азии. – М., Наука, 1964. – Т. II.Ч.2 – С. 361
9. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar / Tanlangan asarlar. Т. 1.-Т.: Fan, 1968.-468b]
10. <https://vaqf.uz/oz/pages/view/morality>

TARIX**UMAR XAYYOM HAYOTI, FAOLIYATI VA IJODIGA
YANGICHA NAZAR**

**Umid
БЕКМУХАММАД,
Tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori**

UO‘K 574.510

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Umar Xayyomning hayoti va faoliyati, ijodi u yashagan davrdan kelib chiqqan holda tadqiq qilinadi. Shoir yaratgan asarlar, ularning dunyo ilm-fani, adabiyotida tutgan o‘rni tahlil etiladi.*

***Аннотация:** В статье рассматриваются жизнь и творчество Омара Хайяма в свете эпохи, в которую он жил. Анализируются произведения поэта и их место в мировой науке и литературе.*

***Annotation:** This article examines the life, work, and creativity of Omar Khayyam in light of the era in which he lived. The works created by the poet and their place in world science and literature are analyzed.*


***Kalit so‘zlar:** Sharq, g‘arb, she’riyat, adabiyot, tafakkur, rasadxona, matematika, astronomiya.*

***Ключевые слова:** Восток, Запад, поэзия, литература, мысль, обсерватория, математика, астрономия.*

***Key words:** East, West, poetry, literature, thought, observatory, mathematics, astronomy.*

Sharq she’riyati, umuman olganda dunyo adabiyotida Umar Xayyomning tutgan o‘rni katta va uning asarlari shu bois qayta-qayta nashr etilmoqda. Biroq Xayyom faqat shoirgina emas, matematika, astronomiya fanlari, umuman olganda o‘z davrining qomusiy allomasi edi. Biroq dunyodagi g‘arbning sharqqa qilgan mustamlakachiligi sabab Umar Xayyom sharob, may, aysh-ishrat haqidagi ruboiy yozgan shoir sifatida gavdalantirildi. U sharq she’riyatiga xos falsafaiy mohiyatga ega ruboilar yozgan shoir edi. Biroq u hajga borgan, ibodatli, islomiy e’tiqodli shaxs sifatida aslo sharob to‘g‘risida ruboiy yozishi mumkin emasdi. Biroq nafaqat g‘arb, balki sovet mafkurasini ham uni sobiq ittifoqda asosan mayga bagishlangan ruboilar yozgan shoir sifatida targ‘ib qildi. Shu bois Umar Xayyom ijodi, xususan uning ruboilarini nomini eshitgan, o‘qigan inson borki, uning tasavvurida may, sharobxo‘rlik va aysh-ishrat haqidagi ruboilar muallifi ko‘z oldida gavdalanadi. O‘zining sharobxo‘rligini Xayyom timsolida bir qadar oqlab, niqoblab oladigan ziyolinamo zamondoshlarimiz ham yo‘q emas.

Xo‘sh, aslida Umar Xayyom kim edi? Bu haqda tarixiy manbalar va xorijiy tadqiqotchilar qanday fikrda? Bunday savollarning tug‘ilishi tabiiy. Bu savollar o‘zining sharobxo‘rligini Hayyom timsolida niqoblab olgan ayrim zamondoshlarimizni o‘ylantirmasligi mumkin. Ammo...



“1928-yilda Umar Xayyomning 880 yilligi butun dunyoda keng nishonlangan edi. Shu sanaga bag‘ishlab Fitrat ham “Qizil qalam” majmuasiga maqola tayyorlab, unda Xayyomning tarjimai holi, Yevropa olimlarining bu haqdagi fikrlarini keltirib o‘tgan, o‘zidagi bor manbalar asosida fikr yuritgan edi. Fitrat maqolani tahririyatga tobshirgandan ozgina vaqt o‘tib, 119 sahifadan iborat, milodiy 1198-yilda Xorazmda Abul Hasan al-Bayhaqiy tomonidan yozilgan “Tatimmat us-savon ul-hikma” nomli arabcha yozilgan asarni tasodifan qo‘lga kiritadi. Xayyomning zamondoshi, uni ko‘rgan inson yozgan ushbu asarda sharq faylasuflaridan 100 kishining tarjimai holi yoritilgan, 53-bo‘lib esa “al dastur ul faylasuf Umar Ibni Ibrohim al-Xayyomiy” nomi keltirib o‘tilgandi” (1).

Fitrat dunyo ilm-fanidan xabardor olim sifatida Yevropa olimlari Xayyom hayotini yoritganlarida ushbu asarni nazardan qochirganligini bilgach, qolaversa o‘zining ham maqolasini shu bois qayta ishlash lozimligini anglab, maqolasini qaytib olmoq niyatida, o‘zining yozishicha, tahririyatga yuguradi. Afsuski, maqola bosmaxonada terib chop etilayotgan ekan. Shu bois “Tatimmat us -savon ul-hikma” asaridan foydalangan va boshqa manbalarni ham umumlashtirgan holda 1929-yilda “Fors shoiri Umar Xayyom” (“O‘znashr”) nomli yangi kitobini nashr ettiradi.

Kitobda shunday satrlar bor: “Xayyom saroy tabibi bo‘lgan, zamonning olim hay’atshunosi, faylasufi, riyaziysi. Taqvimni eng to‘g‘ri isloh qilgan, ilmiy hay’atda juda katta nufuz va faoliyat bilan ishtirok etgan. Hukmdorlarning ish soatlarini belgilovchi munajjim sanalgan. Bunday bir odamning doimiy mastlik bilan (piyanistik bilan) mashg‘ul bo‘lub qolishi haqiqatdan, albatta, uzoqdir...”(2)

1925-yil Germaniyada “Ruboiyoti hakim Umar Xayyom” nomli kitob yozilib, unda asarni nashrga tayyorlagan doktor Fridrix Rozan ruboiyilar muallifi deb bilgan Xayyomni Eronning Lokar shahrida tug‘ilgan deya xato fikr yozgan edi. Bu aslida Xayyomni soxtalashtirishning, u haqda xato fikr bildirishning davomi edi, desa bo‘ladi.

Tabiiyki, fan kishisi sifatida doktor F.Rozan “Tuhfat ush-shomiya” nomli Qutbiddin Abulsano Mahmud ibni Mas’ud Sherazi tomonidan hijriy 684-sanada yozilgan asarga tayangan edi. Ushbu asarda “Sulton Malikshoh Saljuqiyning huzurida bir jamoa hakimlar, faylasuflar yig‘ildilar. Ular orasida Umar Xayyom hakim - Lo‘kariy shulardan edi”, deya yozilgan ekan.

Lo‘kar Marvga yaqin shahar bo‘lgan. F.Rozan “Tuhfat ush-shomiya” asarining uch nusxasi borligini, shulardan biriga “Umar al-Xayyom val hakim al-Lo‘kariy” deya yozilganini ta’kidlab o‘tgandi. Qolgan ikki nusxa asarda esa Umar Xayyom Lo‘kariy to‘g‘risida yozilmagan ekan.

Professor Fitratning aniqlashiga ko‘ra esa, “Tatimat us-savon al-hikma” asaridagi faylasuf Abul Abbas al-Lo‘kariy ismli faylasuf va hakim Lo‘kar shahrilik bo‘lib, doktor F.Rozan Xayyomni shu inson bilan adashtirib xato qilgan.Ya’ni, Umar Xayyom nemis olimi yozganidek, Lo‘karda emas, Xurosonning Nishopur shahridagi chodirdo‘z oilasida 1048-yilda tug‘ilgan.Uning asl ismi G‘iyosiddin Abdulfath Umar ibn Ibrohim edi.

Shamsiddin Somiybekning “Qomus ul-a’lom” asarida Xayyom “Shayx ibni Muhammad” deya e’zoz bilan tilga olingan. Aslida Xayyom so‘zi arabcha bo‘lib, Fitratning yozishicha, xaymachi, chodirchi, ya’ni ota kasb chodirdo‘zlik degan ma’noni anglatgan.Ya’ni, Xayyom - Umarning taxallusi edi.Umar Xayyomning o‘zi qalamiga mansub “Jabr va muqobila” asarining muqaddimasida “Xayyomiy” yozilgan ekan. Bu holatni Fitrat, “Xayyom so‘zining Umar uchun kasb oti emas, oila oti (familiya) bo‘lishi ehtimoli ham yo‘q emas”, deya izohlagandi.

Xayyom haqida keng tarqalgan xatolardan yana biri shuki, u Nizomulmulkdek Saljuqiylar davlatining mashhur vaziri, “Siyosatnama” asari muallifi bilan maktabdosh bo‘lgan. Bu to‘g‘rida ko‘plab rivoyatlar tarqalgan bo‘lib, unga ko‘ra, maktabdalik paytida “qaysimiz ulug‘ bir mansabga erishsak, boshqamizga yordam qilamiz”, deb ahd qilishgan. Shunga ko‘ra, davlat vaziri darajasiga erishgan Nizomulmulk Umar Xayyomni saljuqiylar saroyiga olib kelib, unga sharoit yaratgan emish.

Vaholanki, tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Umar Xayyom 1048-yilda Nishopur shahrida tug‘ilib, shu yerdagi mактабда o‘qigan. Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy-Nizomulmulk esa 1018-yilda, ya’ni Xayyom tavalludidan 30 yil oldin Rodkon viloyatining Navg‘on qishlog‘ida tavallud topgan va shu yerdagi mактабда o‘qigan. Shundan ham ko‘rinadiki, ular orasidagi farq 30 yildan iborat va tabiiyki, turli viloyatlarda tug‘ilgan mashhur insonlar bir mактабда tahsil olishmagan.Ular faqat oradan yillar o‘tib qalin oshno-og‘ani tutinishgan, maslakdosh do‘st bo‘lganlar.

Ma’lumki, Umar Xayyom yashagan XI asr somoniylar davlatining inqirozga uchrab, qoraxoniylar, g‘aznaviylar va saljuqiylar sulolalarining vujudga kelib, kuchayishi va ular orasidagi ziddiyatlar davriga to‘g‘ri keldi. Ana shu davrdagi qiyinchiliklarga qaramay, Umar Xayyom dastlab Balxga kelib o‘z davrining mashhur ulamolaridan Muhammad Mansurdan saboq oladi. Keyin esa Samarqand qozikaloni Abutohir , so‘ngra Buxoro hukmdori Shamsulmulk Qoraxoni dargohlarida yashab, ilm bilan shug‘ullanadi.Ya’ni u Samarqand, Buxoro, Isfaxon va Nishopur shaharlarida yashab, riyoziyot, falsafa, munajjimlik, mantiq kabi sohalar bilan astoydil shug‘ullandi.

Xayyomning maslakdosh do‘sti bo‘lgan mashhur siyosatshunos, davlat arbobi Nizom ul-Mulk(1018-1092) ning Saljuqiylar saltanatida vazirlik qilishi vaqtি kelib unga ham iqtidorini namoyish etishiga sabab bo‘ldi.

Ma’lumki, 1063-1072-yillarda Saljuqiylar davlati hukmdori Alparslon, undan so‘ng esa 1072-1092-yillarda Malikshoh hokimiyatni egallagan davrlarda ilm-fanga, madaniyatga e’tibor qaratilgan, olimlar, ijodkorlarga

yeterlicha sharoit yaratib berilgan. Hattoki, imperiya poytaxti bo‘lgan Marvda 1074-yilda, 1076-yilda esa Isfaxonda rasadxona barpo etilgan.

Natijada ana shunday shohona muruvvatdan foydalangan Umar Xayyom Isfazoriy, Abulaabos Lo‘kariy, Haziniy kabi olimlar bilan Marv va Isfaxonda rasadxona barpo etilishiga va uning faoliyat ko‘rsatishiga bosh bo‘ldi.

Xayyomning rasadxonadagi faoliyati natijasida “Malikshohning munajjimlik jadvali” asari yuzaga keldi. Ushbu asarda 100 dan ortiq yulduzlarning koordinatalari va ravshanliklari keltirilib, Eronda quyosh taqvimi islohotining o‘tkazilgani yoritilgandi. Ma’lumki, qadimgi fors taqvimi bo‘yicha yangi yil bo‘lmish bahor bayrami Navro‘z bilan boshlangan. Ammo yil boshi hamma vaqt ham bahorgi tengkunlikka to‘g‘ri kelavermagan. Bu holat tabiiyki, hisob- kitobda, taqvimda noqulayliklarga sabab bo‘lgan.

Shu o‘rinda, Xayyomning yaratgan taqvimi naqadar ahamiyatli ekanini anglash uchun masalaga chuqurroq e’tibor bersak.

Tarixdan ayonki, mil.av. 46-yilda Rim taqvimi o‘rniga Yuliy Sezarning farmoniga ko‘ra, eski taqvimdagi noaniqliklarga chek qo‘yiladi va yangi Yuliy taqvimi amalga kiritiladi. Yuliy taqvimi bo‘yicha yil davomiyligi shamsiy yildan - Yerning Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish davridan 11 daqiqa-yu 14 lahzadan ziyodroq, ya’nikim sutkaning 128 dan bir ulushicha qisqa bo‘lgan. Har yili to‘planib boraveriladigan ana shu qusur sabab 128 yilda ortiqcha bir sutka vujudga kelib qolardi. Shu boisdan Xayyom yashayotgan paytga kelib, bahorgi tengkunlik 15-martga to‘g‘ri kelib qolgandi. Aslida esa, IX asrda bahorgi tengkunlik 21- martga to‘g‘ri kelsada, Yuliy taqvimidagi mazkur xatolik oqibatida X asrda 6 kun oldinga siljib, 15-martga surilib qolgandi.

Navro‘z hamisha bahorgi tengkunlikka to‘g‘ri kelishi uchun yangi taqvim tuzishga ehtiyoj sezildi va bunday murakkab hamda ma’suliyatlari ishni Umar Xayyom uddaladi. U Isfaxondagi rasadxonada va Nishopurda kuzatishlar olib borib, 1074-yilda yangi taqvim loyihasini yarata boshladи. Unga ko‘ra, kabisa yillarni Yuliy taqvimididan bir oz farq qiladigan tarzda ishlatish taklifini ilgari surdi. U o‘zi yaratgan taqvimi dono vazir, ilmiy ishlariga rahnamolik qilayotgan Nizom ul-Mulk sharafiga “Malikiy” deb atadi. Xayyom yaratgan taqvim bo‘yicha 33 yilda 8 ta kabisa yili kelardi. Bu taqvimidagi yil uzunligi 365 kun, 5 soat, 49 daqiqa-yu 5,5 lahzaga to‘g‘ri kelgan. Hozirgi, amaldagi yil hisobi esa 365 kun, 5 soat, 48 daqiqa-yu 46 lahma bo‘lib, Xayyom taqvimidagi “xatolik” yiliga faqatgina 19,5 lahzani tashkil etadi.

Xayyom yaratgan taqvim o‘zining aniqligi bilan Grigoriy taqvimidan ancha ustun turadi. Ma’lumki, 1582-yil 24-fevralda italiyan matematigi va vrachi Luiji Lilio tuzgan taqvim Rim papasi Grigoriy 13 farmoni bilan amalga joriy etilgandi. 1918-yil 24-yanvarda qabul qilingan dekret bo‘yicha ham, Rossiya va O‘rta Osiyoda ham Griogriyan taqvimi isloh qilinib, hayotga tadbiq qilingandi. Bu taqvim bo‘yicha xatolik yiliga 0,000305 sutkaga, binoabarin, 4000 yilda 1,22 sutkaga yoki 3300 yilda bir sutkaga yetadi. Agar

4000 yilda bir sutka chiqarib tashlansa, xatolik bor-yo‘g‘i 0,22 sutkadangina iborat bo‘lib, 18200 yildagina bir sutkaga yetadi. Xayyom taqvimi bo‘yicha esa 4500 yilda bir sutkaga yoki 5490 yilda 1,22 sutkaga xato qilinadi. Griogriy taqvimi bilan taqqoslaganimizda, Xayyom taqvimida 5400 yildan bir sutka chiqarib tashlansa, xatolik 24980 yildagina bir sutkaga yetishi mumkin.

Bularning bari Umar Xayyomning ilk o‘rtalarda - 1074-79-yillardagi ilmiy asboblar yordamida sharq rasadxonasida kuzatuvarlar olib borganligidan, olimning aqliy darajasi naqadar yuksakligidan dalolat beradi.

1079-yil 16- martdan boshlab Eronda qabul qilingan va hozir ham Eron, Afg'onistonda amal qilib kelayotgan Xayyom taqvimiga binoan bahorgi tengkunlik Navro‘z bayrami bilan boshlanadi. Ushbu taqvim hamal, savr, javzo, saraton, asad, sunbula, mezon, aqrab, qavs, jaddi, dalv va hut oyalaridan iboratdir.

Umar Xayyom nafaqat rasadxonada ishlagan munajjim, balki matematika va geometriyaga oid asarlar yaratgan olim ham edi. Al-Xorazmiy asos solgan, rivoj toptirgan va al-jabr deya atalgan matematika, geometriya fanlarining keyingi rivoji Umar Xayyom bilan bog‘liqdir. Al-jabrdagi asosiysi tenglama va tenglamalar tizimini yechish masalasi bo‘lib, kubga oid tenglamalarni yechish bo‘yicha ba’zi muammo va murakkabliklar bor edi.

Dastlab bu borada antik yunon olimi Arximed, IX asrda eronlik Al-Mohoni, X asrda xurosonlik al-Xozin, XI asrda yashagan al-Xaysam Arximed masalasini mexanik usulda hal etib, optikaga oid masalani to‘rtinchidagi darajali tenglamaga keltirgan va bu tenglamani aylana hamda giperbola yordamida yechgan.

Kubli tenglama deya ataladigan yechish masalasini Hayyom 1069-71-yillarda yaratgan “Al-jabr val-muqobala masalalarining isboti haqida” nomli asarida hal qilib beradi. Xayyom al-jabrga oid asarida Al-Xorazmiyning tenglamalarni guruhlash to‘g‘risidagi g‘oyasini kamaytirib, kvadrat va kubli tenglamalarning 24 xil ko‘rinishdagi tasnifini beradi va kubli tenglamalarning ildizlarini konus kesimlari yordamida handasaviy usulda topadi.

Xayyomning “Mushkulot al-hisob” nomli yana bir asarida kvadratning yuzi berilsa, uning tomonini va kub hajmi berilsa, uning qirrasini topish, ya’ni kvadrat va kub ildiz chiqarish ma’lum ekanligini bildirib, bu tushunchani kengaytirish bilan to‘rtinchidagi, beshinchidagi, oltinchidagi va hokazo sonlardan istalgan natural ko‘rsatkichli ildiz chiqarish lozimligini isbotlab beradi.

Shuningdek, “Yevklid negizlari” dagi qiyinchiliklarga sharh” nomli 1077-yilda yaratilgan Xayyom asari handasa ilmi bo‘yicha bo‘lib, unda parallel chiziqlar va nisbatlar nazariyasi rivojlantirilgan. U isbotlagan teoremlardan biri keyinchalik “Sakkeri teoremasi” nomi bilan noevklid handasa faniga kiritldi. Xayyomning matematikaga oid ilmlarni egallashida unga Abul Hasan ul-Anbariy ustozlik qilgan.

Professor Fitratning aniqlashiga ko‘ra, Xayyomning falsafa, matematika, tibbiyat, jug‘rofiyaga oid, shuningdek Yevropada Xayyomnikni deya tasnif qilinadigan ruboiylar bilan birga jami o‘n bitta asari mavjud.

Umar Xayyom shuningdek, tabib ham bo‘lib, saljuqiy hukmdorlardan Sulton Sanjar kasallanganda uni davolagan. Shu kabi Xuroson hukmdorlari saroyida Xayyom nafaqat munajjim, balki tabib sifatida ham faoliyat ko‘rsatib, davlat arboblari, ularning oilalarini davolagan. U tabib sifatida keyinchalik sharqda dovruq qozongan al-Hijoziyga ustozlik ham qilgan. Shuningdek, o‘z tajribalari, kuzatuvlari va o‘qiganlari asosida tibbiyotga oid asar ham yaratgan.

Xayyomning yana bir qirrasi falsafa va tasavvufga oid o‘z qarashlarini bayon qilib, “Zubdat ul-haqoyiq” nomli asar yozganidadir.

Shu kabi Xayyomning zamondoshlari tomonidan yaratilgan “Tatimmat us-savon”, “Nuzhat ul-arvoh” asarlaridagi ma’lumotga ko‘ra, Umar lug‘at, fiqh, tarix bo‘yicha ham katta mahorat sohibi, xotirasi kuchli shaxs bo‘lgan.U Isfaxonda ekanida bir kitobni yetti marta o‘qib, Nishopurga qaytganida shuni yoddan yozgan, asl nusxaga solishtirganlarida esa, umuman bir harf ham farq qilmagan ekan.

Shu bois, aqliy salohiyati sabab Xayyom o‘z davrida Buxoro, Samarqand, Nishopur, Isfaxonda bo‘lganida unga barcha hokimlar iltifot ko‘rsatishgan. Saroyda munajjimlik qilganida shohlar ovga chiqish-u, omadli kunlarni undan so‘rab, shundan so‘nggina bir ishga qo‘l urishgan. Xayyom boy-badavlat hayot kechirgan. Davlatshoh Samarqandiy, Nasriddin Tusiyarning asarlarida yozilishicha, Umarning hattoki tish kovlagichi ham oltindan bo‘lgan ekan”.

Xayyomning fanga, ayniqsa astronmiya va matematikaga qo‘sghan hissasi angliyalik D.Tassi, ukrainalik Vasenko-Zaxarchenko, rossiyalik A.P.Yushkevich, germaniyalik B.Rozenfeldning ilmiy tadqiqotlarida yuqori baholanib, o‘ziga xos matematika maktabi yaratganligi ta’kidlanadi.

Jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gasprinskiy 1892-yilda Bog‘chasaroyda nashr etilgan “Madaniyati Islomiya” asarida “Ovrupolilardan bir necha yuz yil muqaddam, Malikshoh Saljuqiy podshohligi davrida islom ulamosidan Umar al-Xayyom bilan Abdurahmon al-Xaroniy shamsiya yilini puxta va ilmiy hisoblab chiqib, “Sanayi jaloliya” deya nom bergen edilar”, deya yozgan.

Ha, hayotda ana shu tarzda o‘ziga xos iz qoldirib yashagan qomusiy darajadagi alloma Umar Xayyom 1125-yilda vafot etib, Nishopur shahrida dafn etilgan. Hozirda Erondag‘i ushbu shaharda Xayyomning xotirasiga bag‘ishlab “Pavilon-roton” deya nomlanuvchi sag‘ana yodgorlik o‘rnatalgan. Odatiy maqbaralardan farq qiluvchi mazkur sag‘ana dabdurustdan nazar tashlaganda qabr ustiga tiklangan inshootga o‘xshamaydi. Qabr toshi atrofida salobat, viqor bilan ko‘kka bo‘y cho‘zgan, uzun romb shaklidagi o‘nta guldar, naqshli marmar-beton ustun yarim yo‘lda bir-biri bilan kesishib, go‘yo geometrik burchaklar hosil qilib, uchlari gumbazsimon ko‘rinishda tutashib ketgan.

1928-yilda Xayyom tavalludiga 880 yil to‘lishi mustamlakachilarning dinga, dindorlarga qarshi tashviqoti kuchaytirilgan davrga to‘g‘ri keldi. Ana

shunday mafkuraviy bosimlar natijasida, tabiiyki, Xayyom denga qarshi kurashuvchi timsol edi go‘yo. Xo‘sh, aslida-chi?

Fitrat jadid ziyolisi va nafaqat sharq, balki yevropa ilm-fanidan xabardor shaxs sifatida buni yaxshi bilar, ammo Xayyomning ilmiy, ijodiy faoliyatini tadqiq qilish asnosida qahramonimizni dahriy bo‘lgan deb ham, dindor so‘fiy deb ham aytolmasdi. Biroq u Xayyom hayotini o‘zidagi bor manbalarni chuqur tadqiq qilgan holda o‘rganib chiqadi.

“Xayyomga nisbat berilg‘on ruboilyarning hammasini ko‘rib chiqqan kishilar uning haqida turli qarorlar beradilar. Sharob, may majlislarini, ichkilikni maxtab bu qadar ruboilyar yozg‘anini ko‘rganlar uning oddiy bir sarxush (piyanista) deb qaror chiqaradilar.

Ba’zi odamlar Xayyomning so‘fiylardan ekaniga ishonib, uning she’rlaridagi “may”, “bazm”, “qadah” kabi so‘zlarni so‘fiylik istilohlari bilan izoh qilmoqchi bo‘ladilar.

Xayyomning uchinchi xil muxlislari borki, uni o‘zining muhitidan yashagan jamiyatning har turli ta’sirlaridan yuqori turgan bir dohiy deb biladilar. Uni milodiy XI asrdagi Sharq jamiyatlarining kishisi emas, XX asrdagi Ovro‘pa jamiyatlarining odami kabi qabul qiladilar. Bizning fikrimizcha, Xayyom haqida berilgan shu uch turli qimmatda ham bir turli ifrot-tafrit (haddan oshish, chegaradan chiqish) borlig‘i aniqdir”.

Shundan so‘ng Fitrat Xayyomning e’tiqodi, maslagini quyidagicha ifodalashga urinadi: “Xayyom saroy tabibi bo‘lg‘an, zamonining odil hay’atshunosi, faylasufi, riyaziysi bo‘lg‘an. Taqvimni eng to‘g‘ri isloh qilgan, ilmi hay’atg‘a juda katta nufuz va faoliyat bilan ishtirok etgan. Hukmdorlarning ish soatlarini belgilovchi munajjim sanalg‘an. Bunday bir odamning doimiy mastlik bilan (piyanistalik bilan) mashg‘ul bo‘lub qolishi haqiqatdan, albatta uzoqdir.

Xayyomni so‘fiy guman qilib, uning mayni “Xudoning ishqisi” deb izoh qilishi esa, birinchi fikrdan ham uzoqroq, yanglishroqdir. Xayyomning ruboilyari orasida shundaylari borki, tasavvuf asoslarini ular bilan kelishtirishning imkonи yo‘q. Bundan boshqa Xayyom bilan, bizga ko‘ra ko‘brak tanish bo‘lg‘an eski va ishonchli manba’lar uning tasavvuf maslagida bo‘lmag‘anini ochiq suratda ko‘rsatmadirlar.

Xayyomni mutassib deganlar uning ba’zi bir fikrlarining tasavvuf qarashlarig‘a mos kelganidan shubhaga tushganlar. Uning ba’zi nuqtalarda so‘fiylar bilan birlashgani, boshqa-boshqa uyalarga bormoq uchun havoda uchib yurgan ikki qushning yo‘l orasida birlashib, yana ayrilishlariga o‘xshaydir. Haqiqatda esa, Xayyomning borib to‘xtag‘an nuqta so‘fiylarning borib to‘xtag‘an nuqtalarig‘a butunlay qarshudir.

Uchinchi da’vo, ya’ni Xayyomni ichida yashag‘ani jamiyatning har turli ta’siridan ozod, o‘z jamiyatidan ta’sirlanishdan judayam yuqorida turgan bir mustasno odam qilib ko‘rsatish ham to‘g‘ri emas. Jamiyatdan, muhitdan bir turli ta’sirlanmag‘an, mansub bo‘lgan sinfning talablaridan bir qismig‘a javob berishni o‘z ustiga olmagan bir adibning, bir adabiyotning bo‘luvi

mumkin emas. Bizning fikrimizcha ham Xayyom dohiydir, ammo san'at dohiysidir”.

Fitrat fikriga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, Xayyom hajga borib islomning beshinchi shartini bajargan e'tiqodli islomiy shaxs, vafotidan oldinroq Samarqand va Buxoroga kelib imom Buxoriy va boshqa qadamjolarni ziyorat qilgan muslimmon bandasi ekanini aytmoq kerak.Xo'sh, unda Xayyomga nisbat beriladigan ba'zi dahriyona ruboiylar-chi?

Fitrat bu ruboiylarga shubha bilan qaraydi: “Ruboyida ko‘brak shoirning taxallusi kirmay qoladir.Mana shuning uchun Xayyom ruboiylarig‘a bir ko‘b yot ruboiylar ham qo’shilib qolg‘on.Unda-bunda Xayyomga nisbatan berilg‘on ruboiylarning sonini 5 mingtagacha chiqarish mumkin.


Sharqda tosh bosmada bosilg‘on ba'zi “Umar Xayyom” nusxalarida mingdan ortiq ruboiy bor. Holbuki, bularning hammasini Umar Xayyom ruboiylari deb qabul qilish mumkin bo‘lmaydi.Mustashriqlar dunyosi Umar Xayyomning asl ruboyilarini yot ruboiylardan ajratish uchun turli yo‘llar bilan tirishib ancha muvaffaqiyat qozondi. Bugun asl Umar Xayyom ruboiylari 250-300dan ortuq bo‘lmasa kerak, degan fikrni ko‘pchilik qabul etmakdadir.Lekin 250-300 sanalgan bu asl ruboiylarni aniqlab, “man” deb ko‘rsatish yo‘lida ko‘rilgan choralarining hech birtasi qanoatlanarliq emasdir” deya yozgandi Fitrat.

To‘g‘ri, 1928-29-yillardagi vaziyatda, ya’ni sho‘ro hukumati tomonidan dinga, dindorlarga qarshi kurash ketayotgan, xudosizlar jamiyati tashkil etilgan, ateistik jurnallar, gazetalar chop etilib, bunday g‘oyalar keng targ‘ib qilingan paytda Fitrat Umar Xayyomni dindor, islomiy shaxs bo‘lgan, deya baralla yozolmasdi.Ammo uning yuqoridagi tarzda shubha bilan qarashi ham o‘z davrida katta jasorat edi.

Ma'lumki, sharqda bir taxallus bilan bir nechta shoir ijod qilgan.Masalan, Xurosonning Sabzavor, Qum, Koshon, Karbalo shaharlari va boshqa joylik Mullo Navoiy Xurosoniy, Bobosulton Navoiy, Mullo Shamsuddin Muhammad Navoiy, Mirmuhammad Sharif Navoiy, Pirzoda Navbahoriy Navoiy, Mirzo Muhammad Taqiy Navoiylar Navoiy taxallusi bilan ijod etishgan.

Yoki Jomiy taxallusi bilan XII asrda yashagan Ahmadi Jomiy, Nishopurda yashagan Xo‘ja Qutbiddin Ahyo Jomiy, Hirotda istiqomat qilgan Mavlono Muhammad Jomiy, Hindistonda umrguzaronlik qilgan Jaloliddin Jomiy, XVII asrda Buxoroda shuhrat qozongan Jomiy Hisoriy, qorateginlik Kamoliddin Jomiy Soqiy hamda Jomiy Soqiy, Jomiy Lohuriy, Jomiy Ardabiliy, Jomiy Giloniy hamda Abdurahmon Jomiylar nomi tarixdan ma'lum.

Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak hamda Fitrat yozgan Xayyomning saroyda munajjim, matematik, faylasuf ,tabib bo‘lgan allomaning, buning ustiga hajga borgan e'tiqodli insonning dahriyona ruboiylar yozmagani oydinlashadi. Bunday ruboiylarni balki Xayyom taxallusidagi boshqa bir shaxs (balki shaxslardir) yozgandir, degan taxmin o‘rtaga chiqadi.



Axir Fitrat 1929-yildayoq “asl Xayyom ruboiylariga boshqa ruboiylari aralashib qolganini” taxmin qilgandi-ku?! Qolaversa, Qutbiddin Ma’sud Sheroziy tomonidan yozilgan “Tuhfat ush-shomiya”, Nizomiy Aruziyning “Chahor maqola”, Shayx Najmuddin Roziyning “Mirsod ul-ibod”, Avfiyning “Lubob ul-albob” asarlarida Umar Xayyom shoir sifatida emas, tabib, astronom va boshqa sohalarda faoliyat ko’rsatgan olim sifatida ta’kidlanadi.

Nizomiy Aruziyy “Chahor maqola” asarida “Men Balxda bir kuni G’ulomon ko’chasida amir ziyoratida ulug‘ hakim Umar Xayyom suhbatiga musharraf bo’lgandim, quvnoq suhbat asnosida ustod dedilar:

“O’lganimdan keyin meni daraxtlar va gullar o’sgan joyga ko’mishadi, navbahor kunlari yoqimli shabada mevali daraxtlar gulini, atirgullarning bargini qabrim ustiga sepib turadi” (ya’ni unga nisbat berib aytilgan ruboiiydagidek,

“Shunday ichayinki, o’lsam ul sharob-Hidi mozorimdan chiqsin burqirab.

Xumori o’rtasa qabrim boshidan

Isi elitsinu aylasin xarob

kabi, yoki:

Men o’lsam, may birla yuvishni ko’zlang,

Yo’qlovsda jom birla sharobdan so’zlang.

Qiyomat kunida topmoq bo’lsangiz,

Mayxona tuprog’in tubidan izlang” kabi shakkokona, dahriyona vasiyat qilmagan-U.B). Yigirma to’rt yil o’tgandan keyin men Nishopurga borib qoldim.Xayyomning vafotini eshitgach, bu buyuk insonning hokini ziyorat qilish niyatida uning qabrini ko’rsatishlarini so’radim. Meni Xayriya qabristoniga olib keldilar, ko’z oldimda bog‘ devori yonida qiyg‘os gullagan o’rik va nok daraxtlari tagida gul yaproqlariga ko’milgan qabr namoyon bo’ldi, gullar shunchalik ko’p ediki, qabr zo’rg‘a ko’rinardi.Men Balxda aytilgan gaplarni esladim va ko’zimdan duv yosh keldi.Bu ko’hna dunyoning sarhadlarini kezib, unga o’xshash tabarruk insonni uchratmadim”.

Ya’ni, Xayyom bilan suhbatdosh bo’lgan Aruziy uni shoir emas, hakim deb bilgan va hurmat qilgan.

1956-yilda Abu Nasr Mubashshir Taroziy “Kashful lisom ar-ruboiiyoti Umarul Xayyom” nomli kitob yozib, Fitrat kabi masalaga yondoshadi va Sheroziy, Avfiy, Aruziy, Roziy singari allomalarining tazkiralarida yuqorida yozganimizday, Xayyomni shoir emas deb ta’kidlaganini qa’tiy aytib, Nizomulmulk, Qozi Nasaviy, imom Abu Hasan al-G’azzoliy, Hujjatul Islom imom Abu Homid G’azzoliy kabi allomalar Umar Xayyom bilan bir davrda

,birga munosabatda yashab faqat yaxshi gaplar aytganini, agar dahriyona ruboiylar yozgan taqdirda, buni e'tiborsiz qoldirmas, raddiya berar edilar, deya yozadi.

Chindan ham Davlatshoh Samarcandiy (1435-1495) sharqdagi turli shoirlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Tazkirat-ush-shuaro" asarida 58 ta shoir haqida ma'lumotlar keltirgan holda Umar Xayyomni hakim sifatida qayd etib o'tadi: "hakim Umar Xayyom ham Nishopurlik edi.Ko'p fozil, alxusus, nujum ilmida zamonasining yetuk kishisi edi.Podsholar uni ko'p aziz va mukarram tutardilar.Aytishlaricha, Sulton Sanjar uni taxti yonida birga olib o'ltirar ekan".

Vaholanki, ushbu tazkirada barcha shoirlarning fe'l-atvori, hattoki ichkilikbozlikga berilganlari ham yozib o'tiladi. Masalan:Shohfur Ibn Muhammad Nishopuriy haqida ma'lumot berish asnosida, Shohfurning vazir Nuriddin munshiy yoniga borib turishi keltiriladi:"Nuriddin munshiy ertadan kechgacha ichkilikbozlik bilan mashg'ul erdi.Naql borki,Shohfur haftaning har to'rt kunida uning salomiga borar va har gal xoja sharob ichish bilan band bo'lardi.Shohfur o'sha ahvol haqida mana bu nafis ruboiyini yozib xoja Nuriddinga yubordi:

Senda bor fazlu kamol, mayparastlik senda bor,
Senda bor olimy himmat, fe'li pastlik senda bor.
Qoldi ul oy chehralar ko'zida holing sening,
Ki sharobdin gohi nur, gohi mastlik senda bor.

Samarcandiying yozishicha, "Shohfurning nasabi mashhur hakim Umar Xayyomga borib tutashadi". Ammo Samarcandiy tazkirasida Xayyomning ruboiy yozgani, yoki yuqorida keltirilganidek, boshqalar kabi uning fe'lida ichkilikbozlik bo'lganini keltirib o'tmagan. "Tatimat us-savon ul hikma" asari muallifi Bayhaqiy Xayyomning Imom G'azzoliy, Abu Hotam ul-Muzaffar al-Isfizoriy, Alouddavla Faromad ibni Ali ibni Faromad, Sa'id Sharaf uz-Zamon Muhammad ibni al-Adib al-Iloqiy singari zamondosh faylasuflari bilan falsafa masalasida bahs-munozara qilganlarini yozgan holda, ruboiylar masalasida lom-mim deyishmaydi.

Agarki, Xayyom shu paytgacha biz bilgan shakkokona, dahriyona ruboilyarni yozgan taqdirda bu holat zamondoshi Bayhaqiy va boshqalarning asarlarida yoritib o'tilardi.

Qolaversa, o'rta asrlarda, islom dini ravnaq topgan, fan, madaniyat, adabiyot va san'at gullab-yashnagan sharq muhitida Xayyomga nisbat berilib kelingan quyidagicha dahriyona ruboylarning yozilishini tasavvur etish mushkul:

Masjidga ketgandim bir niyoz uchun,
Rost aytSAM, o'ylama, hech namoz uchun,
Joynamoz o'g'irlab edim, eskibdi,
Yana asta keldim joynamoz uchun.

Dunyoda ulug' so'z-qur'on o'qilur,

U ham mudom emas, ahyon o‘qilur.
 Piyola chetida bir oyat borki,
 Har joyda, hamisha, hamon o‘qilur.

Bir qo‘lda Qur’onu bittasida jom,
 Ba’zida halolmiz,ba’zida harom.
 Feruza gumbazli osmon tagida
 Na chin musulmonmiz,na kofir tamom.

Bunday kufrona ruboilylarni, islomiy podshoh saroyida munajjimlik qiluvchi, matematik, astronom,tabib olimning, hajga borgan e’tiqodli insonning yozishiga nafaqat bugungi aql-idrokli inson,balki XI asrda yashagan kishining ham ishonishi qiyin. Agarki,Xayyom shunday dahriyona misralarni yozganida podshoh saroyida e’tiborli shaxs sanalmas, o‘rtalarda vaziyatga ko‘ra, toshbo‘ron qilinib, osib o‘ldirilishi aniq edi.

Demak, o‘z-o‘zidan Umar Xayyom bizga ma’lum bo‘lgan ruboilylarni yozmagandir, degan Fitratning fikrlari to‘g‘ri bo‘lib chiqadi.

Taroziyning ta’kidlashicha, Umar Xayyom haqida Yevropada birinchi bo‘lib 1700-yilda Oksford universiteti olimlari Tomas Gayd, Fon Gomer Bigestel,Meme Nokolaslar yozib chiqishgan. Hatto 1856-yilda angliyalik shoir Edvard Vitz Gerald 70 ruboilyni tarjima qilib, ustozи Govlga yozgan bir maktubida “men bu ruboilylarni o‘z aslidek tarjima qilmadim, ba’zi juz’iyotlarini saqlab qolgan holda, bir-biriga aralashtirib o‘zgartirdim” deya yozgandi.Fitrat yana 1883-yilda Fisjerald degan olim va shoirning Xayyom ruboiysini ingliz tiliga tarjima qilganini yozgandi.

Aslida tarjima ilgariroq, 1859-yilda amalga oshirilgan, ammo birdaniga dovruq qozornolmagandi. E.Fitsjeraldning o‘z mablag‘i hisobiga noshir E.Laybrori tomonidan 1859-yilda nashr etilgan kitobcha dastlab kitoblar do‘konida ancha vaqtgacha chang bosib yotdi. Shundan so‘ng kitobchani arzonlashtirilgan bo‘limga o‘tkazishdi va tabiiyki, kitobga shaxsiy mablag‘ini tikkan shoir va tarjimon E.Fitsjerald pulini qoplayolmay kasodga uchray boshladi.

Shunday kunlarning birida Rossepti va Sunnbern degan ikkita kitobsevar atigi bir pensiga “Ruboiyot” asarini sotib olishda va o‘qib chiqqach, o‘z fikrlarini bildirish uchun Jorj Meredit degan tanqidchi do‘sti oldiga borishdi. Sharqqa xos bo‘lgan ruboilylarni g‘arbda ommalashtirish va Yevropa kitobxoniga ma’qul bo‘ladigan tomonlarni bilgan Meredit “Ruboiyot”ni zavq-shavqqa to‘lib matbuotda maqtab chiqdi.Natijada Angliyada tanqidchi sifatida dovurq qozongan Merditga ma’qul ko‘ringan asar butun mamlakat bo‘ylab dovruq qozona boshladi.Shundan keyingina Angliyaning o‘zida 1860-yildan 1900-yilgacha bo‘lgan qisqa fursat ichida “Ruboiyot” 25 marta katta nusxalarda chop etildi.

“Bu she’rlar favqulodda shuhrat qozondi.Butun Britaniyada Xayyom ruboilylari kirmagan xonodon qolmadi.Ingliz askarlari har ikki jahon urushida ham uni o‘zlar bilan olib yurdilar”, deya tavsif bergandi Artur Jon Arberri.

Angliyalik yana bir olim, sharqshunos professor I.J.Braun esa “Butun Angliyada va Amerikada nomi tarqalgan fors shoirlari orasida Xayyomchalik shuhrat qozongan va qadrlangan daho yo‘q.U hammadan baland martabani egalladi. U shoirgina emas, zo‘r munajjim, matematik sifatida taqdirlanmoqda.Buning hammasi Xayyomning Fitsjerald kabi shoir tarjimonga ro‘baro‘ kelgani tufaylidir”, deb baho bergandi.

Kolumbiya universiteti professori D.Jonson esa ochiq-oydin yozgan ediki, “Nishopurda taxminan besh- olti kishi munajjim va hakim Xayyomning nozik kuzatishlar bilan tuzgan taqvimini, hisoblarini biladi, uning donishmand faylasuf bo‘lganligini ham balki eslashar, ammo shoir bo‘lganini biladigan yo‘q.Yevropada esa uni eng e’zozli so‘z ustalaridan biri sifatida ko‘pchilik taniydi”.

Shu kabi Fitsjerald tarjimasiga mansub bo‘lgan “Ruboiyyot” haqida H.M.Kodal, F.Henri singari adabiyotshunoslar ham bir qancha maqola, kitoblar yozishdi va bularning natijasida o‘z davrida munajjim, tabib, matematik sifatida sharqda dovruq qozongan Umar Xayyom, XIX asrda Angliyada va g‘arb dunyosida shoir sifatida paydo bo‘ldi.

Aynan maishat, ichkilikbozlik avj olgan XIX asr so‘ngidagi g‘arb dunyosi, xususan Angliyada Xayyom nomi bilan bog‘liq jamiyat, klublar ochildi va unda adabiyot bilan bog‘liq mavzulardan bahs bilan birga “Ruboiyyot” sha’niga maqtovlar qadahlar jarangi ostida bildirilar edi:

Maydan boshqasiga qisqa on yaxshi,
Mayni ham uzatsa sho‘x jonon yaxshi,
Yeru ko‘kdan ortiq bir piyola may,
Bo‘lmoq mast, qalandar ham sarson yaxshi.

May ich mangu hayot, hayhot, mana shu,
Yoshlikning davroni, ey zot, mana shu,
Gul faslida may-u mast ulfat bilan
Bir dam o‘yna, asli hayot mana shu!

Bir ko‘za may keltir, bo‘lsin bezzar,
O‘zing ich, menga ham uzat barobar.
Davron o‘z izidan aylanib ,oxir-
Tuprog‘imiz ko‘za qilur ko‘zagar.

May ichsang, oqil-u dono bilan ich,
Yoki bir gul yuzli zebo bilan ich.
Oz-oz ich, goh-goh ich, ham yashirin ich,
Ezma, rasvo bo‘lma, hayo bilan ich.

Shunday klublardan biri 1892-yilda Londonda ochilib, unda shoirlar, adabiyot muxlislari va kimki “Ruboiyyot”ni o‘qigan ko‘ngilyozar borki, u yerga kelib shunday shoirni kashf qilgan tarjimon Fitsjerald haqqiga maqtov

o‘qildi. 1891-93-yillarda Eronda bo‘lgan Vilyam Simisi Nishopurga borib, Xayyom qabri atrofidagi gulzordan gul uzib, Londondagi tarjimon qabriga olib kelgandi.

Oradan vaqt o‘tib, Angliyaning o‘zida tadqiqotchi Artur Arberri Bodleyandagi qo‘lyozma keyingi asrlarda ko‘chirilganligini, Xayyom yashagan davrdagi ishonchli manba emasligini, qolaversa tarjimon Fitsjerald ham meyo’ridan ortiq erkinlikka yo‘l qo‘yib, aslidan uzoqlashgan “Ruboiyot” yaratganligini aniqlashga kirishdi. Arberri nazarida bular haqiqiy Xayyom emas, balki inglizcha stanslar muallifi edi. Arberri shundan so‘ng Fitsjeralddan keyin ikkinchi bo‘lib, Xayyomga nisbat berilayotgan ruboilyar tarjimasiga yo‘l urdi.

Ammo uning o‘zi ham tarjimada xatoliklarga yo‘l qo‘yanini shunday tan olgandi: “Men tarjima paytida g‘oyat qiynaldim, holbuki bu so‘zma-so‘z tarjima edi. Men iloji boricha originalga yaqinlashishga, emotsiyal jihatlarga e’tibor bermaslikka intildim, maqsadim qiziquvchilarga asar mazmunini, badiiy dalilni yetkazish edi. Bu ishga juda bilimdon tanqidchini ham jalb etgan edim. U mening nuqsonlarimni ko‘rsatib, ishimni yengillashtirdi. Shunga qaramay, men tarjimaning o‘ta mukammalligiga ishonmayman. Xatolar bo‘lishi tabiiy. Hatto, oddiy narsalarni tushunmagan bo‘lishim hech gap emas. Zero, Xayyomning barcha ma’nolarini anglab yetish juda mushkul”.

Fitsjerald tarjimalarini tahlil qilgan Ye. Heron-Allen tadqiqoti yakunida quyidagicha xulosaga keladi: Fitsjerald she’rlarining 49 tasi Xayyom yozgan ayrim ruboilyarning butun satrlari yohud ularning bir qismining mazmunini u yoki bu darajada ifodalay oladi; 44 tasi esa Xayyomdagi ikki yoki undan ortiq ruboilyning ma’nosiga muvfoiq keladi, boshqacha aytganda, tarjimon bunda bir necha ruboiy mazmunidan foydalanib, bitta she’r yaratgan; Fitsjerald Xayyomniki deb ko‘rsatgan ruboilyar orasida boshqa shoirlarga tegishlisi ham bor; 3 ta inglizcha she’rning forsiy manbai bo‘lsa, umuman topilmagan”.

Arberri ham Fitsjerald tarjima jarayonida xatoga yo‘l qo‘yanini ta’kidlab, “Fitsjerald Xayyom ijodiga juda erkin munosabatda bo‘ladi, ruboilyarni qayta ishlab chiqib, yangi mazmundagi she’rlar yaratadi”, degandi.

Chunki, Fitsjerald Angliyada mashhur shoir ham edi. Nobel mukofoti sohibi Tomas Sterns Eliot yozganidek, ““Viktorianlar Angliyasining nomi chiqqan shoiri-gedonist va skeptik Fitsjerald XIX asr ingliz madaniyatining mafkurachilaridan va ma’naviy hayotining ahamiyatli siymolaridan biri edi”. Ya’ni, sharqqa nisbatan mustamlakachilik siyosatini olib borayotgan Angliya hukumatining mafkurachilaridan biri aynan Xayyom ruboilarini taqdim qilgan shoir Fitsjerald edi.

Artur Arberri tarjimon Fitsjeraldning xatoliklarga yo‘l qo‘yanidan so‘ng ham Angliya adabiy doiralarida nega endi Fitsjeraldning o‘zboshimchaligi so‘nggi nashrlarda ham davom etaverGANligini izohlashga urinadi: “Bunday o‘zboshimchalikni birorta ham yevropalik shoirga nisbatan qilish mumkin emas. Lekin Fitsjeraldni kechirdilar, uning iste’dodini hurmat qildilar. Ochig‘i, bunga sabab shuki, Yevropa sharq obidalariga mustamlakachilik kayfiyati bilan qarab keldi, yana shu ham ma’lumki, Sharq

adabiyoti obrazlari G‘arbning begona ta’biga muvofiq emas, degan tasavvur rasm edi, bu bema’ni refleksning ta’siri katta bo‘lgan”.

Ya’nikim, XIX asrdagi Angliyaning sharqqa nisbatan mustamlakachilik yurishlari davom etayotgan paytda sharjni o‘rganish, u yerni istilo qilishda adabiyot ham garchi soxtalashtirilgan bo‘lsa-da, mafkuraviy qurol edi.

Buni oddiy qilib “mana sharqda maishatparastlik, ichkilikbozlik rivoj topgan, shoirlar islom dinida bo‘la turib shakkokona she’rlar yozishgan” degan fikrda ham islom diniga, hamda sharjni obro‘sizlantirish g‘oyasi yotardiki, shunday mafkuraviy qarashga Fitsjeraldning xato tarjimasi qulay bo‘lib qoldi.

Tabiiyki, o‘z-o‘zidan bunday soxta shuhratga, o‘z davrida shoir sifatida emas, matematik, astronom, tabib, munajjim bo‘lgan Umar Xayyom munosib ko‘rildi. Bu holni sho‘ro mustamlakachilarining Hamzadek jadid, hajga borgan islomiy shaxsni ideallashtirib, o‘zga bir soxta Hamzani “yasagan”ligiga o‘xshatish mumkin...

Xuddi Angliyaning sharqqa nisbatan mustamlakachiligining mafkuraviy nishoni Xayyom, sho‘ro davri mustamlakachiligi uchun ham qulay obrazga aylandi. Xayyom asarlari sobiq ittifoq miqyosidagi barcha xalqlar tillariga tarjima qilinib, katta-katta nusxalarda nashr etildi. Masalan, birgina “Umar Xayyom.Ruboiylar” to‘plami 1976-yilda “O‘zbekiston KP Markaziy Komiteti nashriyoti” da 150000 nusxada chop etilgan.

Arberridan oldin xuddi u kabi Xayyomning soxta shuhratidan shubhalangan rus olimi V.A.Jukovskiy ham 1897-yilda maqola (“Omar Xayyom i stranstviušcie chetverostiščiya”, “Muzaffariya” to‘plami ,SPB, 323-324 str.) yozib, fransuz olimi J.B. Nikolas tomonidan 1867-yilda Parijda nashr etilgan va Xayyomga nisbat bergen 464 ruboiyning 82 tasi 39 nafar boshqa shoirning devonida uchraganini isbotladi. Jukovskiy bunday ruboiyilarni “sayyor ruboiyilar” deya atagandi.

Shu kabi I.Denison va A.Kristenson singari Daniyalik sharqshunoslar ruboiylarning 108 tasi boshqa shoirga mansubligini isbotlaydilar. Natijada xalqaro ko‘lamda Fransiyada Nikolas va Angliyada Fitsjeraldar chop ettingan Xayyom ruboiylarida soxtalik borligi katta bahsga sabab bo‘ldi. Daniyalik ilmda insofli va haqiqatparvar sharqshunos deya dovruq qozongan A.Kristenson 1904-yilga kelib tadqiqotlarini chuqurlashtirgan holda muallifi Umar Xayyom hisoblanadigan to‘rtliklarning soni 12 tadan oshmasligini e’lon qildi.

Shu tarzda birdaniga Angliya va Fransiyada shuhrat qozongan Xayyom shuhrati so‘na boshladi. Uning soxtalashtirilganiga e’tibor kuchaydi. Olimlar o‘rtasida bahs boshlandi.

Bahsda ingliz olimi Denison Ross va daniyalik eronshunos A.Kristenson ruboiyilarni farqlashning o‘ziga xos ilmiy uslubini ishlab chiqqan. Ular sharq adabiyotidagi asarlar tarkibida “shoirning ismi yo unga ishorat yashiringan bo‘ladi” denan tasavvur bilan ruboiyilarni o‘rganib, atigi 12 ta ruboiyidagina shoirning ismini yo ism ishoratini uchratgan.

F.Rozen bo'lsa, dastlab eng eski qo'llanmalarda uchragan to'rtliklarni to'plab, 23 ta "asl ruboiy"ni aniqlagan.Xullas, hatto Yevropaning o'zida ham bahslar davom etaverdi.

I.J.Braun "Tadqiqotlar natijasi ko'rsatayaptiki, Umar Xayyom ko'p ruboiy yozmagan, bunga imkon ham, vaqt ham topishi gumon edi.U favqulodda damlarda bu ish bilan shug'ullangan.Unga nisbat berilgan she'rlarning qandaydir qismini yoza olgan bo'lishi mumkin", deya bahsini davom ettirgan bo'lsa, Nikolson "Vaqt o'tishi bilan uning matni o'sa borgan, atrofiga boshqa ruboiyilar qo'shilavergan.Bu qo'shilish va aralashish shu darajada chigallikka olib keldiki, agar Umar tirliganda ham o'z she'rlarini topishga ojizlik qilardi", deya fikr bildirdi. X.A.Sheeder esa 1934-yilda chop etgan maqolasida "Xayyom aslida hech narsa yozmagan, uni fors adabiyoti tarixidan o'chirish kerak" deya bahsga nuqta qo'ymoqqa urindi. Chunki, bunga asos yo'q edi-da. Negaki, aynan Xayyom yashagan davrda uning o'zi yoki zamondoshi tomonidan yaratilgan ruboiylarning qo'lyozmasi topilmagandi.Unga nisbat berilganlari esa boshqa kitoblarning hoshiyalarida, devonlarning ichida uchrar, ba'zi tazkiralardagi Xayyomniki deya ko'rsatilayotgan asarlar bir-biridan keskin farq qilardi. Hattoki, eng ko'hna deb bilingan va Bodleyanda saqlanib, Fitsjerald tomonidan tarjima qilingan 158 ruboiy Xayyom vafotidan 328 yil o'tganidan so'ng ko'chirilgan qo'lyozma edi.

Professor Najmiddin Komilovning "Tafakkur karvonlari" kitobida yozilishicha, "ammo ruboiylarni qidirish davom etdi. Bu ishga Eron va Turkiya olimlari ham ancha hissa qo'shdilar. Istambulning boy kutubxonasidan "ruboiyot"ning bir necha qo'lyozma nusxalari topildi, ulardan biri Bodleyan nusxasi bilan tengdosh bo'lib, unda 315 ruboiy bor edi.Nemis olimi F.Rozen 1925-yilda 329 ta ruboiysi bor bir qo'lyozmani e'lon qildirdi.Ammo, olimlarning aksariyati uning qadimiyligiga ishonmadilar.Bu orada taniqli Eron olimi Mirzo Muhammad Qazviniy Xayyom ruboiylarining nisbatan ancha ilgari ko'chirilgan nusxasini topishga erishadi.741-yil hijriy sanasi (1341-yil) qo'yilgan bu qo'lyozmada hammasi bo'lib 13 ta ruboyi bor edi, xolos." (3).

Xorijlik Xayyomshunoslar shu tariqa izlanib, yana asl Xayyomni qidira boshladilar. Jumladan, aynan Eronning o'zida 1942-yili Muhammad Furug'iy 178 ruboiyni qat'ian Xayyomniki deya nashr ettiradi.Ammo hamon asl manba, bevosita Umar Xayyomning o'z qo'li, yoki uning zamondosh xattotlari ko'chirgan "Ruboiyyot"dan darak yo'q edi.

1949-yilda esa arabshunos Artur Arberri londonlik kolleksioner Chister Bitte 1259-yilda Muhammad Qavom Nishopuriy degan kotib tomonidan ko'chirilgan 172 ruboiydan iborat qo'lyozmani topib, uni 1950-yilda nashr qildirdi.Arberrining nashri asoslangan qo'lyozma ham Xayyom vafotidan 134 yil keyin ko'chirilgan edi. Ha, astronom, matematik Umar Xayyomning o'z qo'li bilan yoki zamondosh kotibi ko'chirgan asl qo'lyozma yo'q.Vaholanki, uning boshqa sohalarga oid asarlari saqlanib qolgan.

Oradan bir oz vaqt o‘tib, 1956-yilda Abu Nasr Mubashshir Taroziy “Kashful lisom ar-ruboiyoti Umarul Xayyom” nomli kitobida Umar Xayyom aslida Umar Xayyomiy ekanligi, Xayyom deb kelingan inson esa, Alouddin Ali ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Xalof al-Xurosoniy nomli boshqa bir forsiyning taxallusi ekanligini ta’kidlaydilar.

Taroziy hazratlarining yuqoridagi asarini va uning fikrlarini Eronlik mashhur adabiy tanqidchi Ali Dashtiy, Sa’yid al-Omudiy, Anvar Jundiy, Abdullatiyf al-Javhariy singari olimlar ham qo‘llab, maqolalar yozishdi.

Ya’ni, Eronlik olimlar ham biz dahriyona ruboiylar yozgan deb kelgan Umar Xayyom aslida tabib, astronom, matematik olim bo‘lganini ta’kidlashdi.

1978-yilning 6 dekabrida Qohirada nashr etiladigan “Al-Ahrom” gazetasi “Londondagi Umar Hayyom ruboyoti qo‘lyozmasi soxta ekan “deya xabarni chop etdi. Unga ko‘ra, “Ilmiy tekshirishlar Londondagi Kembrij dorulfuninida saqlanayotgan “Umar Hayyom ruboiyoti” deyilgan qo‘lyozmalar soxta ekanligini isbotladi. Bu qo‘lyozmalar milodiy 1200-sanada yozilgan, deb e’lon qilinar edi. U ko‘p yillardan beri ilmiy izlanishlarga asos hisoblanardi. Endi esa, faqat yuz yil avval yozilganligi ma’lum bo‘ldi. Kembrij universiteti bu qo‘lyozmalarni ularni Erondan topgan marhum ustoz Artur Abortisdan sotib olgan edi”.

Xullas, biz may, sharobxo‘rlik va maishatparastlik to‘g‘risidagi ruboiylar muallifi deb bilganimiz astronom, matematik, tabib va munajjim Umar Xayyom, hajga borgan e’tiqodli inson sifatida dahriyona ijod qilmagan, unga nisbat berilgan besh mingdan ortiq ruboilyarning, 1929-yilda Fitrat yozganiday “Umar Xayyom ruboiylari deb qabul qilish mumkin bo‘lmaydi. Xayyom saroy tabibi bo‘lg‘an, zamonining odil hay’atshunosi, faylasufi, riyozisi bo‘lg‘an. Taqvimni eng to‘g‘ri isloh qilgan, ilmi hay’atg‘a juda katta nufuz va faoliyat bilan ishtirok etgan. Hukmdorlarning ish soatlarini belgilovchi munajjim sanalgan. Bunday bir odamning doimiy mastlik bilan (piyanistalik bilan) mashg‘ul bo‘lub qolishi haqiqatdan, albatta uzoqdir”.

Demak, Umar Xayyom hayoti, ijodi, adabiy merosi soxtalashtirilgan holda taqdim etilgan. Aslida esa u buyuk matematik, astronom va tibbiyot olimi bo‘lgan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umid Bekmuhammad “Soxtalashtirilgan Umar Xayyom”, “Ma’rifat gulshani” gazetasi, 2011-yil, mart.
2. Abdurauf Fitrat “Fors shoiri Fitrat”, “O‘znashr”, 1929-yil.
3. Najmiddin Komilov, “Tafakkur karvonlari”, “Ma’naviyat” nashriyoti, 1999-yil.

TARIX

KAMOLIDDIN BEHZOD MINIATYURALARIDA TEMURIYLAR DAVRI VAKILLARI TASVIRI



**Firdavs
ABDUXOLIQOV**

**O'zbekiston madaniy
merosni saqlash,
o'r ganish va
ommalashtirish
bo'yicha Butunjahon
jamiyati boshqaruvi
raisi, san'atshunoslik
bo'yicha falsafa
doktori.**

UO'K 95.15

Annotatsiya: Maqolada Sharq uyg'onish davrining atoqli vakillaridan biri Kamoliddin Behzod (1455-1536) ijodi, uning o'ziga xos jihatlari, portret janrida ishlagan suratlari xususida so'z yuritiladi. Kamoliddin Behzod ijodida temuriylar davrining vakillari siymosi o'ziga xos o'r in tutadi. Muallif ushbu portretlarning xususiyatlari, musavvir nuqtai nazari, mahoratiga baho beradi.

Аннотация: В статье рассказывается о творчестве Камолиддина Бехзода (1455-1536), одного из известных представителей восточного Возрождения, его своеобразии в портретах. В произведениях Камолиддина Бехзода фигура представителей тимуридского периода занимает особое место. Автор оценивает особенности этих портретов, точку зрения художника, его мастерство.

Annotation: The article talks about the work of Kamoliddin Behzod (1455-1536), one of the famous representatives of the Eastern Renaissance, his unique aspects, and his portraits. In the works of Kamoliddin Behzod, the figure of the representatives of the Timurid period occupies a special place. The author assesses the characteristics of these portraits, the artist's point of view, and his skills.

Kalit so'zlar: Behzod, minityura, Hiro, portret, tasviriy san'at, temuriylar.

Ключевые слова: Бехзод, миниатюра, Герам, портрет, изобразительное искусство, Тимуриды.

Key words: Behzod, miniature, Herat, portrait, fine arts, Timurids.

Miniatyura san'atining mustaqil janri sifatida portret janri Hirotda, XV asrning so'ngi choragiga kelganda, temuriy Sulton Husayn (1438-1507) hukmronligi davrida, uning vaziri, mashhur shoir va faylasuf Alisher Navoiyning sa'y harakatlari natijasida shakllangan. Ularning ikkalasi ham san'atga homiylik qilishgan bo'lib, tasavvuf ta'limoti va Kamoliddin Behzod (1455-1536) ta'siri ostida bo'lishgan¹.

Behzod o'z miniatyuralarida turli obrazlarni – sulton va saroy a'yonlaridan tortib oddiy dehqon, quruvchi, hunarmand, so'fiy yoki qora tanli xizmatkorgacha bo'lgan obrazlarni tasvirlar ekan, ularni o'ziga xos ma'noli imo-ishoralar, mimikalar, liboslar va aksessuarlar bilan boyitadi. Bu obrazlar rassom uchun

¹ Горелик М. В. Портреты Бехзада / К вопросу о творческом методе // Искусство и археология Ирана. Доклады. Всесоюзная конференция (1969), с. 111-121.

yangi bosqichga ko‘tarilish – aniq shaxslarning portretlarini yaratish imkonini beradi. Ular Yevropa tushunchasidagi portretlar emas edi, chunki miniyatyrachining oldida zohiriyligi o‘xshashligi g‘oyat darajada aniqlik bilan uch o‘lchamli hajmda chizilgan, oqish va qoramtilar buyoqlar vositasida to‘laqonli, haqqoniyligi gavdalantirilgan tasvirni yaratish majburiyati bo‘limgan. Behzod kompozitsiyaning tekis yechimini saqlab qolgan holda an’anaviy tamoyillar doirasida portretlar yaratgan, portretda tasvirlanayotgan shaxsning individual xususiyatlarini aks ettirish orqali unga jonli tus bergan va shu tufayli cheharalarni tanib olish (U chizgan Shayboniyxon, Sulton Husayn, Navoiy, Jomiy portretlari misolida) samarasiga erishgan. Shu bilan birga, u nafaqat miniyatyraning badiiy tilini saqlab qolgan, balki tasvirlangan insonga o‘zining shaxsiy munosabatini ham bildirgan. Masalan, Sulton Husaynni har doim odob qoidalariga rioya qiladigan axloqli inson qiyofasida tasvirlagan, Shayboniyxonni esa qulog‘ini salla ostiga qisib tasvirlagan va kelib chiqishi ko‘chmanchi ekaniga urg‘u bermoqchi bo‘lgan.

Ma’lumki, Behzod ko‘plab portretlarni, eng avvalo, o‘zining yo‘g‘on gavdasi bilan ajralib turadigan Bobo Mahmud portretini chizgan¹. Bundan tashqari u Sulton Husaynning atrofidagi boshqa odamlarning, xususan Shoh G‘arib Mirzo, Navoiy, Jomiy va Xotifiy larning ham portretlarini chizgan².

Vosifiy shunday yozgan: «Har doim shoh qayg‘u va g‘am-tashvishlar sabab tushkunlikka tushganda, Behzod qandaydir suratlar yoki portretlar yaratar, unga bir qaragan shohning qalb ko‘zgusi g‘uboru changlardan tozalanib, uning shohona tafakkur zarvaraqlarini qayg‘u alomatlari tark etar edi»³.

Vosifiyning ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, portretlar xotiradagi obrazlardan chizilgan bo‘lib, aftidan, u chizgan portretlar qahramonlarining odatlari va hatti-harakatlarini qayta-qayta kuzatishlar va xomaki chizgilar asosida yaratilgan. Ehtimol, aynan shu grafik chizgilar, kelajakda, obrazli portret san‘atining poydevorini yaratgan bo‘lishi mumkin.

Bir paytlar shoirning majlisiga Behzod olib kelgan Alisher Navoiy portreti haqidagi Vosifiyning hikoyasi barchaga ma’lum. Bu bo‘lgan voqeа edi: «... chappar urib gullagan bog‘dagi daraxtlarning shoxlarida turli xildagi chiroyli qushlar qo‘nib turibdi. Har joyda ariqlarda suvlar oqmoqda, go‘zalligi bilan qalbni quvontiradigan gullar ochilgan. Alisherning o‘zi hassaga suyanib turibdi, qarshisida esa sadaqa va hadyalar uchun mo‘ljallangan oltin va kumush bilan to‘ldirilgan tovoq turibdi. Hazrati Mir bu ijod mahsulini ko‘rgach, qalbi shodlikka to‘lib, «Ofarin!» deb hayqirdi⁴. U o‘z yonida hozir bo‘lganlardan ushbu asarni baholashlarini so‘radi. Vosifiy suratni maqtashda jonbozlik ko‘rsatgan saroy a‘yonlari tasvirlaydi. Anjuman ishtirokchilarining har biri rassom ijodining hayot bilan hamnafas ekanini alohida ta‘kidlashdi. Portretda aynan Alisher Navoiy tasvirlanganiga hozir bo‘lganlarning hech biri shubha qilmaydi. Bu holat o‘sha

¹ Болдырев А. Н. Алишер Навои в рассказах современников. – М.; Л., 1946, с. 151.

² Семенов А. А. Портреты эпохи Навои. – Ташкент, 1941.

³ Болдырев А. Н. указ соч., с. 151.

⁴ O‘sha sahifada, с. 151–152.

uzoq zamonalarda ham zohiriyl o‘xshashlik nihoyatda qadrlanganidan dalolat beradi.

XV asrning oxirgi choragidagi Hirot miniatyura san’atida Behzodning iqtidori tufayli portretlarning alohida varaqda va suratda aks etgan ikki turi rivojiana boshlagan. Ba’zi tadqiqotchilar uchinchi tur - portret karikaturasi bo‘lganligini ham e’tirof etishgan¹. Bu yangi janr rassom tomonidan o‘z homiysining ko‘nglini yozishi uchun yaratilgan. Biroq, uning asl nusxalari ma’lum emas. Ehtimol, ular saqlanib qolmagan yoki hali nashr etilmagan bo‘lishi mumkin.

1-tur kitobning matni bilan bog‘liq bo‘lmagan alohida varaqdagi bitta portretlar bo‘lgan. Silliq bo‘yalgan neytral fonda ma’lum bir shaxs muayyan matabning miniatyura san’ati personajining o‘ziga xos tarzda ifodalangan obrazida paydo bo‘ladi. Miniatyuralardagi tasvirlar tahliliga ko‘ra, bu tur portretning eng dastlabki shakli bo‘lib, yuqorida aytib o‘tilganidek, bu shakl Behzoddan oldin ham mavjud bo‘lgan va undagi tasvirda yuz chizgilari, gavdasi, liboslarni tanlashdagi yondashuv orqali individual xususiyatlar ochib berilgan (masalan, Boburning kuzatuvlariga ko‘ra Sulton Husayn doim, o‘zi yoqtirgan yashil rangli libosda tasvirlangan).

Hirot miniatyurasining so‘ngi davrida nihoyat bir kishi tasvirlangan portretlar uchun qoidalar o‘rnatilgan, unga ko‘ra qahramon neytral fonda an’anaviy pozada o‘tirgan holatda tasvirlanadi. Uning liboslari ham shunga muvofiq tarzda ishlangan. Miniatyuraning butun sathini qoplab olgan portret, tomoshabinga anchagina yaqinroq bo‘lib, qahramonning obrazini hasham dor va dabababali qilib ko‘rsatadi(Sulton Husayn portreti). Bunga tasvirdagi odamning liboslari ham ko‘rk beradi va ularning muayyan hududlarga xos bo‘lgan yorqin ranglari sahifani alohida ajratib ko‘rsatadi. Tiplashtirish va tashqi o‘xshashlikni ideallashtiruvchi o‘zaro uyg‘unlikdagi bunday birlashuv shu kabi portretlarga hayotiy tus beradi. Yakka tartibdagi portretlar rangli bo‘lishi yoki bir oz rang berilgan grafik surat shaklida bo‘lishi ham mumkin.

Yakka tartibdagi portretning aftidan biroz keyinroq paydo bo‘lgan yana bir varianti odam jussasi to‘liq gavdalantirilgan suratlar bo‘lib, ular ham neytral fonda tasvirlangan².


Behzod chizgan portretlar orasida uning hukmdori Sulton Husayn portretlari alohida ajralib turadi. Uning tashqi qiyoғasi haқida zamondoshlaridan birgina Boburning ta’rif qoldirgan: «U qisiq ko‘zli, miqtı, sherdek qaddi-qomatli, belidan pastki qismi ozg‘in odam edi. Garchi u ancha qarib, soqollariga ham oq tushgan bo‘lsa-da, qizil va yashil rangli ipak kiyimlar, barra qo‘zichoq terisidan tikilgan qora telpak yoki qalpoq (kuloh bo‘lishi mumkin) kiyib yurgan. Ba’zan bayram kunlarida uch qavat qilib o‘ralgan va ustiga qarqaraning pati o‘rnatilgan kichkina tekis sallada namozga borgan. U gapga chechan va quvnoq odam edi. U biroz tajang fe’l atvorga ega bo‘lib, nutqi ham fe’l-atvori bilan bir xil edi ...»

U qo‘qmas va jasur odam edi. Uning o‘zi bir necha marta qilich bilan jangga kirgan. Hatto u o‘zi ishtirok etgan ko‘plab janglarning har birida qilich bilan

¹ Ашрафи М. М. Бехзад и развитие бухарской школы, с. 102–109.

² Портрет К. Бехзада. Библ. Ун-та. Стамбул.

kurashgan. Temurbek avlodlari orasida qilichbozlikda Sulton Husayn Mirzoga teng keladigan hech kim yo‘q. U she’r yozish qobiliyatiga ham ega bo‘lgan, hatto uning o‘zi devon ham yozgan. U she’rlarini turkiy tilda yozgan, taxallusi Husayniy bo‘lgan. Ayrim she’rlari yomon emas, biroq Mirzo divonining hammasi bir vaznda tuzilgan. U uzoq vaqt hukmronlik qilgani va qudrati bilan buyuk podshoh sanalsa-da, kezi kelganda u xuddi bola kabi, qo‘chqor urishtirish, kaptarbozlik va hatto xo‘rozlar urushtirish bilan shug‘ullangan¹.



boshqa portretlaridagi kabi, grafik portretlarida ham u zamonaviy hukmdorning ideal obrazini asos qilib olgan va unga bir nechta individual xususiyatlarni, jumladan qisiq ko‘zlar, ingichka burun, soqollarining nafis shakli, xipcha belli viqorli gavdasi, shuningdek, Payg‘ambar (s.a.v.) avlodlari bo‘lgan sayyidlarning sevimli rangi sanalgan libosining yashil rangini kiritgan holda rassom hukmdorning mashhur qiyofasini yaratgan ("Sulton Husayn portreti". 1590 yil. K. Anening sobiq kolleksiyasi. Hozir Kembrijdagи Garvard universiteti muzeyida saqlanadi). Behzod shu asosda Hirot hukmdorining ikonografiyasini yaratdi. U o‘zining Hirot hukmdori bilan bog‘liq barcha miniatyurlarida, barcha syujetlarida Boburning ta’rifiga mos keladigan Sulton Husayn ikonografiyasidan foydalangan va ularda doim qisiq ko‘zli, to‘g‘ri burunli, cho‘qqi soqolli chiroyli yuz chizgilari bilan yashil rangli kiyim kiygan jussasi vazmin o‘rtaloshdagi odam tasvirlangan.

Boston tasviriy san’at muzeyida saqlanayotgan Sulton Husaynning XV asrda ishlangan otliq portreti ehtimol, portret san’atining yangi janri bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin. Bu oddiy qog‘ozga siyoh bilan chizilgan rasm bo‘lib, unda ot ustidagi tepasiga qarqara pati o‘rnatilgan salsa o‘ragan erkak qiyofasi tasvirlangan. Unda ko‘rinishi ancha yosh, ko‘zları qisiq, mo‘ylovli yetuk inson qiyofasi aks etgan bo‘lib, u Hirot uslubida chapdan o‘ngga o‘raladigan qaba, ingichka tumshuqli va tovonli etik kiygan, kamon va o‘qdonga solingan o‘qlar bilan quollangan; matodan tayyorlangan belbog‘i orqasida xanjar tiqilgan va qinga solingan qilich osilib turibdi. Suratda ikkita yozuv bor: ulardan biri g‘ilofga


Behzod portret san’atining o‘z davrida ma‘lum bo‘lgan barcha janrlaridan foydalangan holda Sulton Husayn hayotining turli davrlarini aks ettiruvchi obrazlarning butun bir galereyasini yaratdi va shu tariqa o‘z homiysining o‘ziga xos «tasviriy tarjimai holi»ni chizib qoldirdi.

Sulton Husaynning

¹ «Бабур-наме». Записки Бабура / Пер. м. Салье. – Ташкент, 1958, л. 165а.

yozilgan: «al-Faqir Behzod; ikkinchisi, choponning etagiga qo‘yidagicha yozilgan: «Sulton Husayn Mirzo, Behzod (surati Sulton Husayn Mirzo, Behzod) deb yozilgan¹. Bu surat biron mavzudagi miniatyura uchun chizilgan eskizmi yoki mustaqil oqliq portret uchun xomaki chizmami, hozircha javob berish qiyin. Mo‘g‘ul imperatorlarining shunga o‘xshash ot ustida tasvirlangan portretlari keyinchalik Boburiylar davrida ham keng tarqalgan².

Behzodning portret san’atida darveshlar portretlari alohida o‘rin tutadi. Sharq miniatyura san’atida Behzod birinchilardan bo‘lib so‘fiy obraziga murojaat qilgan, ularni o‘zining ko‘pgina asarlarining qahramonlariga aylantirgan, uning obrazini ham yakka portretda, ham ommabop syujetli miniatyuralarda ochib bergen. Darveshlar portretlarining paydo bo‘lishining o‘ziyoq ularning o‘scha davrdagi Hirot ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynaganidan dalolat beradi (Darvesh portreti).



2-turdagi portret-suratlар bu janrning o‘ziga xos shakliga aylanib, tashviqot yoki targ‘ibot vazifasini bajargan. Mumtoz adabiy asarlarga chizilgan illyustratsiyalar tarkibidagi bunday miniatyuralarda keng ommalashgan adabiy syujetning mashhur qahramoniga hukmron podshohlarning individual xususiyatlari berila boshlagan va ular donishmand hamdaadolatli sulton, komil inson timsoli sifatida tasvirlangan. Behzod portret san’atining ushbu janriga alohida e’tibor qaratgan, chunki u suratlarni ko‘plab maishiy detallar bilan boyitib voqelikni batafsil tavsiflashga imkon yaratgan. 1490-1495 yillarda

Nizomiyning "Xamsa" siga ishlangan illyustratsiyalarda (Britaniya kutubxonasi) u Sulton Husaynni mashhur tarixiy va adabiy qahramonlar qiyofasida tasvirlagan. Behzod chizgan tarixiy shaxslar qatorida buyuk sarkarda Aleksandr Makedonskiy, Eron shohi Hurmuzd, saljuqiylar sulolasiga vakili Sulton Sanjar, Sulton Husayn huzuridagi darvish obrazlari alohida o‘rin tutadi. (Sa’diyning «Bo‘ston»i. 1488 yil. Qohira).

Portret-suratlarda Behzod syujetning holatiga qarab obraz mazmunini ochib berar ekan so‘fiylik ta’limotidagi inson tushunchasi va axloq talablariga amal qilgan, Sulton obrazini yuksak axloqiy tavsiflar va tashqi ko‘rinishining

¹ Roxburgh, David J. Kamal Al-Din Bihzad and Authorship in Persianate Painting. In Muqarnas: An Annual on the Visual Culture of the Islamic World, XVII, 2000, pp. 119–146 (рис.14).

² см. Паяг. Конный портрет Шаха Джакхана. Лист из «Альбома Шаха Джакхана» ок. 1630 г. Музей Метрополитен, Нью-Йорк; Конный портрет императора Аурангзеба. ок. 1690–1710 гг., Музей искусства. Кливленд.

individual xususiyatlari bilan boyitgan, realistik kuzatuvlar va ideallashtirishni uyg‘unlashtirib, yorqin va unutilmas obrazlar yaratgan.

Behzod o‘z homiysi – Sulton Husaynning vaziri va buyuk shoir Alisher Navoiy obraziga ham bir necha bor murojaat qilgan. Vosifiyning hikoyalaridan ma’lumki, Behzod shoirning bog‘da qo‘lida hassa bilan tasvirlangan portret-suratini chizgan. Biz uni XVI asrda yashab ijod qilgan buxorolik rassom Mahmud Muzahhibning¹ portretida ham uni shunday holatda ko‘ramiz va u Navoiy qiyofasining ushbu suratdan ajratib olingan nusxasi bo‘lishi mumkin. Aftidan, bu surat shoir ikonografiyasining asosini tashkil qilgan, chunki qo‘lida hassa tutgan keksa shoirning xuddi shunday obrazi Behzodning qo‘yidagi ko‘plab miniatyuralarda uchraydi: «Masjid qurilishi» (Yazdiyning «Zafar-noma»si. 1467 yil. Baltimor) miniatyurasida u Amir Temur qiyofasida qurilishni kuzatayotgani tasvirlangan; Navoiyning shunga o‘xhash siymosini Xusravning otasi Shoh Hurmuzd qiyofasidagi Sulton Husayn oqsoqollarning maslahati bilan o‘g‘lini kechirgani tasvirlangan².

Nizomiyning «Xamsa» qo‘lyozmasidagi «Xusravning tavbasi» miniatyurasida ham, shuningdek Behzod qalamiga mansubligi aytilgan "So‘fiylar raqsi" miniatyurasida³ ham ko‘ramiz. «Xusravning tavbasi» miniatyurasida Navoiy jigarrang chopon kiyib, boshiga kichik oq salla o‘ragan. U so‘fiylarning shayxlariga xos tarzda hassaga suyangan holda turibdi. «So‘fiylar raqsi» miniatyurasida ham A. Navoiy ko‘k libosda, hassaga suyangan holda tasvirlangan. Shoirning bu ikonografiyasidan keyingi avlod rassomlari Mahmud Muzahhib va Qosim Alilar ham foydalanishgan (To‘pqopi saroyi, N 2155, sahifa. 29b.).

Behzod va uning shogirdlari ulardan oldin o‘tgan davrlardagi ko‘zga ko‘ringan diniy arboblar va shoirlarning xayoliy siymolarini jonli, real qiyofalarda aks ettiruvchi «guruh portreti»ga ham asos solishgan. Behzodning «Darveshlar raqsi» miniatyurasidagi shod-xurram o‘ynayotgan so‘fiylar obrazlari orasida real odamlar ham (Jomiy, Navoiy, Behzodning o‘zi) tasvirlangan yoki Behzodning shogirdi Qosim Alining «Bog‘dagi mutasavviflar» nomi bilan mashhur bo‘lgan miniatyurasida H. Sulaymon fors shoirlarining (Nizomiy, Sa‘diy, Jomiy va boshqalarning) xayoliy portretlarini aniqlagan⁴.

Behzod ijodi va shaxsiy ijodiy izlanishlarining tadrijiy rivojlanishi ta’sirida portret janri XV–XVII asrlar miniatyura san’atining boshqa markazlari, jumladan Eron, Turkiya, Hindiston, Movaronanahrga ham keng tarqaldi.

¹ Yuqoridagi sahifada.

² 1494, Брит. б-ка, Or. 6810, f.76 Алишер-бек выступал в качестве посла Султана Хусейна Мирзы к его сыну Бад’аз-Заман-Мирзе в тот период, когда отец и сын враждовали [«Бабур-наме», 1993, с. 66].

³ Бабур отмечает, что А. Навои был излишне доверчив и в силу этого приближал к себе людей, выдававших себя за суфииев. Он вместе с ними иногда устраивал «радения, впадая в исступление» [там же, с. 184].

⁴ Миниатюры к произведениям Алишера Навои XV–XIX вв. Авт. предисл. и сост. Х. Сулайман, Ф. Сулайманова. Ташкент, 1980.

TARIX

ALIXON G‘OFURNING XIVAGA SAFARI



**Umrbek
IBRAGIMOV,
Berlin erkin universiteti**



**Nodira
KUZIEVA,
mustaqil tadqiqotchi
(Germaniya)**

Tarixdan ma'lumki, qo'shni davlatlar sifatida Xorazm va Eron davlatlari o'rtaida azaldan elchilik aloqalari olib borilgan. Bu aloqalar gohida do'stlik, gohida dushmanlik ruhida bo'lgan. Shunday elchilik aloqalariga bir misol sifatida, 1842-yili Eron shohi Muhammadshoh Qojar tomonidan Xorazmga yuborilgan Muhammad Alixon G'ofurning elchilik faoliyatini ko'rsatish mumkin [1:2]. Unga Xorazmdagi eronlik qul-asirlarni ozod etish va ikkala davlat o'rtaida do'stona munosabat o'rnatish kabi muhim vazifa topshiriladi. Shuningdek u xonlik hukumatiga siyosiy ta'sir etish maqsadida o'zi bilan birga Erondag'i Rossiya va Angliya elchixonalari vakillarini ham olib keladi.



Shu o'rinda aytish kerakki, Eron bu davrda siyosiy va harbiy jihatdan ancha tang ahvolda qolgan edi. Birinchidan, Muhammadshoh Qojarning (1834-1848) davrida davlatning tashqi siyosati ancha zaiflashib qoldi, jumladan, shohning Seyistonga ko'z

UO'K 570.511

Annotatsiya: Ushbu maqolada Eron elchisi Alixon G'ofurning Xorazmga safari tasvirlangan. Elchining yozgan xotiralari o'sha davrdagi Xiva xonligidagi vaziyatni anglashga yordam beradi.

Аннотация: В статье описывается поездка посла Ирана Алихана Гафура в Хорезм. Воспоминания посла помогают нам понять ситуацию в Хивинском ханстве того времени.

Annotation: This article describes the trip of the Iranian ambassador Alikhan Gafur to Khorezm. The memoirs written by the ambassador help us understand the situation in the Khiva Khanate at that time.


Kalit so'zlar: Xorazm, Xiva, Eron, Pitnak, Tuyamo'yin, Marv, Beshariq, qul, Angariq, to'ra.

Ключевые слова: Хорезм, Хива, Иран, Питнак, Туямуйин, Мерв, Бешарык, раб, Ангарык, господин.

Key words: Khorezm, Khiva, Iran, Pitnak, Tuyamuyin, Merv, Besharik, slave, Angarik, sir.

tikayotgan afq'onlarni bosib qo'yish uchun qilgan Hirotg'a yurishi Britaniya tomonidan yaxshi kutib olinmadni va ish Eron bilan diplomatik aloqalarni uzib qo'yishgacha borib yetdi [2:450]. Ikkinchidan, chet elliklarning mamlakatdagi iqtisodiy hayotda tobora kuchayayotgani mahalliy aholining ishlab chiqarayotgan buyumlarini tobora siqib chiqaraverdi. Uchinchidan esa, Eronning yaqin qo'shnilarini Buxoro va Xorazm rasmiy jihatdan Eron bilan do'stona munosabatda bo'lsalar-da, uning hududiga tez-tez bosqinchilik uyuştirib turdilar [1:3]. Bu davlatlarning aholisi sunniy mazhabida bo'lgani uchun Eronning shia aholisini g'ayridin sanashar va ularni qul sifatida bozorda sotishar edi. Aynan Muhammadshoh ham shunday sharoitda Alixon G'ofurni Olloqulixon huzuriga elchi qilib jo'natib, davlat miqyosidagi muammolarini hal qilish niyatida edi.

Alixon G'ofur o'z safari haqida Eron tashqi ishlar vazirligiga hisobot topshirib, ko'pgina muhim ma'lumotlarni beradi. Unda Xorazm xonligida olib



borilayotgan qurilish ishlari haqida, shaharlarning joylashuvi, dehqonchilik haqida to'xtalib o'tiladi. Masalan, hisobotda yozilishicha, shu davrda Olloqulixon Eski Marvni obod etib, u yerni o'g'li Rahimquli to'raga bermoqchi bo'ladi. Yana boshqa joyida esa, hozirgi Tuyamo'yin hududi haqida so'z yuritilib, unda dehqonchilik yaxshi emasligi, ammo hududga yaqin Pitnakning obodligini aytadi. Shu o'rinda u Marvdan Xivagacha bo'lgan masofa 81 farsax deb yozadi.

Elchilar xon bilan Besariqda uchrashadilar, sababi xonning inisi Rahmonquli inoq vafot etgan bo'lib, xon uning ta'ziyasiga Hazoraspga yo'l olgan edi. Elchilar Besariqdan chiqqach ularni valiahd to'ra Rahimquli Angariq (hozirgi Yangiariq) da kutib oladi [1:18].

Olloqulixon davridan ma'lumki, xon o'z qo'shini uchun jamshidiylar qabilasidan otliq qo'shin tartib etgan, ammo, G'ofurning ma'lumot berishicha ular xonga sadoqati kuchli bo'lmay, hatto Eron shohi qo'shin bilan yordam etsa, o'zlarini xonni tutib berishlarini ham ma'lum etadilar.



Albatta, Alixon G'ofur hisobotidan bizga eng muhim jihatlari uning tanqidiy yondashuvidir. Uning ma'lumot berishicha, xonlikning nomuntazam qo'shini yig'ilsa jami o'ttiz ming askarga yetadi va askarlarning o'ndan birigina to'liq harbiy aslahalarga ega. Umumiyoq qo'shindan to'rt-besh ming askargina to'liq harbiy shay holatda bo'lib, ular ham Erondan keltirilgan jamshidiy, temurtosh va boshqa Xuroson qabilalaridandir. Jami qo'shinda 10-12 ta g'ildirakli, 4 ta ulovda olib yuriluvchi to'p bo'lib, qolganlari otda sudraladigan zambaraklar edi. Butun boshli to'pxonada esa 400 ta o'q bo'lган, xolos. Hatto bir joyda G'ofur kinoyali tarzda xonlik artilleriyasi to'liq ishdan chiqqanini, ular qal'ani vayron qiluvchi emas va hatto favvora quvuri ham bo'la olmaydi deydi.

Alixon G'ofur qanchalik harakat qilmasin, unga berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi, bunga sabab esa uning xonlikka yaqindagina hujum qilgan rus elchisini o'ziga hamroh qilgani va qullarni ozod qilish uchun xonning katta miqdorda to'lov talab qilgani bo'ldi. U shu bilan uch oylik faoliyatini yakunlab Eronqa qaytib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alixon G'afur. Xorazm safari kundaligi. Toshkent. "Fan". 2005.
2. Shuhrat Ergashev. Jahon tarixi. Toshkent. "O'zbekiston". 2015.

TARIX**TARIX FANI O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGI
VA UNI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR**

**Dilfuza
ATAYEVA,**

**Urganch Innovasion
universiteti dotsenti.
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori**

UO'K 94:332

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fani o'qituvchisining kasbiy faoliyati samaradorligini rivojlantrish omillari yoritib berilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются факторы, способствующие развитию профессиональной эффективности учителя истории.

Annotation: This article highlights the factors that contribute to the development of the professional effectiveness of a history teacher.

Kalit so'zlar: kompetentnlik, o'qituvchi professionalizmi, kreativlik, kasbiy mahorat, o'zaro faollik, pedagogik nazariya, pedagogik texnologiya.

Ключевые слова: компетентность, профессионализм учителя, креативность, профессиональное мастерство, совместная деятельность, педагогическая теория, педагогическая технология.

Key words: competence, teacher professionalism, creativity, professional skill, mutual activity, pedagogical theory, pedagogical technology.

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. O'qituvchilik sharaflı, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'ziga yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi, o'qituvchining yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayotidagi amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir. Unda pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlik, boshqaruv qobiliyatini egallashni talab etadi. Xo'sh, pedagogik mahorat nima?

Pedagogik mahorat deganda, pedagogik jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyanuvchilarda keng dunyoqarash va qobiliyatlarni shakllantirish hamda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish tushuniladi.[1]

O'qituvchining kasbiy professionalizmi va kasb mahorati uning qobiliyati mezonlari hamda kasbiy fazilatlari, chuqur bilimga egaligi, pedagogik faoliyatida unga asoslanganligi bilan bog'liq. Ya'ni, ta'lim jarayonini rivojlantrish,

o‘zgaruvchan sharoitlarda ta’lim muassasasiga moslashish, innovatsion faoliyat – bular ta’lim jarayonining samarali kechishiga jiddiy ta’sir etuvchi omillardan biridir.

Har qanday faoliyatda professionalizm (professional – biror kasb bilan doimiy shug‘ullanadigan odam, professionalizm – o‘z kasbini mohirlik bilan bajarish) – standart kasbiy muammolarni yechishni bilishdir.

O‘qituvchi shaxsining pedagogik qobiliyati va kasbiy jihatdan shakllanishi muammolari bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlarda “professionalizm” tushunchasi “shaxsning kasb mahorati” sifatida o‘rganiladi. Uning tarkibiga pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida shakllangan muhim kasbiy sifatlar hamda shaxsiy kasbiy salohiyatni tashkil etgan pedagogik qobiliyat va mahorat, intellektual, motivatsion, kommunikativlik, kreativlik, ijodiy, shaxs dinamizmi, ya’ni emotsional-irodaviy (irodaviy ta’sir o‘tkazish va mantiqiy ishontira olish) qobiliyatlar kompleksi kiradi.

O‘qituvchining professionallik darajasi bir necha omillar bilan bevosita bog‘liqdir.

Birinchidan, pedagogik faoliyat jarayonida individual xususiyatlarning mavjudligi, ularni tuzatish va takomillashtirish; ikkinchidan, pedagogning ijtimoiy-madaniy muhitga singishi, ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-madaniy me’yorlari va kasbiy mahoratini namoyon etishi.

O‘qituvchining pedagogik professionalizmi va o‘z kasbiga “kompetentligi” (loyiqligi), binobarin, o‘qituvchilik faoliyatining samaradorligi ma’lum ko‘rsatkichlar, masalan, pedagogning nimani va qanday qilib o‘rgatishni qanchalik tushunishi,bilishi,uning bilim darajasi va pedagogik salohiyati, zamonaviy o‘qitish texnologiyasini qay darajada o‘zlashtirib olgani, kasbiy pedagogik mahorati, ta’lim berish va tarbiyalash hamda shaxsni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarni qanchalik hal eta olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Mahoratli o‘qituvchi hamisha ilg‘or tajriba sohibi bo‘la oladi. Shuning uchun “Pedagogik texnologiya” tushunchasi tarkibiga “yangi”, “ilg‘or”, “novatorlik”, “ijodkorlik”, “kasb tafakkuri” kabi tushunchalar singdiriladi [2].

“O‘qituvchi, – deydi Al-Farobiy, – aql-farosatga, chiroli nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur”. U o‘z fikrini davom ettirib, «O‘qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o‘xshaydi, shu sababli o‘qituvchi eshitgan va ko‘rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroli nutqqa ega bo‘lishi, yoshlarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalab berishni bilmog‘i lozim. Shu bilan birga, o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lmog‘i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi», deb ta’kidlaydi.

Nasriddin Tusiy o‘zining “O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida” nomli asarida: “O‘qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo‘lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalanadigan bo‘lishi lozim. O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchining o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin”, deydi.

Demak, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi pedagogik mahoratdan oqilona foydalanishi, boshqarish mexanizmlaridan foydalanishi zarur [3].

O‘qituvchining kasbiy pedagogik professionalizmi - pedagogik mahorati va o‘z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta’minlovchi o‘qituvchi-pedagog shaxs xususiyatlarining yig‘indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o‘qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo‘naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatları va pedagogik texnikasi (o‘z-o‘zini boshqara olish ko‘nikmalari va tinglovchilar bilan uzaro hamkorlik qila olish malakasi) kiradi. Bu pedagogik mahorat tizimidagi o‘zini tashqi ta’sirlarsiz rivojlantira olish xususiyatiga ega to‘rtta o‘zaro bogliq jihatlardir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘qituvchi professionalizmi - bu shaxs va faoliyat subyektining murakkab, ko‘p qirrali integral xususiyatlari majmuasi bo‘lib, uning tuzilmasi quyidagilardan iborat: a) o‘qituvchi professionalizmini tashkil etuvchi yaxlit komponentlar; b) o‘qituvchi faoliyati va shaxsiga qo‘yilgan me’yoriy talablar bilan belgilangan umumiyligi yoki tipik xususiyatlar (me’yoriy professionalizm); v) o‘qituvchi subyekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo‘luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlar. Pedagogik professionalizmning asosiy tarkibiy qismlari sifatida “kasbiy mahorat”, “pedagogik faoliyat va muloqotning individual uslubi”, “pedagogik ijodkorlik”, “shaxsiy kasbiy salohiyat”ni belgilash mumkin [4].

Bular “Mahorat - Uslub – Salohiyat –Mohirlik (texnika) - Ijod –Artistizm” formulasida o‘z aksini topgan yaxlit tizimni tashkil etadi va pedagogik professionalizmning ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

O‘qituvchi professionalizmi – bu tinglovchilar bilan hamkorlik va do‘stona munosabatlar jarayonida namoyon bo‘ladigan “ta’lim va tarbiya berish san’ati, pedagogik mahorat, pedagogik texnika va erkin ijod”dir.

Yuqorida keltirilgan fikrlar shu kunda o‘qituvchidan mohirlik, ya’ni texnikani – pedagogik texnikaning assosiy komponentlarini bilish, uning usullarini egallash va ularni o‘z faoliyatida qo‘llay olishni talab etadi.

Pedagogik texnikaga A.S Makarenko quyidagicha ta’rif beradi: “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin”.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma.-T.. “Sano-standart”, 2015,-120 b.
2. Савельева С.С. Педагогические условия формирования профессиональной компетентности учителя в образовательный процессе вуза: Монография.- Воскресенск, 2012.-218 с.
3. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari.-T.: “Fan va texnologiyalar”, 2014, 60 b.
4. Muslimov va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma.-T.: “Sano-standart””, 2015. -208 b.

FILOLOGIYA

RUMIY QALBIDAGI OFTOB



**Rustam
JABBOROV,**

O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

UO‘K 575.23

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning hayoti va faoliyati hamda adabiy merosi tadqiq qilinadi.

Аннотация: В статье рассматривается жизнь и творчество Джалалуддина Руми, а также его литературное наследие.

Annotation: This article examines the life and work of Jalaluddin Rumi, as well as his literary legacy.

Kalit so‘zlar: Balx, Xorazm, Damashq, Bag‘dod, Afg‘oniston, Turkiya, Shayx, fiqh.

Ключевые слова: Балх, Хорезм, Дамаск, Багдад, Афганистан, Турция, Шейх, фикх.

Key words: Balkh, Khorezm, Damascus, Baghdad, Afghanistan, Turkey, Sheikh, fiqh.


Mavlono Rumiy yashab o‘tgan davrdan beri necha asrlar o‘tsa-da, uning shaxsi, qarashlari, qaysi xalqqa mansubligi borasidagi bahs-munozaralar hamon davom etmoqda. Shunisi aniqki, Rumiy butun bashariyat farzandidir. Uning umrboqiy asarlari zamon va makon tanlamaydi, sarhadlarni tan olmaydi. Zero, uning o‘lmas fikrlari o‘z davrida G‘arb falsafasining yetuk namoyandalarini ham hayratda qoldirgan, Rumiy asarlari dunyo fozilu shoirlari uchun mislsiz zavq-shavq manbai bo‘lib xizmat qilgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, “1207-yilda u hozirgi Afg‘oniston hududidagi Balk shahrida tavallud topgan bo‘lib, otasi Bahouddin Valad o‘z zamonasining yetuk donishmandi, fiqh va tasavvufning zukko namoyandalaridan edi. U ona tomonidan Xorazmshohlar avlodiga borib taqaladi. Shu bois, Bahouddin Valadni o‘sha davrning buyuk hukmdori Muhammad Xorazmshoh o‘z saroyiga taklif etadi. Lekin bu taklifni alloma rad etadi va mакtabdorlik, mudarrislik bilan mashg‘ul bo‘ladi” (1).

Xorazmshohning ra'yini qaytarish yaxshi oqibatlarga olib kelmasligi avvaldan ma’lum edi. Shundan so‘ng Bahouddin Valad Balxda muqim qolishni ma’qul topmaydi. Buning ustiga aynu shu damlarda mo‘g‘ullar sharq tomonidan mo‘ru malaxdek yopirilib kelmoqda edilar. Bu paytga qadar Sharqning juda ko‘p shaharlari Chingizzon qo‘sishlari tarafidan kunpayakun qilinib, minglab begunoh insonlar qoni daryo bo‘lib oqardi. Shu bois, yosh Bahouddin Valad o‘z oilasini olib, haj ziyorati bahonasida Rumga, hozirgi Turkiya hududiga ko‘chib ketishadi.

Yo‘lda ularga buyuk mutafakkir Fariduddin Attor duch keladi. Bu paytda Jahloliddin o‘n-o‘n ikki yoshlar chamasidagi o‘smir edi. Ulug‘ mutafakkir yosh Jaloliddinni ko‘ra solib, uning buyuk inson bo‘lib yetishishini karomat qilgan va unga oq fotiha bergen.

“1220-yilda Rumiy o‘z oilasi bilan Kichik Osiyodagi Ko‘nyo shahriga keladi. Avval shu yerda, keyin Halab, Damashq va Bag‘doddagi madrasalarda tahsil oladi va talabalarga saboq beradi” (2).



Rumiyning kamolot cho‘qqisini zabit etishida o‘z zamonasining yetuk allomalaridan biri, Ozarboyjonning buyuk mutafakkirlari, valiyalaridan bo‘lmish shayx Shams Tabriziy bilan uchrashuvi juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu tarixiy voqeа milodiy 1244-yilning kech kuz oylarida Ko‘nyo shahrida yuz beradi. Taniqli rumiyshunos olim R. Fishning ta’biri bilan aytganda, “Bu bir oddiy kun edi. Bu kunda imperiyalarning taqdirini uzil-kesil hal eta oluvchi harbiy to‘qnashuvlar bo‘lmadi. Bu kun dunyonи titratgan jahongir taxt tepasiga chiqqani yo‘q. Bu kun hech bir olim olamshumul kashfiyat yaratgan ham emas. Ikki inson uchrashdi, xolos.

Biroq, bu uchrashuv hech bir tarixiy inqilobdan kam emasdi”.

Bu ulug‘ mutafakkirning to‘liq ismi Mavlono Shamsiddin Muhammad ibn Ali ibn Malikdod Tabriziydir. Navoiy «Nasoymul-muhabbat» asarida ham Shams Tabriziy haqida alohida to‘xtalib o‘tgan. Bu asarda yozilishicha, Shams Tabriziy yoshligidan zohiriya va botiniy ilmlarni puxta egallagan. O‘z davrining ulamolardian bo‘lgan shayx Abu Bakr Sallabof Tabriziy, Bobo Kamol Shinosisy singari salaflardan saboq olgan.


Hazrat Navoiy Tabriziyning karomatlari haqida ko‘pgina qiziqarli ma’lumotlarni keltiradi. Rumiy va Tabriziy uchrashuvini quyidagi rivoyat bilan bog‘laydi: Mavlono Rumiy o‘z Qo‘nyoda bir hovuz bo‘yida juda ko‘p kitoblarni

mutolaa qilib o‘tirganida, Shams Tabriziy bir darvesh qiyofasida uning yoniga keladi va «bu qanday kitoblar edi?» deb so‘raydi. Shunda mavlono «bu qiyulu qoldir, bu bilan sening nima ishing bor» deya tanbeh beradi. Shunda Shams Tabriziy bu kitoblarning hammasini olib hovuzga tashlaydi. Jaloliddin Rumiy g‘azab ila qo‘zg‘olib, «ey darvesh, nima qilib qo‘yding, bu kitoblarning ko‘pchiligi otamdan menga yodgor bo‘lib qolgan edi, endi ularni qanday topaman» deya faryod soladi. Shunda Shams Tabriziy hamma kitoblarni qupuqruq holatda suvdan chiqarib beradi. Shunda Rumiy hayratlanib, «Yo Allohning suyukli bandasi, bu ne sinoatdur» deya so‘raydi. Shunda Shams Tabriziy «Buni zavqi hol derlar, bu bilan sening ne ishing bor» deya javob qaytaradi. Shundan so‘ng bu ikki buyuk zot o‘rtasida unsiyat yuzaga keladi.

Chindan ham Shams Tabriziy va Jaloliddin Rumiy o‘rtasidagi samimiy do‘slik, ustoz va shogirdlik munosabatlari ulug‘ mutafakkir hayoti va ijodida juda katta burilish yasadi. U Tabriziydan tasavvuf, diniy va dunyoviy ilmlarni puxta o‘rgandi. Ma’naviy jihatdan yuksak kamolot cho‘qqisini zabit eta oldi.

“Attor bilan uchrashuv menga ruh bag‘ishlagan bo‘lsa, Shamsi Tabriziy menga tilsimlar kalitini tutqazdi”, degan edi Jaloliddin Rumiy.

Rumiy o‘z ustoziga shu qadar ixlos qo‘ygan ediki, hatto o‘zi bitgan g‘azallarida ham uning taxallusini qo‘llay boshlaydi. Shu bois Rumiyning she’riy to‘plami «Devoni Shams Tabriziy» nomi bilan shuhurat qozongan.



Ustoz va shogird orasidagi munosabatlar Rumiyning boshqa salaflariga uncha yoqmasdi. Hatto bu yaqinlikni boshqacha talqin qiluvchilar ham paydo bo‘ldi. Bu ikki do‘sni bir-biridan uzoqlatishga harakat qila boshlaydilar. Kunlarning birida Shams Tabriziy ayrim g‘alamis kimsalarning bosimi ostida Ko‘nyoni tark etadi.

Lekin bu ayriliq Rumiy uchun aks ta’sir ko‘rsatadi. U do‘sining, ustozining firoqida o‘zini qo‘yarga joy topa olmay qoladi. Endi u tashqi olamdan butunlay aloqani uzadi, xilvatnishin bo‘lib qoladi, hijron dard-alamlari uning jo‘shqin va mahzun she’rlariga ko‘chadi. U yuzlab g‘azallarni Shams Tabriziyga bag‘ishlaydi.

Bu paytda Shams Tabriziy Damashqda edi. Nihoyat u haqidagi xat-xabarlar Rumiyning ham qulog‘iga yetib keladi. U yaqinlaridan qanday qilib bo‘lmasin, Shamsni ortga qaytarib kelishni o‘tinib so‘raydi. Shunda Rumiyning o‘g‘li Sulton Valadni Damashqqa jo‘natishadi. Rumiy undan bitta she’r ham berib yuboradi:

Bireved, ey harifon, bikashed yori moro,
Ba man ovared holo, sanami gurezporo.
Agar u ba va’da go‘yad ki, dame digar biyoed,

Maxo‘red makri o‘ro, bofirebad o‘ shumoro.
 Bu baytlarning turkiy tarjimasi taxminan mana bunday bo‘ladi:
 Boring oshinolar, oldimga olib keling nigorim,
 Menga yetkuring kechikmay, o‘sha sho‘xi shahsuvorim.
 Agar ulki, va’da aylab, desa boshqa kun kelarsiz,
 Ishonib o‘tirmang unga, siza makr qilsa yorim.

Bu she’r Damashqqa Shams Tabriziyning qo‘liga yetib keladi. Uni o‘qishi hamono Shams Tabriziy Ko‘nyo sari yo‘lga tushadi. Ko‘nyoda uni katta izzat-hurmat bilan qarshi olishadi. Uning sharafiga shohona ziyofatlar beriladi. Rumiynig esa, quvonchi ichiga sig‘masdi. Uning qadrdon do‘stiga muhabbat yuz chandon ortgandi. U endi umrining har lahzasini ustozni bilan yonma-yon kechirishga hozir edi.

“Shams Tabriziy Rumiyning opasi Kimyoga uylangan edi. Biroq, ikki zotning dushmanlari yana g‘imirlab qolishadi. Shamsni ko‘cha-ko‘yda ko‘rib qolishsa, uni qattiq tahqir qila boshlaydilar. Shunga u yana Ko‘nyoni tark etishga majbur bo‘ladi. Shu-shu Shams Tabriziy izsiz yo‘qoladi, uning keyingi taqdiri haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Faqat, uning Damashq yo‘lida Rumiyning badhoh muridlari tomonidan o‘ldirilgan bo‘lishi mumkinligi haqida taxminlar bor. Ba’zi manbalarga ko‘ra, Shams Tabriziy hijriy 645-yilda (milodiy 1248-yilda) qatl etilgan” (3).

Abdurahmon Jomiy «Nafahotul-uns» va Alisher Navoiyning «Nasoyimul-muhabbat» asarlarida yozilishicha, Shams Tabriziyning qotillari alal-oqibat Yaratganning qattiq qahr-g‘azabiga uchrab, fojeona o‘lim topadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Iqbol Humoyun, “Rumiy”, “Hayot” gazetasi, 2006-yil, № 4.
2. R.Jabborov, Rumiy mo‘jizasi”, “Rustam Iqbol” telegram kanali, 2022-yil, avgust.
3. Iqbol Humoyun, “Rumiy”, “Hayot” gazetasi, 2006-yil, № 4.

FILOLOGIYA

TURDI FAROG‘IY VA U YASHAGAN DAVRDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR



**Sayyora
SAMANDAROVA,
Filologiya fanlari
nomzodi, dotsent**



**Umid
BEKMUHAMMAD,
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori**

UO‘K 94:332

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turdi Farog‘iyning hayoti va u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tadqiq qilinadi. Shuningdek, uning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni, adabiy merosi ham tahlil etiladi.

Аннотация: В статье рассматривается жизнь Турди Фароги и общественно-политические процессы того времени. Также проанализировано его место в узбекской литературе и его литературное наследие.

Annotation: This article examines the life of Turdi Faroghi and the socio-political processes of the time he lived. It also analyzes his place in Uzbek literature and his literary legacy.

Kalit so‘zlar: Buxoro, bek, xon, amir, urug‘lar, vaziyat, she’riyat, adabiy meros.

Ключевые слова: Бухара, бек, хан, эмир, роды, ситуация, поэзия, литературное наследие.

Key words: Bukhara, bek, khan, emir, clans, situation, poetry, literary heritage.

O‘zbek mumtoz adabiyotida Turdi Farog‘iydeki isyonkor shoirning o‘z o‘rnibor va asrlar o‘tibdiki, uning hayoti, faoliyati, ayniqsa adabiy merosiga bo‘lgan qiziqish nafaqat respublikamizda, balki xorijda ham kattadir.

Avvalo adabiyot muxlislariga Turdi Farog‘iy nomi tilga olinishi bilan, uning “tor ko‘ngullik beklar” haqidagi she’ri yodga tushadi. Assuski, o‘z davri jabrini chekib yashagan isyonkor shoirning hayoti to‘g‘risida ma’lumotlar to‘liq emas.

“Uning saqlanib qolgan asarlaridan, undagi hukmdorlar, hokimlar to‘g‘risida bitilgan ijod namunalaridan kelib chiqib, u ashtarxoniylardan Abdulazizzon (1645-1680) va Subhonqulixon (1680-1702) hukmronlik qilgan yillarda yashab, ijod etgan deyish mumkin.

Ma’lumki, bu davr urug‘-aymoqchilik ijtimoiy muvozanatni buzib, siyosiy bo‘hron kuchaygan, viloyat, shahar hokimlari lavozimi ko‘pkariga aylangan, beklar o‘rtasida murosadan ko‘ra, muxoliflik avj olgan XX asrning oxiri, XVIII asrning boshlari edi. Xonlikdagi bu vaziyatdan tashvishga tushgan Turdibek

nizolarni olampanoh va a'yonlariga uqtirib hal qilolmagach, saroydan ketishni afzal biladi" (1)...

Mirzo Badi' Devonning "Majma' al-arkam" asaridagi ma'lumotga ko'ra, Buxoro amirligidagi qabul marosimlari, rasmiy tantanalarda har bir urug' vakillari hukmdorning o'ng va chap tarafidan joy olgan.

Ashtarxoniyalar sulolasining oltinchi vakili bo'lgan Subhonqulixon (1681-1702) davrida yuz urug'ining saroydagi boshliqlaridan biri Turdibek edi. U ham xuddi Subhonqulixon kabi shoir bo'lib, Turdi Farog'iy taxallusi bilan ash'orlar bitar, yozganlari o'sha vaqtda odat tusini olgan maishiy, muhabbat mavzusidan ko'ra, ijtimoiy ahamiyat kasb etardi.

Zero, Turdi saroyda faoliyat ko'rsatgan davr xonliklarda ichki nizolar avj olgan, hukmdorlarning maishiy buzuqlik va bir-birlariga yovlashib, bosqinchiliklari yuqori darajaga chiqqan suronli yillar edi.

Ayniqsa, 92 o'zbek urug'ining har biri aymoqlarga bo'linganidek, urug' boshliqlari, saroydagi vakillarining mansab talashishi, hokimlik uchun kurashlari ham davlatning parchalanishiga olib kelayotgan, buning ustiga, goh Qo'qon, ba'zan Xiva xonlari, ayrim paytlarda esa Buxoro amirlari ularga qarshi tez-tez hujum qilib turar, bularning bari O'rta Osiyo taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatardi.

Eng fojialisi, urug' boshliqlari mansabga intilib, hatto, qizlariniyam haramga boshlab kelar, beklarning bu qiliqlari, maishiy tiyiqsizligi, or-nomusini yo'qotganligi o'sha urug'ning obro'sini to'kar, izzat-nafsiga tegardi.

Garchi Subhonqulixon shoir va tabib bo'lib, Buxoroda ilmiy-madaniy markazni yuksaltirib, ijodkorlarga, xususan, Turdiga yordam berishga intilda, Turdibek o'z shaxsiyati, ijodi qadrlanishidan ham ko'ra, urug'lar o'rtasidagi nizolarga, aymoqchilikka barham berishni istardi.

Turdi saroyda ortiqcha qololmasligini sezib,
Xon eshikinda bir kishi qolmadи
bir sohibi fan,
Bori bir necha sukum qaydi
mahzi kardan,
Kelmas qo'llaridin ish,
hamma oshxo'r, garzan...

deya she'r bitib, o'z urug'i orasiga ketdi.

Shuningdek, Turdi Farog'iy urug' boshliqlari - beklarga ham murojaat qilib, ularni millat istiqboli, Vatan taraqqiyoti yo'lida hamjihatlikka chaqirdi:

Tor ko'ngullik beklar, man-man
demang, kenglik qiling,
To'qson ikki bovli o'zbak yurtidir,
tenglik qiling.
Birni qipchoqu, xitoyu, birni yuz,
nayman demang,
Qirqu yuz, ming son bo'lub bir jon
oyinlik qiling.

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir
to‘ng‘a kirib,
Bir o‘ngurlik, bir tirizilik, bir yaqo,
yenglik qiling.
Kim qo‘yubdur, uhdayi o‘z mulkungizdin
chiqmayin,
Ikki, uch, to‘rt da’vosin etmakni
ko‘tahlik qiling.
Mardlar maydon chekib, rangin ko‘torib zaxmlar,
Sizga yo‘q ul javharu yuzga upo-
englik qiling.
Turdi, shuningdek, o‘z davridagi ma’naviy buzuqlik, poraxo‘rlik,
ochko‘zlik illatlarini ham qalamga oladi:
Yedingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,
G‘asb ila molni olib, qo‘ymadingizlar bitini,
Qamchilar dog‘i solib bo‘yin, qanotib betini
Bo‘lmadi kam bu raiyat boshidin hech tayoq...

Yohud:

Barchasi poravu rishvag‘a o‘lub bad omuz,
Xalq qo‘lig‘a tama’ birla tikib doim ko‘z...

Yoki:

Ajdahodek porag‘a turmish ochib og‘zining,
Yurtdin yo‘q xabari , barchasining fikri tomoq...

Saroyni tark etgan Turdi o‘sha davrda boshqa beklarga nisbatan keng fe’lli, adolatliroq bo‘lgan Muhammad Rahimbiy huzuriga borishni afzal ko‘rdi.Yuz urug‘idan bo‘lgan, O‘ratepa va Xo‘jand hokimi bo‘lmish Rahimbiy shoir Turdini yaxshi kutib oladi.



“O‘sha davrda xon qo‘shinidan tashqari har bir bekning ham navkarlari bo‘lib, Rahimbiy Xiva xonligi bilan 1686-yilda bo‘lgan urushda navkarlari yordamida qahramonlik ko‘rsatib, Buxoro amirligining qo‘li baland kelishiga sababchi bo‘lgan edi.Vaholanki, 1686-90-yillarda qatag‘on urug‘i beklaridan O‘z Temurbiy, yobu urug‘i beklaridan Tog‘ma, yuz urug‘i beklaridan Fozilbiy turli sabablar bilan Buxoro xoni Subhonquliga qarshi isyon ko‘tarib, ichki parokandalikni keltirib chiqardilar.Xiva xonidan madad olib, Subhonqulini

taxtdan tushirishga intildilar.Uchala isyonchibeklar hatto Rahimbiyni ham Subhonquliga gij-gijlab, o‘zlariga qo‘shilishga da’vat qildilar. Biroq Rahimbiy isyonga qo‘shilish taklifini rad etdi” (2).



Shunday vaziyatda, oldiniga Turdi ham beklarning birlashib, Buxoroga yurishini ma’qul ko‘radi.Hatto, Rahimbiyni bunga undab, she’r ham yozadi.Shoir beklarning birlashishi Subhonqulixon (Turdi Subhonqulixon to‘g‘risida hajviya ham yozgan—S.S, U.B.) saroyidagi amaldorlar zulmiga chek qo‘yib, ularning tanobini tortib qo‘yishi mumkin, deb o‘ylagan edi.Biroq Turdi urush va ichki nizolar parokandalikka, tanazzulga sababchi bo‘lishini tushunib yetdi va amaldorlarning isyon qilgani yohud hukmdor almashgani bilan ahvol yaxshilanmasligini anglatdi.

Shundan keyin u siyosatga aralashmay, Rahimbiy yonida, keyin Oqbo‘tabiy huzurida tinchgina xo‘jalik ishlari, ijod bilan shug‘ullanib,XVIII asrning boshlarida vafot etdi.Agar Turdi ham bek bo‘lgani uchun siyosiy “ko‘pkari”ga qo‘silib, biror lavozimni egallaganida, boshqa beklarga o‘xshab nomi tarixda qolmasdi.Aynan “ko‘pkari”ga qo‘silmagani uchun ham Turdi Farog‘iy nomi necha asrlarki barhayot.Uning 434 misradan iborat 18 she’r, 5 muxammas, 12 g‘azal va 1 fardni o‘z ichiga olgan adabiy merosi esa uning nomini asrlardan asrlarga olib o‘tgusidir.



Turdi to‘g‘risida adabiyot ilmida ilk marotaba ma’lumot bergen Abdulhamid Majidiy (1902-1938) edi. U 1924-yilda “Zarafshon” gazetasining 27-noyabrdagi sonida “Tarixiy adabiy parchalar”, 1925-yili esa “Maorif va o‘qituvchi” jurnalining 9-10-sonlarida “O‘zbek shoiri Turdi” nomli maqolalarini chop ettirgan edi. Shundan keyingina Turdi nomi, uning she’riyati adabiyot ixlosmandlari e’tiborini tortdi.

1928-yilda professor Fitrat “Maorif va o‘qituvchi” jurnalining 1-sonida “O‘zbek shoiri Turdi” sarlavahali maqolasini chop ettirib, isyonkor shoir she’riyatini, uning hayotini kengroq yoritishga harakat qildi.Maqlolada Fitrat Majidiyning Turdi hayoti va ijodi haqida maqola chop ettirib

katta ish qilganligini ta'kidlash barobarida, ayrim e'tirozli o'rirlarga o'z fikrini ham bildirib o'tadi. Fitrat maqolasida "Turdi she'rlarida tilga olingan davrdagi vaziyatga, xonlarning bedodliklariga, taxt talashuvlariga, xalq ahvolining esa yomonlashuviga to'xtalib o'tadi. Fitrat ayniqsa, urug'lar o'rtasidagi nizolarning millat fojiasiga, davlat tanazzuliga olib kelganligini tahlil qilishga e'tibor qaratadi" (3). Turdi she'rlarida ana shu davr o'z ifodasini topganligi Fitrat maqolasida ta'kidlab o'tiladi.

"Bu davrning ma'lum shoirlari bo'lg'an Mashrab, Huvaydo, So'fi Olloyor va Turdilarni tekshirganda tilda soddaliq, nazmda ohangsizlik, san'atda zaiflik kabi hollarni oz-ko'b hammalarida ko'rish mumkin. Lekin Turdining ularning hammasidan yaxshiroq yozg'anini e'tirof qilishimiz lozim keladir. Turdi yolg'iz so'zlarni emas, o'xshatishlarni, majozlarni ham soddalashtiradi. Uning she'rlarida "davlat bahridan uzoq gardan shikasta mundm", "yuvg'an qozon ostida qolq'an yuvindi" kabi saroy doiralarig'a kira olmayturg'on, lekin omma tomonidan yaxshi qabul qilishg'a iste'dodli bo'lg'an o'xshatmalar, ma'juzlar ko'bdir", deya Turdi she'riyati to'g'risida fikr yuritadi Fitrat.

Xullas, Majidiy, Fitratlar jonbozligi natijasidagina Turdi Farog'iydek isyonkor shoir ijodi adabiyot ixlosmandlari e'tiborini tortdi. Ammo shu bilangina uning hayoti va ijodi to'liq o'rganildi, deyish qiyin. Turdi Farog'iy yashagan davr va uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini tadqiq qilish bo'yicha tarixchilar tadqiqotlar olib borishi dolzarb vazifalardan biridir. Shuningdek, Turdi she'riyatini tadqiq, tahlil etish va adabiy merosini bugungi kunda qayta nashr etish bo'yicha adabiyotshunoslar ham ilmiy tadqiqotlar olib borishi zarur. Umuman olganda, o'zbek ilm-fani Turdi adabiy merosi, hayoti, faoliyati bo'yicha o'zining keng fundamental tadqiqotchilarini kutmoqda, deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. U.Bekmuhammad "Saroyni tark etgan shoir", "Darakchi" gazetasi, 2004-yil, №3.
2. Abdulhamid Majidiy, "Tarixiy adabiy parchalar", "Zarafshon" gazetasi, 1924-yil, 27-noyabr.
3. A.Fitrat, "O'zbek shoiri Turdi", "Maorif va o'qituvchi" jurnali, 1928-yil, № 1.

FILOLOGIYA

MILLIY VA UMUMBASHARIY XARAKTER TARIXIYLIGI (Omon Matjon ijodi misolida)



O'g'iljon PANAYEVA,
Urganch Innovatsion Universiteti o'zbek va xorijiy tillar kafedrasи o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi.

УО'К 98.3

Annotatsiya: Maqolada zabardast shoir Omon Matjon asarlari misolida milliy va umumbashariy xarakter tarixiyligi ochib berilgan.

Аннотация: В статье раскрывается историчность национального и общечеловеческого характера на примере творчества великого поэта Амона Матжона.

Annotation: The article fully reveals the historicity of the national and universal character using the example of the works of the great poet Amon Matjon.

Kalit so'zlar: milliy xarakter, tarix, realist, islom ma'nnaviyati, dunyoviy falsafa, sub'yektiv talqin, umuminsoniy falsafa, alloma.

Ключевые слова: национальный характер, история, реалист, исламская духовность, светская философия, субъективная интерпретация, универсальная философия, учёный.

Key words: national character, history, realist, Islamic spirituality, secular philosophy, subjective interpretation, universal philosophy, scholar.

Omon Matjon estetik ideali va dunyoqarashida, asosan milliy ruh yetakchilik qiladi. Aniqroq aytganda, shoirning estetik ideali, bevosita uning millatparvarligi o'z xalqiga bo'lgan muhabbatidan kelib chiqadi. Ushbu xususiyat O.Matjon tarixiy asarlari markazidan qizil ip bo'lib o'tgan.

Rus adabiyotshunosi L.G.Yudkevich fikricha: "Adabiyotda milliy xarakter yaratish, shubhasiz, muallif dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi bilan bog'liq. O'tmishda san'atkorlar milliy xarakter chizgilarini tarixda uchraydigan erksevar xalqning idealiga aylangan kishilarda ko'rghanlar..^[1]"

Milliy xarakter qahramon ichki dunyosi, fikrlash va o'z fikriy qarashlarini bayon etish tarzi kabi qator komponentlaridan tashkil topadi".

^[1] Юдкевич Л.Г. Проблема недействительного характера в литературе.-М: Высшая школа, 1970.-С.146-148.

Omon Matjon realist ijodkor sifatida o‘z ideallarini ifoda etish uchun bevosita tarixda yashab o‘tgan, o‘zbek xalqi uchun idealga aylangan, hatto dunyo miqyosida tan olingan ajdodlari shaxsiyati va faoliyatiga murojaat etadi. Real dalillarga suyanib, tarixiy xarakterlar yaratadi. Ularga milliy ruhni, millatning orzu-istiklarini singdiradi. U yaratgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Pahlavon Mahmud, Xoja Ahror Valiy obrazlarida milliy xarakterga xos xususiyatlar yetakchilik qiladi.

“Pahlavon Mahmud” dramatik dostonida Pahlavon Mahmud yashab, ijod etgan davr qiyofasi, undagi ziddiyatlar bevosita qahramon munosabati, talqini orqali yoritilgan. Pahlavon Mahmud oshiq va shoir sifatida tasvir etilgan ushbu asarda bosh qahramon faoliyatining barcha qirralari milliy xarakter xususiyatlari bilan yo‘g‘rilganini kuzatamiz. Asardagi boshqa personajlar-Ayoz, Sotim, Taka ota, Bibixonim, po‘stindo‘zlar, Durjon, Bangi devonalarda ham ayni xususiyatlarni kuzatish mumkin.

Pahlavon Mahmud asarda eng avvalo vatanparvar, millatparvar sifatida ko‘zga tashlanadi. Undagi bemisl kuch-qudrat, jo‘mardlik fazilatlari el-yurt manfaatiga qaratilgan. Pahlavon Mahmud Hindistonda o‘z millatdoshi Salimning ig‘vo-bo‘htonlari bilan Hind podshohi Roy tomonidan bandi etilib, o‘limga hukm qilinadi. Shu o‘rinda, Pahlavon Mahmud haqiqat oldida qanchalik kamtarin-u hokisor bo‘lsa,adolatsizlik qarshisida shunchalik isyonkor va murosasiz ekanini ko‘rsatadi. 40-50 nafar navkar tomonidan zo‘rg‘a zanjirband etilgan Pahlavon Mahmud ushbu holatida ham ag‘yorning nohaq zulmiga qarshi shunday javob beradi:

“Oqil ahli hisga giriftor bo‘lmas,
Hasad qilgan bilan tillo xor bo‘lmas.
Nomard it kabidir, mard-buyuk daryo.
Daryo it damidan hech murdor bo‘lmas”.

Hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, keltirilgan parchaning har bir misrasida, har bir so‘zida o‘zbekona ruh aks etib turibdi. Jumladan, “Oqil ahli hisga giriftor bo‘lmas ...”, ya’ni og‘ir, g‘ayrioddiy vaziyatlarda ham aql bilan ish qil, deydi shoir. “Hasad qilgan bilan tillo xor bo‘lmas ...”. Bu o‘rinda Pahlavon Mahmudning so‘fiylik, avliyolik sifati ko‘zga tashlanadi. Xalqning “oltin zanglamas” degan maqolini o‘ziga bir taskin sifatida ishlatyapti. Ushbu misrada hasad yoki hasadchi haqir, jirkanch bir narsaga, qahramon esa har qanday vaziyatda o‘zining asl sifatini yo‘qotmaydigan tillaga o‘xshatilmoqda. “Nomard it kabidir, mard buyuk daryo. Daryo it damidan hech murdor bo‘lmas”. Ushbu ikki misrada o‘zbek xalqining azaliy va abadiy falsafasi tajassum topgan desak, sira yanglishmaymiz. “Mard” so‘zi forscha bo‘lib, “yigit”, “erkak” ma’nolarini bildiradi. She’riy parchada nomard itga, mard ulkan daryoga tashbeh qilinyapti. Xalqimizning “it tekkan bilan daryo harom bo‘lmas” degan maqoliga urg‘u berilyapti.

Asar voqealari davomida haq joyida qaror topadi. Pahlavonning tuhmatga uchragani ayon bo‘ladi. Podsho Roy undan qanday mukofot istashini so‘raganida Pahlavon Mahmud moddiy boyliklarni rad etadi. Podsho qistayvergach, tilagini quyidagicha bayon etadi:

“Men Hind bo‘ylab,
Falakning gardishin chirpirak aylab,
Beshumor yurguvchi ko‘p yurtdosh ko‘rdim,
Ko‘plarin jigarxon-ko‘zi yosh ko‘rdim.
Agar yurtin mehri bo‘lsa dilida,
Ezgu umidlarin ko‘rsa elida,
Yurt o‘tida agar bo‘lsalar tutun,
Ularni o‘zimla ketturay bugun”.

Bu o‘rinda Pahlavon Mahmudning jo‘mardligi, yurtsevarligi, o‘z millatdoshlari manfaati uchun har narsaga tayyorligi yanada bo‘rtib ko‘rinadi.

Omon Matjon ijodidagi realizm shunda ko‘rinadiki, u faqat o‘z millati xarakteriga xos bo‘lgan ijobiyligi jihatlarnigina tasvir etmaydi. Salim, Ayoz, Durbek obrazlari misolida milliy xarakterdagi ziddiyatlarni ham xolis tasvirlaydi. Ziddiyatlar prizmasida millat asl farzandlarining, umummillatning fojiasini ko‘radi. O‘quvchini erk, ozodlik, o‘zni anglashga targ‘ib etadi.

Asardagi Bibixonim obrazida o‘zbek qizlarining eng inja fazilatlari ko‘zga tashlanadi. U o‘ta latofatli, oqila, muhabbatga sodiq. Uning Pahlavon Mahmudga bo‘lgan sevgisi tom ma’noda sharqona. Bibixonim o‘z oshig‘ining faqat vujudi, jisminigina sevmaydi. U ko‘proq “polvonlar piri”ning ruhoniyatiga, qalbiga oshiqdir. Pahlavon Mahmudni kelajakda o‘zi uchun ham er, ham pir sifatida ko‘radi. Bibixonim tilidan aytigan ushbu so‘zlar fikrimizga yorqin dalil bo‘ladi:

Yo‘q-yo‘q ko‘rsatmasin! Haq bo‘lsin garov!

Sizdagi bu qudrat, bu ruh, bu olov

Aslo tunganmasdir Jayxunga monand,

Barho muhabbatdir gardunga monand!

Bul nurdan, bul ruhdan yetsa gar manga

Muddaoim faqat duodir anga.

Bibixonim nutqi mazmunidan o‘zbek xalqining ma’naviyati islam ma’naviyati bilan chambarchas bog‘liq ekani ayonlashadi. U vujudning o‘tkinchiligi, ruhning abadiyligi haqidagi islamiy tasavvuf falsafasiga murojaat etar ekan, ruhoniy muhabbat abadiyligi haqidagi sharq falsafasini ifodalaydi.

Ammo aytish joizki, asarda bunday mazmunni ifodalaydigan misralar unchalik ko‘p emas. Asarda ko‘proq dunyoviy falsafa yetakchilik qilgan,

qahramonlar moddiy dunyo tashvishlari bilan cheklanib qolishgan. Hatto asar qahramoni Pahlavon Mahmud ham, asosan yurt, millatning dunyoviy tashvishlari haqida fikr yuritishdan nariga o‘tolmaydi. Holbuki, Pahlavon Mahmud faoliyati, dunyoqarashini islom aqidalarisiz tasavvur etish qiyin. Ochig‘ini aytganda, asardagi Pahlavon Mahmud obrazi tasavvuf ta’limotidan, uning maxsus yo‘nalishi sanalmish javonmardlik, futuvvat, axiylik falsafasidan anchayin yiroq tasvir etiladi. Biz asardagi bunday mulohazali jihatlarni asar yaratilgan zamon bilan izohlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Omon Matjon tarixiy mavzuga murojaat etganida yurt hajrida yongan buyuk o‘tmishdoshlari qismatiga alohida e’tibor qaratadi. Hijron jafolarini tasvirlash orqali millatdoshlarini Vatanni sevishga targ‘ib etadi. Uning “Bobur” deb nomlangan she’rida buyuk bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur xarakteriga xos shunday qirralar yoritilgan:

U kuylaydi tuprog‘ingni sening, o, o ‘lka,
Uning yolg‘iz hamrohidir quvg‘in va alam.
Keta turib olgan siqim tuprog‘i ichra,
Bor edi qon va bor edi bir kichik qalam .
Shunday ketdi ul sarkarda yurtdan beshuhrat,
Faqat qalam ola ketdi va qalbda nido,
Olislarda topsa hamki ganji beedad,
Ona Vatan ko‘yida u bo‘ldi bir gado.

She’riy parchada shoh, shoир va musofir Boburning fojeasi aks etgan. Shoh va gado so‘zлари о‘rtasidagi zidlik bu o‘rinda umuminsoniy, umumfalsafiy mazmun bilan boyib, tom ma’noda milliy mazmun kasb etadi. Umumfalsafiy talqinda ikki shaxsni ifoda etuvchi ikki so‘z “Bobur” she’rida bir shaxsda mujassamlashadi. Buning markazida esa Vatan obrazi turadi. Vatan sarhadlarini o‘z hohishiga zid ravishda tark etayotgan Boburning “Keta turib” bir siqim tuproq olishida milliy xarakterning eng yorqin tasvirini kuzatamiz.

Shoирning shunday asarlari borki, tarixiy shaxslar tarixiy xarakter yaratishda vosita bo‘lib xizmat qiladilar. Muallifning sub’yekтив talqini, tarixga bo‘lgan munosabati umummilly xarakter bilan uyg‘unlashib ketadi. Shu nuqtai nazardan, rus olimasi N.Vorobyovaning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir: “Milliy xarakter ko‘p hollarda muallif g‘oyalarining kompleks tizilmasi sifatida ko‘zga tashlanadi”.



Ko‘rinadiki, Omon Matjon yaratgan tarixiy xarakterlar o‘tmishda yashagan tarixiy shaxslar, o‘tmish voqeligi, o‘tmishda gullab-yashnagan ma’naviy qadriyatlar asosida maydonga kelgan. O‘zbek millatiga xos xarakter qirralari O.Matjon yaratgan Pahlavon Mahmud, Bobur, Mashrab kabi obrazlarning to‘laqonli namoyon bo‘lishini ta’minlaydi, muallifning falsafaiy qarashlarini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Юдкеевич Л.Г. Проблема недействительного характера в литературе.-М: Высшая школа, 1970.
2. O.Matjon. Iymon yog‘dusi. –T: Adabiyot va san’at nashriyoti.
3. Воробьева Н.Н. Принцип историзма в изображения характера. – М: Наука
4. Mamajonov S. Uslub jilolari.-T: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
5. Buyuk siymolar, allomalar. –T: Xalq merosi, 1995.

FILOLOGIYA

RAUF PARFI SHE'RIYATIGA BIR NAZAR



**Go'zal
MATYOQUBOVA,**

**Filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori**

UO'K 821.10

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rauf Parfining she'riyati, undagi vatan va millat g'oyasi tahlil etiladi.

Аннотация: В статье анализируется поэзия Рауфа Парфи и представленная в ней идея родины и нации.

Annotation: This article analyzes Rauf Parfi's poetry and the idea of homeland and nation in it.

Kalit so'zlar: She'r, adabiyot, g'oya, vatan, millat, Milliy uyg'onish, erk.

Ключевые слова: Поэзия, литература, идея, родина, нация, Национальное пробуждение, свобода.

The keywords: Poetry, literature, idea, homeland, nation, National Awakening, freedom.

She'r – ruhning silkinishidir. Shu bois unda botiniy keskin burilishlar, uzilishlar, qaqshatqich urilishlar – hamma-hammasi aks etadi. She'r – poetik yolg'onning eng rost, eng mukammal shakli. Biz she'r o'qiyotganda uning izmiga tushamiz, lirik qahramonning dardu dunyosiga qorishib ketamiz. Undan bosh chiqarib tashqi olamga nazar tashlaganda esa, tamoman boshqa bir manzaraning guvohi bo'lamiz. Shunda shoirning botiniy va jug'rofiy mamlakati o'rtasida kontrast tafovutni ko'ramiz. Botiniy mamlakatda shoir o'zi hohlaganday o'yashi, tafakkur qilishi, yashashi mumkin, jug'rofiy mamlakatda esa yo'q. Chegaralar, qonunlar, ta'qilalar va ta'qiblar mavjud.

She'r yozguvchi va she'r o'qiguvchilar ko'pincha ikki olam orasida ikki odam bo'lib yashaymiz: she'rning ichida boshqa, she'rdan tashqarida tamoman boshqa bir odamga evrilamiz. Biroq bizning bu mulohazalarimiz Rauf Parfi shaxsiga tegishli emas. Chunki Rauf Parfining she'rda hayotdagidek va hayotda she'rdagidek yashab o'tganini tarixiy faktlar tasdiqlaydi.

Rauf Parfi butun boshli ijodida ozod insonni kuylab o'tgan shoirdir. Uning she'rlarining tarhi, memorial ko'rinishi va ichki bezaklari ham ozodlik, erk, vatan, umumturkiylik degan yaxlit bir chiziqdan o'tadi. Rauf Parfining she'rlarini kuzatar ekansiz, erk va ozodlik kurashchilari bo'lgan jadidlarga bag'ishlangan asarlarga tez-tez duch kelamiz. Shoir dunyoning qaysi burchida bo'lmasin, Vatan uchun kurashgan, Ozodlik uchun jon bergen insonlarga bag'ishlab asarlar bitadi.

“Rauf Parfi she'riyatining asosiy mavzusi — bu shaxs erki, Vatan mustaqilligi va Turkiston, Turk dunyosining birligidir; XX asr turk odamining abadiy shuurini, keskin foje ruhiyatini muqaddas turkiy tilda ifodalashga jazm

etgan va murodiga yetgan jasoratli she’riyatdir.” – deydi filolgiya fanlari doktori, professor No‘mon Rahimjonov “Sakina” kitobiga yozgan so‘zboshisida.¹

Rauf Parfi yumshoq o‘rindiqlarda o‘tirib Vatan haqida she’r bitmaydi, dang‘illama hovlilarda yashab och va yupun xalqning qismati haqida qayg‘urmaydi, balki o‘zi ham ana shu mazlum xalqning bir bo‘lagi sifatida, olov ichida turib olov haqida she’r bitgan shoirdir.

Mana shoirning “Vatan haqida Bernd Ientshga maktubim” she’ri:

Vatan haqida senga, Bernd,
 Shu maktubni yozayotgan paytim
 Tashqarida qor yog‘moqda ezgin-ezgin,
 Oppoq-oppoq, lo‘ppi-lo‘ppi. Nelarni yog‘ar qor?
 Tahayyul yog‘ar. Tahayyul otiga mingan osmon.
 Bernd, bunday yashash axir, ko‘p qiyindir balkim.
 Bernd, balkim xastalagan bizni bemavrid
 Yigirmanchi asr, deb nomlangan og‘riq.
 O‘tinaman, balandparvoz so‘zlar, deb o‘ylama tag‘in,
 Ehtimol, yechib tashlashimiz kerakdir qora ro‘molini
 dardli xotirotning munslug‘ boshidan.²

Bu she’r Vatanga shilqim oshiqlardek sevgi izhor qilib yozilgan she’rlardan keskin farq qiladi. Birinchidan, poetik matn juda to‘q. Unda olqish yo‘q, madh yo‘q, hamdu sano yo‘q, minbarlarda hayqirib o‘qilgan she’rlardan keskin farq qiladi: bu she’rda og‘riq bor, dard bor, iztirob bor. Go‘yoki shoir nemis shoiri bilan hasratlashuv bahonasida Vatanning o‘tmishini, kechmishini, u haqdagi tushunchalarini she’rga singdiradi. Bu she’rning tag ma’nosida otarning dupuri, odamlarning hayqiriqlari, tanklarning ovozi bor. Oq-oppoq, lo‘ppi-lo‘ppi qorning deraza ortida yog‘ayotganligi ertangi baxtli va osuda hayot uchun bashoratday taassurot qoldiradi. Xullas, Vatan haqida hayqirmsadan turib ham go‘zal va ichkin she’r yozish mumkinligini Rauf Parfining ushbu she’ri isbotlaydi.

Rauf Parfi she’rlari orasida o‘tgan asr jadidlariga bag‘ishlangan yoki bevosita ularning asarlari asosida she’rlaridan iqtibos keltirib yozilgan she’rlar anchagina. Shularning o‘ziyoq Rauf Parfi fikran va ruhan jadidlarga yaqin ekanini, jadidlarning davomchisi sifatida maydonga otilib chiqqanini anglatadi.

“Milliy uyg‘onish mintaqamizda jadidchilik shaklida namoyon bo‘ldi. Va u 20-yillarning o‘rtalarigacha davom etdi. 1926-yildan sovetlar unga qarshi keng

¹ “Сакина” Сайланма – 2013 йил, “Мұхаррир” нашриёти, 5-бет.

² “Сабр дарахти” китоби – Тошкент, Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986 йил, 87-бет.

ko‘lamda kurash boshladilar. 1929-yildan ularni jismoniy tugatish yo‘lga qo‘yildi”, – deb yozilgan “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti”¹ kitobining kirish qismida. Bunga qo‘shimcha tarzida aytmoqchi edikki, jadidchilik harakati aslida 1929-yillardan tugatilgan bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Biroq u XX asrning 70-80-yillariga kelib yana uyg‘ondi. Millat hayoti, tili, qadriyatları yo‘lida kuyingan, amaliy harakatlar olib borgan Rauf Parfini ham biz haqli ravishda jadid shoirlar safiga kiritamiz.

Uning millat dardida yozgan she’rlarining har birini o‘zining shoirlik, insonlik e’tiqodiga qarshi bormagan, chin ma’nodagi qahramonlik va jasorat namunalari deyish mumkin. Rauf Parfi nima uchun o‘z she’rlarida jadid adabiyoti va jadid namoyondalariga tez-tez murojaat qiladi? Avvalo, g‘oyaviy maslakdoshlik, tafakkur davomchiligi maqomi va qaysidir jihatdan buni tasavvufdagagi uvaysiylikka qiyos qilish mumkin.

“Uvaysiylik – bir kishining o‘zi zohiran ko‘rmagan shaxs yoki bir guruh shaxslardan ma’naviy bog‘lanish orqali ilm olishi va buning natijasida paydo bo‘lgan yo‘nalishni anglatuvchi tasavvuf istilohi, tariqatlarda sayru suluk bir shayx rahbarligida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, istisno hollarda shayxsiz ham Haqqa erishish mumkin. Bu yo‘lga uvaysiylik deyiladi”, - deb yozadi Xalqaro islom akademiyasi dotsenti Ibrohim Usmonov “Tasavvufda uvaysiylik yo‘li” nomli maqolasida.² Shuningdek, ushbu maqolada uvaysiylik adabiyot sohasiga katta ta’sir ko‘rsatgani aytildi. Qolaversa, Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Xoja Bahouddin Naqshband haqida yozayotib: “Ammo haqiqat yuzidan alar Uvaysiydurlar. Va tarbiyat Hazrat Xoja Abdulholiq G‘ijduvoniq q.s. ruhidan topibdurlar”³, -deydi. Rauf Parfi ijodda, adabiyot va millat yo‘lidagi amallarida jadidlar ruhoniyatiga g‘aybona bog‘lanishini kuzatish mumkin.

Shoirning “Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon”(1974), “Usmon Nosir”(1965), “Ona Turkiston”(1967), Abdurauf Fitrat (1991) kabi she’rlari jadidlarga, ya’ni jadidlar ilgari surgan ma’naviy-ma’rifiy, milliy g‘oyalarga bag‘ishlangan. Ularning har birida millatni asr-asrlar davomida tashvishlantirib kelgan o‘ylar she’rning o‘q chizig‘idan o‘tadi. Shoirning Abdulhamid Cho‘lponga bag‘ishlangan “Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon” deb nomlangan she’ri:

Ona tilim, sen ruhimning qanoti,
Abut turk nafasi, Oltoy chechagi.

¹ “Миллый уйғониш даври ўзбек адабиёти”, Бегали Қосимов ва бошқалар. – 2004 йил, “Маънавият” нашриёти.

² bukhari.uz – интернет сайти.


³ Алишер Навоий, “Насойим ул-муҳаббат”, “Фан” нашриёти, Тошкент, 2001 йил.261-бет

Xun davridan omon qoldi G‘iroting,
Qutlug‘ Enasoyning ezgu ertagi.

O‘rxun bo‘ylarida toshga aylanding,
Ko‘klarga sanchilding. Turon bo‘lding Sen.
Mangulik safarga qachon shaylanding?
Qachon bu alamga — kuchga to‘lding sen?

Porloq osmoningda quzg‘unlar uchdi,
Evoh, yog‘iylaring soldi yag‘moni.
Yog‘iylaring jigar qoningni ichdi.
Jigar-qon jarangi tutdi jahonni.


Onasen. Kechirding, qonidan kechding,
Biroq kechirmading aslo yolg‘onni.¹



She'r Abdulhamid Cho'lponga bag‘ishlab yozilgan. Biroq she'rning asosiy mazmuni til to‘g‘risida – u uringan, suringan, tarix dovullarida qolgan ona

¹ Райф Парфи “Туркестон руҳи” – “Шарқ” НМАК, 2013 йил, 163-бет.

tilining o‘tmishi va kechmishini kuylaydi. Shoир she’r davomida “Jigar-qon jarangi tutdi jahonni” deya she’rni botiniy hayqiriqqa to‘ldiradi. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, shoирning jadidlarga bag‘ishlangan har bir she’rida yagona Turkiston qayg‘usi bor. Erk, Ozodlik, Hurlik g‘oyalari ana shu tushunchalar ortida birlashadi.



Muvaffaqiyatli jihat shundaki, Vatan, millat haqida yozilgan she’rlarda, shoirlar har doim o‘zlari asosiy planga chiqib madh etadilar yoki hayqiradilar. Rauf Parfi esa she’rlarida she’rlarning ichiga singib ketadi. Uning dardi, og‘riqlari ko‘rinadi, o‘zi ko‘rinmaydi, ovozi yurakni tilib-tilib o‘tadi, biroq o‘zi she’rning tubiga sho‘ng‘ib ketganki, ko‘zga tashlanmaydi. Aniqrog‘i, shoир bizni she’r bilan yolg‘iz qoldiradi, har qadamda o‘z-o‘zini ko‘z-ko‘zlamaydi, o‘zi bo‘y ko‘rsatmaydi. She’rning asl va haqli shavkati ham ana o‘shanda bo‘lsa, ehtimol.

1. Ajab mudhish qora tun kafan tutar,
Bir zamon tinmaydir, izg‘irar shamol.
Daryo ko‘piradir, odamni yutar,
Ul go‘zaddir, ul - irganchdir, ul - xayol.

Riyozat qamchisi kabi savaydir,
Alkan yomg‘ir buzg‘un tanizorimni.
Ulug‘ Turkistonni kimlar sevmaydir?!
Fir’avnlar sevmas mening borimni.

Bu shoирning 1994-yilda yozilgan “Abdurauf Fitrat” she’ridan olingan. Shoир yurtning og‘ir ahvolini she’rda gavdalantirar ekan, o‘ziga xos ifoda yo‘sini topadi. Uchta qismdan iborat ushbu she’rning har bir qismi alohida sonet shaklida yozilgan. She’r Fitrat yashagan zamon chizgilariday tuyulsa-da, aslida unday emas. Unda 1994-yilgi xalqning uyg‘onmagan g‘ururi, dong qotgan sha’ni, pinakdagagi matlabi o‘z ifodasini topgan. Shoир “Tokay, uyg‘onmassan, ay qonli Turon” deya asrlar bo‘yi qonga botgan ona Turkistonning qayg‘uli qiyofasini aks ettiradi. Bir qahramonlik, bir jasorat istayotgan lirk qahramonining shahdu shijoati she’rda botiniga qarab tobora o‘sib boradi. Shu bois, biz Robindranat Tagor aytmoqchi “Deraza ortidan bir munglig‘ Hindistonni” emas, O‘zbekistonni, Turonni, Turkistonni ko‘ramiz. Vatan, Millat dardi esa o‘suvchi, ulg‘ayib boruvchi darddir, Og‘riqdir.

Rauf Parfining Vatan, Turkiston qayg‘usi mavzusidagi she’rlarini o‘qir ekanmiz, ularni har birimiz o‘z tengdoshimizning, eng yaqin odamimizning hasratiday qabul qilamiz. Negaki, ular juda samimiyl, yashash tarzimiz kabi oddiy. Ular Vatan haqida avval Arshni tavof qilib, keyingina she’r yozish kerak degan qotib qolgan tushunchalarni isloh qilib, goh yalang oyoq, goh qorni och bolaning ahvoli ruhiyasiga singishib ketganimiz – she’rlarni taqdim etadi. Shoirning psixologik priyomlari shu qadar noyobki, Vatan haqida muhabbat haqidagi she’rni o‘qiganday ichki bir yorishish, qoniqish bilan mutolaa qilamiz. Ular bizni yuzakilikdan, soxtalikdan, yasamalikdan, she’rning yon-atrofida daydishdan xalos etadi. “Aytilgan so‘z, otilgan o‘q” degan maqol ham aynan Rauf Parfi she’rlariga xosdek. Chunki shoir so‘zni shunchaki ishlatmaydi, shunchaki baland pardalarda gapirmaydi. Biz she’rning ichida topgan Rauf Parfiyimiz, hayotda uchratganimizdan farq qilmaydi. Uning vatanparvarligi o‘z bolasini turli balolardan asrayotgan onaning bolajonligi bilan birdek. Onaning bolajonligi qadar rostdir, sofdir uning vatanparvarligi.

Rauf Parfi uchun Vatan jug‘rofiy tushuncha hosil qilmaydi. Dunyoning qaysi burchida bo‘lmasin, qiynalgan, zulmga yo‘liqqan odam borki, uning vatandoshidir. Uning “Karlo Kaladze diyorida”, “Mikelanjelo sevgisi”, “Viktor Xaraning so‘nggi qo‘srig‘i”, “Pablo Neruda o‘limiga” kabi har bir she’rida Rauf Parfi uchun Vatanning cheki va chegarasi bo‘limganligini ko‘rish mumkin. Unining she’rlariga singigan turkchilik g‘oyasi, Turkiston, Turon mavzusi esa, vatanning chegaralanishi ma’nosida emas, qadimiy tushunchalarning asrab-avaylanishi, qadriyatlargacha munosiblik mazmuniga ko‘chadi.

Biz maqolamiz boshida Rauf Parfi ijodini ma’naviy va ruhiy tomondan jadid adabiyotida ilgari surilgan g‘oyalar, tushunchalar va jadidcha tafakkur yolqinining davomi sifatida talqin qilgan edik. Millatni milliy parokandalikdan, ma’naviy taloto‘mlardan asrab qolish sari yo‘l Rauf Parfi she’riyatida yanada keng quloch yoydi, takomillashdi. Zotan Rauf Parfi ijodi jadidchilik XX asrning birinchi choragida tugatilgan, degan fikrlarni puchga chiqaradi. Jadidchilik va jadidona g‘oyalar XX asr oxirida ham Rauf Parfi she’riyati misolida o‘zini yangi bir qiyofada ko‘rsata oldi.

IQTISODIYOT

TIZIMLI KO‘P VEKTORLI DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASI KONSEPSIYASI



**Ilyos
ABDULLAEV,**

**Iqtisodiyot fanlari
doktori, professor.**



**Dilfuza
MATYOQUBOVA,**

**Iqtisodiyot fanlari
bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent.**

UO‘K 750.20

Annotatsiya: Maqolada tizimli ko‘p vektorli diversifikatsiya strategiyasining mohiyati, nazariy asoslari va uni tashkilotlarning faoliyatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tahdidlarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullari, istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash jarayonlari va resurslar taqchilligini samarali boshqarish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Аннотация: В статье анализируются сущность, теоретические основы системной многовекторной стратегии диверсификации и ее значение в деятельности организаций. Даются рекомендации о том, как выявлять угрозы и как их устранять, как определять перспективные направления и как эффективно управлять нехваткой ресурсов.

Annotation: The article analyzes the essence, theoretical foundations of systematic multi-vector diversification strategy and its importance in the activities of organizations. Recommendations are made on how to identify threats and how to eliminate them, how to set forward-looking directions, and how to effectively manage resource shortages.

Kalit so‘zlar: diversifikatsiya, ko‘p vektorli strategiya, resurslar boshqaruvi, tahdidlar, imkoniyatlar, innovatsiya, strategiya.

Ключевые слова: диверсификация, многовекторная стратегия, управление ресурсами, угрозы, возможности, инновации, стратегия.

The keywords: diversification, multi-vector strategy, resource management, threats, opportunities, innovation, strategy.

Diversifikatsiya strategiyasi tashkilotning turli yo‘nalishlarda rivojlanishini ta’minalash uchun zamonaviy biznes sharoitida muhim vosita hisoblanadi. Bozordagi tezkor o‘zgarishlar, yangi raqobatchilarining paydo bo‘lishi va texnologik taraqqiyot tashkilotlardan faoliyatni kengaytirish va turli yo‘nalishlarda xavflarni kamaytirishni talab qiladi.

Tizimli ko‘p vektorli diversifikatsiya strategiyasi, ko‘plab yo‘nalishlarda faoliyat olib borish orqali tashkilotning barqarorligini ta’minalashga qaratilgan. Masalan, bir vaqtning o‘zida yangi mahsulot turlarini yaratish, yangi hududlarga

kirish va xizmatlar ko‘rsatishni kengaytirish mumkin [1]. Bunday yondashuv xavflarni qisman kamaytirish va yangi daromad manbalarini yaratishga xizmat qiladi.



Tizimli yondashuv – bu tashkilotning barcha elementlarini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqishdir. Bu yondashuv asosida tashkilotning ichki va tashqi omillarini tahlil qilish, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash va optimal qarorlarni ishlab chiqish mumkin [2]. Ko‘p vektorli diversifikatsiya strategiyasida tizimli yondashuvning quyidagi jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Tashqi muhit omillari. Tashqi bozorlardagi talablar, raqobatchilarning hatti-harakatlari, texnologiyalarning rivojlanish darajasi va qonunchilik o‘zgarishlari [3].

2. Ichki imkoniyatlar va chekllovlar. Tashkilotning moliyaviy, inson resurslari va texnologik imkoniyatlarini aniqlash. Shuningdek, resurslar taqchilligini hisobga olish [8]

3. Resurslar integratsiyasi. Turli yo‘nalishlarda resurslardan maksimal darajada samarali foydalanish uchun ularni muvofiqlashtirish va birlashtirish [7].

Tizimli ko‘p vektorli diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda quyidagi metodologik yondashuvlar asosiy ahamiyatga ega:

1. **SWOT tahlil.** Bu tashkilotning kuchli va zaif tomonlari, tashqi imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash uchun asosiy instrument hisoblanadi. Masalan, yangi mahsulotni bozorga kiritishda uning raqobatbardoshligi va tahdidlarni baholash zarur [2].

2. **PESTEL** tahlil. Bunda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarni hisobga olish orqali tashqi muhitni chuqurroq tahlil qilish mumkin [4].

3. Resurslar taqchilligi tahlili. Mavjud resurslarning chegaralanganligini hisobga olgan holda ularni optimal taqsimlash. Bu yerda inson resurslari va moliyaviy manbalarning taqchilligini baholash muhim ahamiyatga ega [9].

4. Innovatsiyalarga yo‘naltirilgan yondashuv. Innovatsion loyihalarni amalga oshirishdagi potensial imkoniyatlar va cheklowlarni baholash. Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish strategiyaning asosiy elementlaridan biri bo‘lib hisoblanadi [6].

5. Bozor tahlili. Raqobatchilarining ustuvor yo‘nalishlari, iste’molchilarining ehtiyojlari va bozor tendensiyalarini aniqlash. Masalan, yangi mahsulot yoki xizmat uchun mos segmentni tanlash [10].

Metodologik yondashuvlar asosida tizimli ko‘p vektorli diversifikatsiya jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Diversifikatsiya maqsadlarini belgilash.

Bu bosqichda tashkilotning uzoq muddatli maqsadlari va ularga erishish uchun istiqbolli yo‘nalishlar tanlanadi. Masalan, yangi bozorlarga chiqish yoki mahsulot turini kengaytirish [5].


2. Vektorlarni aniqlash. Turli yo‘nalishlarda diversifikatsiya imkoniyatlarini aniqlash va ularning asosida asosiy vektorlarni tanlash. Bunda ichki va tashqi triggerlar tahlil qilinadi [3].

3. Resurslar taqsimoti. Tanlangan yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni taqsimlash va ularni muvofiqlashtirish [7].

4. Risklarni baholash va boshqarish. Har bir yo‘nalishdagi ehtimoliy xavflarni baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish [9].

5. Natijalarni monitoring qilish. Diversifikatsiya jarayoni samaradorligini doimiy ravishda nazorat qilish va kerak bo‘lganda strategik rejalarini qayta ko‘rib chiqish [8].

Tadqiqotda biz taklif qilayotgan diversifikatsiyaning strategik asosi hulq-atvor iqtisodiyotiga asoslangan bo‘lib, tizimli, jarayonli hamda vektorli yondashuvlarni birlashtiradi. Bu bizga biznes tuzilmasini tashqi va ichki imkoniyatlar va qiyinchiliklarga ega bo‘lgan ochiq tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi, ularning o‘zgaruvchanligini taqqoslash innovatsion rivojlanishni diversifikatsiya qilish vektorlarini tanlashni belgilaydi(1-rasm).



Izoh: Trigger (inglizcha trigger “pawl, latch, trigger- umumiyl ma’noda biror narsani harakatga keltiruvchi element” ot ma’nosida; “harakatga solish” fe’li ma’nosida)

1-rasm. Tizimli ko‘p vektorli diversifikatsiya strategiyasi konsepsiysi¹

Bu iqtisodiyotni intellektuallashtirish sharoitida diversifikatsiya hisobiga biznes tuzilmasi imkoniyatlarini ko‘p qirrali yorituvchi tizimli ko‘p vektorli strategiyaning asosiga aylanadi.

Tizimli ko‘p vektorli diversifikatsiya strategiyasi ikkita muqobil yoki sinergetik variantni taklif qiladi: bir tomondan, strategiya innovatsiyalarni uzluksiz amalga oshirishga asoslangan konsepsiya sifatida qaraladi; boshqa tomondan - barcha funksiyalarda operativ boshqaruvni to‘ldirishga mo‘ljallangan, ammo tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslashishning uzoq muddatli maqsadlariga yo‘naltirilgan strategik menejment sifatida. Konsepsiya birinchi va ikkinchi bloklar elementlarini bir vaqtida va qiyosiy baholashni o‘z ichiga oladi, bu esa biznes tuzilmasining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilishning maqsadga muvofiqligini, xususan, innovatsion rivojlanish vektorini va diversifikatsiya ob’ektini aniqlash imkonini beradi.

¹ Муаллиф ишланмаси

Tizimli ko‘p vektorli diversifikatsiya strategiyasi tashkilotlar uchun samarali va uzoq muddatli strategik rejalarshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Resurslardan oqilona foydalanish, tahdidlarni aniqlash va innovatsiyalarni joriy etish asosida ushbu strategiya tashkilotning barqarorligini ta’minlashga qodir. Ushbu yondashuv biznes muhitidagi tezkor o‘zgarishlarga moslashish va raqobatda ustunlikka erishishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Porter, M. E. "Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors." New York: Free Press, 1980. 397 pages.
2. Ansoff, H. I. "Corporate Strategy: An Analytic Approach to Business Policy for Growth and Expansion." New York: McGraw-Hill, 1965. 241 pages.
3. Johnson, G., Scholes, K., & Whittington, R. "Exploring Corporate Strategy: Text and Cases." 8th Edition. Harlow: Pearson Education, 2008. 1044 pages.
4. Kotler, P., & Keller, K. L. "Marketing Management." 15th Edition. London: Pearson Education, 2016. 816 pages.
5. Prahalad, C. K., & Hamel, G. "The Core Competence of the Corporation." Harvard Business Review, Vol. 68, No. 3, 1990, pp. 79–91.
6. Rumelt, R. "Good Strategy Bad Strategy: The Difference and Why It Matters." New York: Crown Business, 2011. 336 pages.
7. Grant, R. M. "Contemporary Strategy Analysis: Text and Cases Edition." 10th Edition. Chichester: John Wiley & Sons, 2019. 800 pages.
8. Barney, J. B. "Firm Resources and Sustained Competitive Advantage." Journal of Management, Vol. 17, No. 1, 1991, pp. 99–120.
9. Teece, D. J., Pisano, G., & Shuen, A. "Dynamic Capabilities and Strategic Management." Strategic Management Journal, Vol. 18, No. 7, 1997, pp. 509–533.
10. Chandler, A. D. "Strategy and Structure: Chapters in the History of the Industrial Enterprise." Cambridge, MA: MIT Press, 1962. 463 pages.

IQTISODIYOT**SANOAT KORXONALARINI KLASTERLASHTIRISH USULLARI****UO'K 873**

**San'at
KADIROV,
Mustaqil tadqiqotchi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada klaster siyosati asosida sanoat korxonalarini klasterlashtirishning ahamiyati, mavjud imkoniyatlari va amalga oshirish usullari yoritib berilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются важность, существующие возможности и методы реализации кластеризации промышленных предприятий на основе кластерной политики.

Annotation: This article discusses the importance of clustering of industrial enterprises, their current opportunities and implementation methods, based on cluster policy.

Kalit so'zlar: Sanoat, korxona, klaster, klasterlashtirish, klaster siyosati.

Ключевые слова: Промышленность, предприятие, кластер, кластеризация, кластерная политика.

The keywords: Industry, enterprise, cluster, clustering, cluster policy.

Bugungi kunda klasterlarni tashkil etish iqtisodiyotni samarali rivojlantirish usuli bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat sohasida klasterlashtirish klaster tahlilni amalga oshirishga asoslanadi. Bu holatlar klaster tahlili yoki klasterlashtirish obyektlar guruhini kichikroq qismlarga ajratish bilan namoyon bo'ladi. Bundagi har bir kichik guruh klaster deb nomlanadi. Klaster turli mezonlar asosida shakllanadi. Ushbu obyektlar xususiyati hajmi, shakli, toifasi va ko'rinishi bilan namoyon bo'ladi. Bitta klaster ichida obyektlar boshqa mezonlarga ko'ra farq qilishi mumkin. Ammo, undan kamida bittasi o'xhash bo'lishi kerak.

Sanoat korxonalarini klasterlashtirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ayrim tadqiqotlarga asosan, klaster ichida klasterlashtirish, ya'ni pastki klasterlarni ajratib ko'rsatish bilan ko'rindi. Bu ierarxik tuzilmani shakllantirishga imkon beradi. Unda har bir obyekt kichikdan kattagacha bir nechta klasterlarga mos keladi. Klasterli ma'lumotlarni tahlil qilishda zarur mezonlarga mos keladigan bo'lsa, bitta obyekt ikki yoki undan ortiq klasterlarga tegishli bo'lishi mumkin. Klasterlashtirish ma'lumotlar yoki obyektlarni o'xhashligi va farqlariga qarab guruhash jarayonini aks ettiradi. Ushbu yondashuv ko'pincha axborot texnologiyalarida tizimlarning ishlashi, ishonchliligi va ko'lamini yaxshilash uchun qo'llaniladi [1].

Yana bir tadqiqotlarda sanoat sohasida klasterlashtirish bozor segmentatsiyasi, ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qilish, qidiruv natijalarini guruhash, tibbiy tasvirlash va tasvirni segmentatsiyalashni aniqlashga asoslanadi. Bu klasterlashtirish algoritmlarni SEO (search engine optimization - qidiruv tizimini optimallashtirish) nuqtai nazaridan va mashinani o'rganish usuli sifatidagi klaster tahlili nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Uning yadrosi bilan ishlash har qanday SEO strategiyasini tayyorlashning asosiy vazifasi bo'lib qaraladi. Eng ko'p vaqt talab qiladigan bosqich sifatida reytingda mos keladigan so'rovlarni izlab topish vaqt va pulni tejashga imkon beradigan maxsus yondashuvlarni talab qiladi.

Boshqa bir tadqiqotlarga ko'ra esa, SEO tarkibini klasterlashtirish asosiy afzalliklardan tashqari, veb-saytni Google algoritmlari uchun tushunarli bo'lib qaraladi [2]. Ya'ni, keng ma'noda klasterlashtirish obyektlar to'plamini klasterlar deb ataladigan guruhlarga bo'lish jarayonini anglatadi. Ushbu turdag'i obyektlar bir guruhga kirishi lozim. Turli klasterlardagi obyektlar iloji boricha farq qilishi kerak. SEO tizimida klasterlashtirish mos kalit so'zlarni aniqlashga imkon beradi va eng yaxshi reyting uchun kamroq ustuvorliklarni filtrlaydi.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligi korxonalarini klasterlashtirishga oid kompleks yondashuvni ularning bozor holatini tashxislash va ishlab chiqarish natijalarini oshirish uchun integratsiya imkoniyatlarini aniqlash imkonini beradi [3]. Buning uchun metodologiya sifatida klaster tahlilidan foydalaniladi. Klaster tahlili asosida ushbu iqtisodiy bozor segmentida muhim ahamiyatga ega bo'lgan turli faoliyatga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi korxonalari guruhi aniqlanadi. Ular doirasida klasterlashtirish ko'rsatkichlarining o'rtacha va chegara qiymatlari hisoblab chiqildi. Klasterlashtirish tufayli har bir kompaniyalar guruhi asosida kadrlar soni va ishlash ko'rsatkichlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan yetakchi klasterlar aniqlanadi. Ushbu klaster korxonalarini sanoatning yetakchilari bo'lib hisoblanadi. Ular texnologik, innovatsion, logistika va xalqaro faoliyat bilan shug'ullanadilar va yuqori darajadagi strategik rejorashtirish va boshqaruvga ega bo'ladi. Ushbu tavsif esa klasterlarning asosiy mezonlarini taqqoslashga va ishlab chiqarish natijalarini yaxshilash uchun strategik harakatlar sohasini aniqlashga imkon beradi.

Sanoat korxonalarini klasterlashtirish mexanizm sifatida ham qaraladi. Chunki, mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning eng samarali mexanizmi milliy klaster siyosatini shakllantirishdir[4]. Shunday ekan, zamonaviy klaster doimiy o'zgarib turadigan mahsulot guruhlarini yaratadi, mahalliy lashtirilgan subpudrat va autsorsing tamoyillaridan samarali foydalanadi. Bunda subpudratchilar geografik jihatdan asosiy ishlab chiqarishga yaqin joylashadi va ishlab chiqarishni rivojlantirish omili malakali va ijodiy fikrlaydigan kadrlar bo'lib qaraladi.

Fikrimizcha, klasterlashtirish o‘z maqsadi va vazifalariga ko‘ra, tarkibiy guruhlarga aylanadi. Bu borada, ma’lumotlarni tahlil qilish quyidagi asosiy maqsadlarga qaratiladi:

- tushunish. Unga asosan, ma’lumotlarni guruhlarga ajratish zarur ma’lumotlarning to‘planganligini tushunishga yordam beradi. Keyinchalik esa, ularni qayta ishslash osonroq bo‘ladi. Masalan, turli klasterlarga maxsus tahlil usullarini qo‘llash shular jumlasidandir;
- me’yorlashtirish. Klasterlashni amalga oshirgandan so‘ng, korxonalar tarkibida klasterlarga tegishli bo‘lmagan alohida ma’lumotlar paydo bo‘lishi mumkin. Bu esa xato yoki qiziqarli hodisa ekanligini tushunish uchun ularni chuqur o‘rganishni taqozo qiladi;
- kengaytirish. Ba’zida ma’lumot to‘plashda ba’zi ma’lumotlar ko‘proq belgilarga ega bo‘lib, ba’zilari esa kamroq bo‘ladi. Shunga asosan, klasterlashtirish klaster unsurlarida yetishmayotgan belgilarni taxmin qilishga imkon beradi. Masalan, erkaklar klasteridagi mijozlar saytda o‘rtacha 15 daqiqa vaqt sarflashlari ma’lum bo‘ladi. Shunga asosan, klasterda saytda qolish vaqtini paydo bo‘ladi;
- kichraytirish. Agar ma’lumotlar ko‘p bo‘lsa, ularni klasterlarga bo‘lish, o‘rtacha hisoblash va har bir klaster uchun bitta obyektni qoldirish mumkin. Bu esa keljakda tahlil paytida kamroq quvvat ishlatishga imkon beradi.

Shuningdek, sanoat korxonalarida ma’lumotlarni klasterlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahlil emas, ya’ni dastlabki bosqich bo‘lib hisoblanadi. Bu esa boshqa tahlil usullaridan foydalanishni osonlashtiradi. Ular haqida ko‘proq ma’lumotni “ma’lumotlar tahlilchisi” sifatida qarash mumkin bo‘ladi. Bu borada klasterlashtirish usullari qo‘llaniladi. Unga asosan, klaster tahlili usullari ajratilmaydi. Ya’ni, u turli vositalar va algoritmlar yordamida amalga oshiriladi. Ularning tanlovi ma’lumotlar to‘plamiga, klasterlash vazifasiga va berilgan tahlil shartlariga bog‘liq bo‘ladi.

Shularga muvofiq, sanoat korxonalarida mavjud ma’lumotlarni klasterlashtirish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- yuqoridan pastga nisbatan algoritmlar. Obyektlar avval bitta klasterga joylashtiriladi. So‘ngra esa asta-sekin kamroq klasterlarga ajratiladi;
- yuqori algoritmlar. Har bir obyekt klaster bilan belgilanadi va keyinchalik esa ular kichraytirish darajasigacha asta-sekin birlashtiriladi;
- kvadratik xato algoritmlari. Ular xatoning matematik formulasi asosida klasterlar hisobiga quriladi. Bunday algoritmlar mashhuri K-o‘rtacha usuli sifatida bir-biridan iloji boricha uzoqroq bo‘lgan zarur miqdordagi klasterlarni yaratib bera oladi;

- sun'iy intellekt tizimlari. Bular yordamida obyektlarni ajratishga imkon beradigan neyron tarmoqlari ishga tushadi. Ushbu usul klasterlar soni noma'lum bo'lganda qo'llaniladi;

- mantiqiy yondashuv. Bu ma'lumotlar yordamida klasterlarga bo'lingandagi qaror daraxti bo'lib xizmat qiladi.

Fikrimizcha, sanoat korxonalarini klasterlashtirish turli toifalash shaklidagi sxemaga ega bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Sanoat korxonalarini klasterlashtirishni toifalash sxemasi

Ushbu 1-rasmga asosan, sanoat korxonalarini klasterlashtirishning o'z afzalliklari bilan birga kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ularning ikkala shakli ham iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi. Shu orqali sanoat korxonalarining iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalaniladi.

Shuningdek, sanoatda klasterlashtirish iqtisodiy rivojlanish dasturlarining ko'pgina maqsadlariga mos keladigan tarzda resurslarni birlashtirish va yo'naltirishga imkon beradi. Xususan, biznesni keng jalb qilish, saqlash, kengaytirish va yangi biznesni yaratish shular jumlasidandir. Shu orqali mahalliy hukumat menejerlari va boshqa mahalliy amaldorlar iqtisodiy rivojlanish, ta'lim va o'qitish, ishchi kuchini rivojlantirish va infratuzilmani ta'minlash kabi qator sohalarni muvofiqlashtirish orqali klasterlar muvaffaqiyatini oshirishi mumkin. Shu bois, sanoat sohasida klasterlarga kirish taklif qilinadi va klasterga asoslangan iqtisodiy rivojlanish strategiyalari rivojlanib boradi.

Mazkur usul sanoat sohasida o'rganilayotgan iqtisodiy tizimlar tarkibi, ko'rsatkichlari, prognozlash vositalari, ma'lumotlarni rejalashtirish, tadqiqot sanasi, boshlang'ich maqsadi va manfaatdor tomonlarning tarkibini qayta ko'rib chiqish shaklida parametrlarni o'zgartiradi. Klasterlashtirish usuli taqqoslangan iqtisodiy tizimlar to'plamiga ta'sir qiladi. Keyinchalik ushbu sintezga asoslangan usul qolgan variantlarga nisbatan qo'llaniladi. Bu esa sanoat sohasida yangi

klasterlarga xos qoldiqni olish imkonini beradi. Ushbu tahlil sintez usulini amalgalashish taqqoslangan iqtisodiy tizimlar ierarxik tuzilishini aniqlashga olib keladi. Klasterlash usuli ko‘p proyeksiyalı tanlov nazariyasi va metodologiyasi tarkibiy qismiga aylanadi. Bu barqarorlik, xavfsizlik, innovatsiya va samaradorlikni tahlil qilishning dolzarb muammolarini hal qilishda iqtisodiy tizimlarni o‘rganish uchun modellar yaratishda, ularning tasniflari, texnikasi va algoritmlarini ishlab chiqishda foydali bo‘ladi.

Xulosa shuki, sanoat korxonalariga xos ma’lumotlar doimo klasterlarga asoslanadi. Shunga ko‘ra, turli klasterlarda farq qiladigan ichki va eng muhim xususiyat unda olingan barcha ma’lumotlarga ajratilishi bilan belgilanadi. Natijada, xaridorlar yoshi bilan bog‘liq holda algoritmlarni sozlash mumkin bo‘ladi. Shu orqali butun ma’lumotlar qatori yoshga qarab guruhlanib boradi. Mahalliy iqtisodiyotni klasterlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish sanoat korxonalari ehtiyojlarini to‘ldiruvchi sohalardagi korxonalarga jamiyatni yanada jozibador qilishi mumkin bo‘lgan tarzda hal qilish uchun qo‘sishma foyda keltiradi. Bu borada mavjud sanoat korxonalari ehtiyojlarini qondirish ahamiyatli bo‘lib qaraladi. Chunki, mavjud korxonalarni saqlab qolish yangilarini yollashdan ko‘ra samarali hisoblanadi. Bu esa xarajat asosida yangi ish joylarini olib kirishga imkon beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://medium.com>
2. <https://serpstat.com/ru/blog/kak-provesti-klasterizaciyu-zaprosov-s-pomos-hyu-serpstat/>
3. Huseynov R., Aliyeva N., Bezpakov V., Syromyatnikov D. Cluster analysis as a tool for improving the performance of agricultural enterprises in the agro-industrial sector. // Environment, Development and Sustainability, Springer, 2024, Vol. 26(2). - pp. 4119-4132.
4. Воротников К.А. Кластеризация как инструмент повышения конкурентоспособности предприятий. // Финансовая аналитика проблемы и решения, 7 (19), 2009. - с. 43.
5. Лапаев Д.Н. Метод многопроекционной кластеризации экономических систем. // Экономика, предпринимательство и право. – 2024. – Т. 14, № 9. – С. 4813-4826. – DOI 10.18334/epp.14.9.121596

FALSAFA

**YOSHLARNI INTELLEKTUAL SHAKLLANTRISHDA
KITOBXONLIK MADANIYATINING O'RNI**

UO'K 316.32.(575,1)



**Odilbek
RADJAPOV,**

**Urganch innovotsion
universiteti o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodni intellektual shakillantrishda kitobxonlik madaniyatining o'rni va shu orqali jamiyatning rivojlanishi muammolarini oldindan ko'ra bilishi va ularning yechimi xususida yuksak madaniyatli fikr yuritish saviyasi va ko'nikmalariga qiziqtrish masalasi yoritilgan.

Аннотация: В статье рассматривается роль культуры чтения в интеллектуальном формировании подрастающего поколения, а через это — развитие высокого уровня культурного мышления и умений предвидеть проблемы развития общества и решать их.

Annotation: This article discusses the role of reading culture in the intellectual formation of the growing younger generation, and through this, the development of a high level of cultural thinking and skills in anticipating the problems of society's development and solving them.

Kalit so'zlar: intellektual madaniyat, ma'naviy madaniyat, intellektual samaradorlik, xalqaro reyting, kitobxonlik, g'oja, komillik, oqilonalik, mutolaa.

Ключевые слова: интеллектуальная культура, духовная культура, интеллектуальная эффективность, международный рейтинг, чтение, идея, совершенство, рациональность, чтение.

The keywords: intellectual culture, spiritual culture, intellectual efficiency, international rating, book reading, idea, perfection, rationality, reading.

Hozirgi kunda jamiyat uchun xarakterli bo'lgan tobora o'sib borayotgan hayot murakkabliklari va xilma-xilliklari "o'zgarishlar tezlashuvi", metodologik diskurslar polifoniysi sharoitida, ko'p o'lchamli borliq, borliqdagi yuqori darajadagi oqim va noaniqliklar, yangicha ta'lim paradigmasi shakllanishidagi axborot oqimining o'sishi kabi va boshqa bir qator omillar intellektuallashgan ta'limni talab qilmoqda, shu nuqtai nazardan oliy ta'lim intellektual madaniyat ishlab chiqaruvchi institut sifatida qaraladi.

Intellektual madaniyat umumiylari xarakteri jihatidan “bir shaxsdan tortib yaxlit bir jamiyatgacha bo‘lgan miqyosda; yoki intellektual faoliyat jarayonida o‘zining shaxsiy intellektual madaniyatini shakllantiruvchi bir insondan to sotsiumda intellektual madaniyatni ishlab chiqishga qadar bo‘lgan” mashtabda ko‘rib chiqiladigan fenomen sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ko‘pgina tadqiqotchilar intellektual madaniyatni tafakkur va uning xususiyatlari orqali belgilaydi, kasbiy yoki ma’naviy madaniyat elementi sifatida ko‘rib chiqishadi[1].

Hozirgi adabiyotlarda intellektual madaniyat shakllanishiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, ammo bu mavzuda mustaqil tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Intellektual madaniyat deganda intellekt va shaxs birligi tushuniladi. Shaxsiy xususiyatlarda sifat ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan intellekt samarasi shaxs faoliyati va dunyoqarashi asosida yuksalib boradi. Bunday shaxsiy intellektual samaradorlikka turli omillar to‘sinqilik qilishi mumkin. Masalan, “NOP World” xalqaro reyting agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda odamlar haftasiga 16,6 soat vaqtini televizor ko‘rishga sarflasa, 8,9 soatni kompyuter qarshisida o‘tkazadi, 6,5 soatni esa mutolaaga ajratadi. 2016-yilda haftasiga eng ko‘p kitob o‘qiydigan mamlakatlar ro‘yxatida Hindiston — 10,7, Tailand — 9,4, Xitoy — 8, Filippin — 7,6, Chexiya — 7,4, Rossiya — 7,1, Shvesiya — 6,9, Fransiya — 6,9 va Vengriya — 6,8 soat bilan yuqori o‘rnlarni egalladi[2].

Kitobxonlik ziyolilik madaniyatining asosini tashkil qiladi. Shuningdek, aynan kitobxonlik madaniyati sohiblarining sonining ortishi XX asr intellektual faoliyatining asosiy xususiyatlardan biri bo‘lib qolmoqda. Kitobxonlik madaniyati yangi tafakkur usullari va faoliyatning yangi tashkiliy shakllari namoyon bo‘lishi hisoblanadi, ya’ni kitobxonlik rivoji jarayonida subyektiv jihatdan yangi fikr, g‘oyalarga ega bo‘lish, shaxsning standart faoliyat doirasidan chiqib, yangi g‘oyalalar yaratishiga keng imkon beradi. Bizning nazarimizda kitobxonlik madaniyati bu shaxsning komillik darajasi, ma’naviy boylik va oqillik, mustaqil tafakkur, umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilish, hodisalarning qarama-qarshi jihatlarini ko‘ra olish va baholash, o‘z bilimlarini faollik bilan ko‘paytirib borish, ishga ijodiy yondashishdir. Bu madaniyatni rivojlantirish uchun sharoit yaratish ekanmiz, ayni vaqtida mavjud voqelikni bilish, unga moslashish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini boshqarish uchun imkon yaratgan bo‘lamiz. Boshqacha qilib aytganda, kitobxonlik madaniyati insonga unda mavjud bo‘lgan bilim va tajribani samarali qo’llash imkonini beradi. Bunday shaxsni tarbiya qilish ta’lim sohasining bosh vazifasi hisoblanadi. Shu boisdan ham “Mutolaaga qiziqish susayishi, o‘z navbatida, aholi savodxonligi darajasi pasayishi jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Shuning uchun ham ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda bu salbiy holatning oldini olishga qarshi qat’iy chora-tadbirlar ko‘rilmoxda. Umummilliy kompleks dasturlar ishlab chiqilyapti. Ularda davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari, kutubxonalar, ta’lim muassasalari, ta’lim, ilm-fan va tadbirkorlik subyektlari, sohadagi fuqarolik jamiyatni institutlari hamda ommaviy axborot vositalari sa’y-harakatlarini birlashtirish bo‘yicha tizimli chora-

tadbirlarni ko‘rish ko‘zda tutiladi. Bunda kitobxonlikning qadri va ahamiyati haqida ijtimoiy ongni shakllantirish, aholi turli qatlami o‘rtasida mutolaa madaniyatini manzilli qo‘llab-quvvatlash hamda rivojlantirish, noshirlik faoliyatini takomillashtirish, jamiyatning intellektual, ma’naviy va madaniy ehtiyojlariga to‘liq javob beradigan kitob bozorini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dunyo tajribasiga ko‘ra, bunday maqsadli dasturlar hamda konsepsiylar qabul qilinishi ijobiy natija beradi”[2].

Pedagogik ahamiyat jihatidan intellektual madaniyat individual ta’lim kabi shakllanib, rivojlanadi va o‘zgarib turish xususiyatiga ega. Intellekt (kommunikativ konvensionallikka moslashuv qobiliyatidan iborat) va kreativlik (qisqa muddatlarda va ijtimoiy buyurtma asosida yangilikni taqdim qilish qobiliyatida ifodalanadi) zamonaviy shaxs xossalari, shuning bilan birga o‘z-o‘zini muvaffaqiyatli faollashtirish va ijtimoiy moslashuvchanlik asosi hamdir. Intellekt – daromad, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy ta’lim va ma’lumot darajasi, oilaviy sharoit va h.k. kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida shakllanadi.

Intellekt va kreativlik komplementar nisbatda amal qiladi. Intellektning funksiyasi atrof-muhit bilan munosabatlarni optimallashtirish, u bilan qayta aloqa bog‘lash, vaziyatlarni barqarorlashtirish va uni saqlashdan iborat. Kreativ ibtido esa ancha faol bo‘lib, atrof-muhitni qayta o‘zgartirishga qaratiladi. Bunday komplementar aloqaning o‘ziga xosligi bu ikki tarkibiy qismlardan birining dominantligidan tashkil topgan.

Kreativ texnologiyalar subyekt faoliyatida mutlaq o‘zgarishlarga olib kelib, insonga noma’lum vaziyatlarda fikrlashga yordam beradi. Elektron mashinanining ishi inson uchun o‘ziga xos intellektual tasavvurga aylanadi. Qaysiki individ o‘zining miyasi faoliyatidan uning o‘ziga axborot berib turadi. Chunki uning vazifasi ham kompyuter dasturi imkoniyatlarini to‘liq o‘zlashtirishdan iborat.

Interfaol ekran insonni o‘z tarmog‘iga shu darajada integratsiya qiladiki, u vaqt kelib, o‘zini tarmoqning bir qismi sifatida his qilishigacha, o‘zining shaxsiy “Men”ini virtual bilan aynan o‘xshatadigan bo‘lib qoladi. Kompyuterlarni ommaviy foydalanilishi, insonlar ongiga ta’sir qiladi, ularni to‘g‘ri va noto‘g‘ri tushunchalar haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirib yuboradi. Insonning o‘ziga xos madaniyatga o‘tishini - kompyuter olamida shakllanib borayotgan, o‘z an’analari, hayot tarzi, axloqiy normalari, o‘ziga xos tiliga ega bo‘layotgan “kibermadaniyat” vakiliga aylantirib qo‘yadi. Demak, zamonaviy jamiyatda inson individualligi yo‘qolishi tahdidi mavjud. Bu bir tomonidan, boshqa tomonidan esa aynan innovatsion jamiyatda shaxs intilishlari, e’tirof va o‘zining intellektual hamda kreativ qobiliyatlarini amalga oshirishga bo‘lgan harakatlari faollashadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Корнев В.В. Социодинамика интеллектуального потенциала общества: диссертация ... кандидата философских наук. - Нижний Новгород, 2002. - 123 с.
2. <https://old.xs.uz/index.php/homepage/madaniyat/item/9477> // Mutolaa madaniyati va intellektual salohiyat A.Abdullaev 14-Fevral 2017



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

**1 (22)
2025-yil, yanvar.**

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o'rinnbosari:	S.Samandarova
Mas'ul kotib:	U.Bekimmetov
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	A.Xushnudov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni
№062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqt: 10:00. Ruxsat etilgan vaqt: 11:00

Qog'oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 5,625 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko'rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

"Milleniumus print" MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, "Shermatlar" MFY, Tadbirkorlar ko'chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, "Mustaqillik" MFY,
Gurlan ko'chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22